

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqi asosida
UDK: 341(043.5)(575.1)**

XODJAYEVA AZIZA BAXTIYAROVNA

**O'ZBEKISTON VA FAONING XALQARO HUQUQIY HAMKORLIK
MASALALARI.**

12.00.10.-Xalqaro huquq

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

**yuridik fanlar doktori,
professor
G. Yuldasheva**

TOSHKENT – 2024

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. BOB. BMTNING OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI TASHKILOTI (FAO)NING XALQARO-HUQUQIY MAQOMI.	
1.1-§. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning tashkil etilish va rivojlanish tarixi.....	13
1.2-§. FAOning BMT tizimidagi ixtisoslashgan muassasa sifatida tutgan o‘rni va uning faoliyat yo‘nalishlari.....	24
1.3-§. Butunjahon global oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi va uni bartaraf etishda FAOning roli.....	36
Birinchi bob bo‘yicha xulosalar.....	50
II. BOB. FAO VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BILAN O‘ZARO HAMKOPLIK FAOLIYATINING SHARTNOMAVIY-HUQUQIY ASOSLARI.	
2.1-§. FAOning xalqaro-huquqiy hujjatlarining yuridik tahlili va klassifikatsiyasi.....	52
2.2-§. FAOning O‘zbekiston Respublikasi bilan ikki tamonlama xalqaro- huquqiy hamkorligining ustuvor yo‘nalishlari.....	60
2.3-§. FAOning O‘zbekiston Respublikasi bilan Qishloq xo‘jaligi sohasidagi xalqaro- huquqiy hamkorligi.....	70
Ikkinchchi bob bo‘yicha xulosalar.....	77
III .BOB. FAO VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO TASHKILTLAR DOIRASIDAGI HAMKORLIGINING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI.	
3.1-§. FAO va O‘zbekistonning Respublikasining xalqaro-huquqiy hamkorligining maqsad va vazifalari.....	81
3.2-§. O‘zbekistonning FAO bilan o‘zaro hamkorlik yo‘nalishlari va uning istiqbollari.....	91
3.3-§. FAO va O‘zbekiston Respublikasining Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha xalqaro jamg‘armasi (IFAD) bilan o‘zaro hamkorlik doirasi.	103
XULOSA.....	115
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	127
ILovalar.....	138

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida globallashuv va axborot texnologiyalarining taraqqiyoti ta'sirida shuningdek, aholi sonining o'sib borishi, iqlim o'zgarishi, natijalarida yer yuzida oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyojlar soni ham ortib bormoqda. Jahon oziq-ovqat jamg'armasi dasturi (WFP) va Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)ning bergan ma'lumotiga ko'ra 2024-yilda ushbu xalqaro tashkilotlar faoliyat yuritayotgan 72 mamlakatda 309 million kishi oziq-ovqat xavfsizligi muammosiga duch kelmoqda. WFP dasturi jahon miqyosida, 2024-yilda 45 mamlakatda 42,3 millionga yaqin odam "Favqulotda vaziyat tufayli oziq-ovqat havfsizligi va ochlik darajasiga uchraydigan hududlarni aniqladi. Shulardan, Kongo Demokratik Respublikasi, Markaziy Sahel, Gaiti, Sudan, Falastin va Yaman¹ davlatlari oziq-ovqatdan aziyat chekayotgan aholi falokati va ocharchilik sharoitiga tushib qolish xavfi ostida qolgan eng kuchli hududlar ro'yhatidan joy oldi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosini hal etish har qanday mamlakatning davlat siyosati va ilmiy tadqiqot ob'yektining muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Butun bir mamlakat va uning ayrim mintaqalarini oziq-ovqat bilan ta'minlashda nafaqat agrosanoat kompleksi va qishloq xo'jalik tarmog'iga qator vazifalar qo'yilgani bilan ularni kompleks holda hal etish talab etiladi. Hamda, ushbu sohada xalqaro tashkilotlar va davlatlararo xalqaro-huquqiy hamkorlik doirasini, kengaytirish chora-tadbirlari ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Bu borada mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev—Oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal etish, genetik modifikatsiya qilingan mahsulotlar yetishtirmaslik bo'yicha qat'iy nazorat o'rnatishga alohida e'tibor qaratish talab etadi. So'nggi yillarda mamlakatimiz bozorlarida import meva-sabzavot mahsulotlari ko'payib borayotgani bizni albatta hushyorlikka chaqirishi kerak. Bunday holatning oldini olish uchun, avvalo, yo'qolib borayotgan qadimgi navlarni tiklash, seleksiya ishlarini oqilona va samarali yo'lga qo'yish, sohaga ilm-fan

¹ WFP Global Operational Response Plan:Update: №10 Febrary 2024. <https://www.wfp.org/publications/wfp-global-operational-response-plan>

yutuqlari, innovatsion ishlanmalarni keng joriy etishimiz zarur deya ta'kidlab o'tgani ushbu masalaning e'tiborga molik ekanligini ko'rsatib beradi.¹

Shuningdek, 2022 yil 28 yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli 2022-2026 yillarga mo'ljallangan "Taraqqiyot strategyasi"ning davlat dasturiga kiritilgan 21, 22 va 96 maqsadlarida keltirilgan ustuvor vazifalarning muhimligi ham o'rganayotgan mavzuimizning xalqaro dunyoda nechog'liq kerakligini belgilaydi.²

2021 yil aprel oyida FAOning Bosh direktori o'rribosari hamda Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha mintaqaviy vakili Vladimir Raxmanin "O'zbekiston FAOga a'zo bo'lganligining 20 yilligi nishonlanmoqda, — deydi. Bu davrda hamkorligimiz muttasil rivojlanib bordi va shuni alohida aytish kerakki, pandemiya davrida 2020 yil O'zbekiston raisligida FAOning Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha Mintaqaviy konferensiyasining muvaffaqiyatlari o'tkazilishi alohida voqelik bo'lganligi. FAO va O'zbekistonning yaqin yillarda hamkorlik aloqlarini yanada rivojlantirishga umid qilamiz"³ deya bildirilgan fikr yaqin va uzoq kelajakda ushbu xalqaro tashkilot bilan O'zbekistonning xalqaro hamkorliginig takomillashini belgilab beradi.

Shuningdek, FAO va O'zbekiston o'rtasidagi 2021 — 2025 yillarga mo'ljallangan Mamlakat hadli dasturi o'zaro hamkorlikni yanada kengayishiga turki bo'ladi va tegishli yo'l-yo'riqlarni belgilab beradi.⁴ Barqaror rivojlanish bo'yicha milliy ustuvor vazifalarga muvofiq FAO 2030 yilgacha bo'lган davrda Barqaror rivojlanish bo'yicha kun tartibini amalga oshirish yuzasida hukumatni qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining qiymat zanjiri bo'ylab oziq-ovqat tizimlarining barqarorligiga erishishga yordam berishga va

1 Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. 2017 yil 22 dekabr. <https://president.uz/oz/lists/view/1371>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-soni <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

3 A roundtable meeting marked the official launch of the FAO-Uzbekistan Country Programming Framework (CPF) for 2021–2025 and giving impetus and further guidance to their partnership. In line with national sustainability priorities, FAO signed up to support the Government in implementing the 2030 Agenda and assist Uzbekista n achieve sustainable food systems along the entire agri-food value chain. <https://uzbekistan.un.org/en/124432-fao-and-uzbekistan-sign-agreement-guiding-collaboration-food-and-agriculture-through-2025>

4 O'zbekiston va FAO o'rtasida 2021-2025 yillarga mo'ljallangan mamlakat hadli dasturi. <https://uzbekistan.un.org/uz/124432-fao-va-o%E2%80%98zbekiston-o%E2%80%98rtasida-oziq-ovqat-va-qishloq-xo%E2%80%98jaligi-sohasida-2025-yilgacha>

mamlakatimizda ushbu sohaning amaliy rivojlanishida va ijrosini ta'minlashda ushbu tadqiqot ishi ham muayyan darajada o'zaro hamkorligimizning takomilashishida hizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'r ganilganlik darajasi. Ushbu ilmiy tadqiqot mavzusi bir qancha horijiy olimlar tomonidan o'r ganilagan, jumladan AQSH, MDH va O'zbekiston doirasida ham u yoki bu tamonlari o'r ganilganligini keltiramiz. Misol uchun Brigit Leye Naida Ramisingxning FAOning kelib chiqish tarixiga va Kodeks Alemintarius deb nomlangan tadqiqot ishi, Olivia Rose Xustlebyning BMT va FAOning amaliyoti bilan bog'liq bo'lgan ilmiy ishi, Amiy L. Stoplesning Xalqaro identifikatsiyani yaratish: Jahon banki, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti va jahon sog'lijni saqlash tashkiloti faoliyati nomli tadqiqot ishi, Paolo Mefalopulosning Janubiy Afrika uchun FAO loyixasi nomli ishi, Maria Grazianing FAO va Xalqaro savdo munosabatlaridagi huquq va erkinliklariga oid tadqiqot ishlarida asosan FAOning umumiy nazariy kelib chiqish tarixi va faoliyat yo'nalishlari kabi qarashlar yoritilgan.¹

Shuningdek, MDH doirasida G.N. Proxorova o'zining tadqiqotlarida ikki jihatga e'tibor qaratadi: FAOning rivojlanayotgan mamlakatlar ehtiyojlariga yo'naltirilgan faoliyati va qishloq xo'jaligidagi ilmiy-texnik taraqqiyotga ko'maklashishni. K.A.Bekyashevning tadqiqot ishlarida, FAOning asosiy organlari va ixtisoslashgan tuzilmalarining baliqchilik sohasidagi vakolatlari va funksiyalarini ko'rib chiqdi, shuningdek, I.V.Antonovaning FAO vazifalarining Hozirgi zamon halqaro huquqidagi muammolari mavzusidagi tadqiqot ishi alohida o'ringa egadir.

¹ Mazkur olimlar asarining to'liq ro'yhati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

Bundan tashqari Yu.A.Valetovaning FAO va oziq ovqat xafsizligiga oid ilmiy ishi, A.V.Malxasyanning Agrar sohada oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta'minlashga oid tadqiqot ishi, Hamda R.A.Azxodjayevaning FAO va Jaxon savdo tashkilotining xalqaro huquqda sog'liqni saqlashdagi ahamiyati mavzusidagi tadqiqot ishlari ham ushbu sohani o'rgangan.¹

Hamda O'zbekiston olimlari tomonidan ushbu tadqiqot ishinig umum-nazariy tamonlari o'rganilgan. Jumladan: A.Saidov, G.Yuldasheva, M.Mahamatov, N.Gaffurova, M.Fazilov, A.Abdug'aniyev Sh.Beridiyev A.Mo'minov, Z.Borsiyeva kabilar tomonidan mavzuning u yoki bu tomonlari o'rganilgan.

Shuningdek, ushbu sohada iqtisodiyot tarmoqlarida mintaqa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Mintaqa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ilmiy amaliy masalalari mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida keng tadqiq etilgan bo'lib, ulardan B.E.Mamarahimov, T.S.Rasulov, T.V.Uskova, R.Ya.Selimenkov, A.N.Anishenko, A.N.Chekavinskiy, va boshqa olimlarning ishlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Yuqorida bayon etilganlar Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining shakllanishining asosiy bosqichlari, huquqiy maqomi, xalqaro shartnomalari va tashkilotning faoliyat yo'nalishlari bilan bog'liq bo'lgan kompleks tadqiqot ishi sifatida o'rganilganligini ko'rsatadi, ammo O'zbekiston Respublikasi va FAO tashkilotining **xalqaro-huquqiy hamkorligining va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik jihatlari, o'rganilmaganligidan dalolat beradi.**

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-ishlar rejasidagi muvofiq O'zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligini oshirishda, ratifikatsiya qilingan konvensiyalar normalarini milliy qonunchilikka

¹ Mazkur olimlar asarining to'liq ro'yhati dissertatsiyaning foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berilgan.

implementatsiya qilish, xalqaro shartnomalar ijrosi monitoringini olib borish masalalari ilmiy tadqiqotlarining ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqod maqsadi. Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti FAO va O'zbekiston respublikasi bilan o'zaro hamkorligi yo'lida, ushbu jarayondagi mavjud bo'lgan muammo va huquqiy bo'shliqlarni aniqlash, shuningdek xalqaro hamkorlikni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy va amaliy taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

FAOning institusional jihatdan shakllanishi va rivojlanish tarixini asosiy bosqichlarini tadqiq etish orqali har bir davr xususiyatlarini aniqlash;

FAOning BMT tizimidagi ixtisoslashgan muassasa sifatida tutgan o'rni va uning O'zbekiston bilan hamkorlik faoliyatidagi tutgan o'rnini asosiy yo'nalishlari va muammolarini aniqlash;

Butunjahon global oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasi va uni bartaraf etishda FAO va O'zbekiston Respublikasining tutgan o'rnini tahlil qilish;

FAOning xalqaro-huquqiy hujjalarni yuridik tahlili va uning klassifikatsiyasini yoritish;

FAO va O'zbekiston Respublikasining xalqaro-huquqiy hamkorligining maqsad va vazifalarini aniqlash;

FAO va O'zbekiston Respublikasining ikki tamonlama xalqaro-huquqiy hamkorligining ustuvor yo'nalishlarini tahlil qilish;

FAO va O'zbekiston Respublikasining Qishloq xo'jaligi sohasidagi xalqaro-huquqiy rivojlantirish dasturining strategik asoslarini namoyish etish;

FAOning ratifikatsiya qilingan konvensiyalarida belgilangan majburiyatlardan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

Amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, amaliy va ilmiy-nazariy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ob'yekti. O'zbekiston Respublikasi va Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) bilan xalqaro hamkorligi natijasida yuzaga keladigan xalqaro-huquqiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot predmeti. Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti FAO va O'zbekiston Respublikasi hamkorligiga oid xalqaro standartlar, xorijiy mamlakatlar huquqni qo'llash amaliyoti, FAOning norma ijodkorlik faoliyati va xalqaro hamkorlikning asosiy shakllari va yo'nalishlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya mavzusiga oid masalalarini tadqiq etishda dunyoda yuz berayotkan voqeja va hodisalarini o'rghanish, olib borilgan ilmiy tadqiqot ishi yuzasidan tahlil etish, ularni umumlashtirish, qiyosiy-huquqiy, tarixiy va tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

organik qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini inspeksiya nazoratidan o'tkazish organik muvofiqlik sertifikati ariza beruvchiga taqdim etilgunga qadar hamda sertifikat berilgandan keyin rejali va rejadan tashqari tartibda amalga oshirilishi asoslantirilgan;

xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasi asosida respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarning bir qismini qoplab berish bo'yicha yangi tashkil etilayotgan istiqbolli loyihamar uchun subsidiya huquqidan foydalanish tratibi asoslantirilgan;

xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasi asosida organik mahsulotlarni ishlab chiqarishga nisbatan talablardan biri sifatida inson sog'lig'iga, o'simliklarga va hayvonlarga zarar yetkazmaydigan, atrof-muhit ifloslanishini oldini oladigan yoki uning oqibatlarini bartaraf etadigan texnologiyalardan foydalanish shartligi asoslab berilgan;

organik mahsulotlarni ishlab chiqaruvlari tomonidan organik mahsulotlarni tamg'alashda "organic" (organik), "biologic" (biologik), "ekologic" (ekologik), "natural" (tabiiy) degan so'zlardan va ularning qisqartmalaridan yoki ushbu

so‘zlardan hosil qilingan so‘zlardan alohida tarzda yoxud organik mahsulotlarning nomiga qo‘sib foydalanish mumkinligi asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Xalqaro tajribadan keib chiqib oziq-ovqat havfsizligi tushunchasiga “inson huquqlarining iqtisodiyotiy va ijtimoiy holatiga nisbatan, butun hudud aholisining faol, sog‘lom hayot kechirishi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar uchun zarur bo‘lgan miqdorda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan huquqi bilan ta’minlanishining kafolatlanishi hisoblanadi” degan mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

FAO Ekspertlar qo‘mitasi tavsiyalaridan kelib chiqqan holda ko‘rsatma va ta’qiqlarni O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga to‘liq tadbiq etish, amaldagi qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

oziq-ovqatga qo‘silishi mumkin bo‘lgan kimyoviy moddalar, bo‘yoqlar, tam beruvchi vositalar va ularning miqdorini tartibga soluvchi maxsus reglament ishlab chiqish lozimligi isbotlangan. Ushbu reglamentni tayyorlashda Latviya Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 28-fevraldagagi “Oziq-ovqatga ishlatiladigan oziq-ovqat qo‘sishchalari va oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi bo‘yicha majburiy talablar to‘g‘risidagi qoidalar, shuningdek oziq-ovqat qo‘sishchalalarini markalashga qo‘yiladigan talablar tog‘risida”gi Nizomdan foydalanish lozim, degan xulosaga kelingan. Bundan tashqari, Evropa Parlamenti va Kengashining 2008-yil 16-dekabrdagi “Tam beruvchi va ba‘zi oziq-ovqat tarkibiy qismlari, oziq-ovqatda ishlatiladigan iforli mahsulotlar tog‘risida”gi Nizomi qoidalari ham e’tibor qaratish maqsadga muvofiq;

oziq-ovqat xavfsizligini muhofaza qilishni tartibga solish bilan bog‘liq ruhsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish uchun to‘lov miqdorini kamaytirish taklif qilinadi. To‘lovlarni elektron shaklda billing tizimi orqali to‘lash imkoniyatini yaratish, to‘lovlarni fuqaroning mobil aloqa qurilmasiga “maxsus kod” yuborish orqali tasdiqlash amaliyotini joriy etish talab etiladi;

FAO tavsiyalariga muvofiq, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash maqsadida tungi vaqtda faoliyat yurituvchi ko‘ngilochar va umumiy ovqatlanishga ixtisoslashgan tadbirkorlar uchun maxsus pasport tizimini joriy etish lozim. Ushbu

pasportda amalga oshiriladigan faoliyat turi, yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli, qaysi davlat organi tomonidan nazorat qilinishi kabi ma'lumotlar aks etadi.

agrotexnik tadbirlarni o‘z vaqtida moliyalashtirish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy barqarorligi, hosildorligi past yerlar unumdorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini oshirishga ko‘maklashadigan qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish hamda qishloq xo‘jaligida va qishloqni rivojlantirishdagi inklyuziv siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bo‘yicha milliy salohiyatlarini kengaytirish tartibi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalari xalqaro huquq va milliy qonun normalari, rivojlangan davlatlar tajribasi, qonunni qo‘llash amaliyoti shakllariga asoslangan, statistik ma‘lumotlarni tahlil qilish natijalari umumlashtirilib, tegishli hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan. Xulosa, taklif va tavsiyalar aprobatasiyadan o‘tkazilib, ularning natijalari yetakchi milliy va xorijiy nashrlarda e‘lon qilingan. Olingan natijalar vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati xalqaro tashkilotlar, ular bilan davlatlar hamkorligiga oid ilmiy izlanishlarni amalga oshirishda, ushbu muammoning ilmiy-nazariy asoslarini yanada rivojlantirishda, oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim muassasalari uchun maxsus adabiyotlar tayyorlashda hamda “Xalqaro tashkilotlar huquqi”, “Xalqaro shartnomalar huquqi” kabi fanlarni o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati O‘zbekiston Respublikasining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti bilan hamkorligining huquqiy hamda institutsional mexanizmlarini takomillashtirishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. organik qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini inspeksiya nazoratidan o‘tkazish

organik muvofiqlik sertifikati ariza beruvchiga taqdim etilgunga qadar hamda sertifikat berilgandan keyin rejali va rejadan tashqari tartibda amalga oshirilishi lozimligi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 23-fevraldaggi 90-son qarori bilan tasdiqlangan “Organik qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ixtiyoriy sertifikatlashtirishdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 20-bandini shakillantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini Yuridik ta‘minlash boshqarmasining 2021-yil 17-maydaggi 12/21-tonli dalolatnomasi). Mazkur taklif O‘zbekistonda organik qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini inspeksiya nazoratidan o‘tkazish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

xalqaro standartlar va xorijiy davlatlar tajribasi asosida respublikada oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarning bir qismini qoplab berish bo‘yicha yangi tashkil etilayotgan istiqbolli loyihalar uchun subsidiya berish haqidagi taklifidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-yanvardagi 37-son qarori bilan tasdiqlangan “Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish yo‘nalishidagi loyihalarni tashkil etish bilan bog‘liq xarajatlarning bir qismini qoplab berish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomning 5-bandini shakillantirishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Yuridik ta‘minlash boshqarmasining 2021-yil 17-maydaggi 12/21-tonli dalolatnomasi). Mazkur berilgan taklif oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligini ta‘minlash, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni qo‘llab-quvvatlash, xalqaro standartlarga loyihalar uchun subsidiya ajratish mexanizmlarini joriy qilishga xizmat qilgan;

organik mahsulotlarni ishlab chiqarishga nisbatan talablardan biri sifatida inson sog‘lig‘iga, o‘simgiliklarga va hayvonlarga zarar yetkazmaydigan, atrof-muhit ifloslanishining oldini oladigan yoki uning oqibatlarini bartaraf etadigan texnologiyalardan foydalanish shartligi bilan bog‘liq taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 25-apreldagi “Organik mahsulotlar to‘g‘risida”gi Qonuni 17-moddasi birinchi qismining sakkizinchisi xatboshisini shakllantirishda

foydalanylган (О‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiysga qarshi kurashish qoo‘mitasining 2022-yil 16-maydagi 06-13/5-sonli dalolatnomasi). Mazkur takliflarning joriy etilishi organik mahsulotlarni ishlab chiqarishga nisbatan talablarni shakllantirishga xizmat qilgan;

organik mahsulotlarni ishlab chiqaruvarlar tomonidan organik mahsulotlarni tamg‘alashda “organic” (organik), “biologic” (biologik), “ekologic” (ekologik), “natural” (tabiiy) degan so‘zlardan va ularning qisqartmalaridan yoki ushbu so‘zlardan hosil qilingan so‘zlardan alohida tarzda yoxud organik mahsulotlarning nomiga qo‘sib foydalanish mumkinligi to‘g‘risidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2022-yil 25-apreldagi “Organik mahsulotlar to‘g‘risida”gi Qonuni 23-moddasi uchinchi qismining birinchi xatboshisini shakllantirishda foydalanylган (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiysga qarshi kurashish qoo‘mitasining 2022-yil 16-maydagi 06-13/5-sonli dalolatnomasi). Mazkur takliflarning joriy etilishi organik mahsulotlarni ishlab chiqaruvarlar tomonidan organik mahsulotlarni tamg‘alashda rioya etiladigan qoidalarning aniq belgilanishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjumanda, shu jumladan 2 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, xorijiy jurnallarda 5 ta maqola chop etilgan.

Dissertatsyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanylган adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsyaning hajmi 148 betni tashkil etadi.

I .BOB. BMT OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO‘JALIGI TASHKILOTI

(FAO)NING NAZARIY VA HUQUQIY MASALALARI.

1.1-§. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning tashkil etilishi va rivojlanishi.

BMTinig ixtisoslashgan tashkiloti FAOning yaratilish tarixida BMTning alohida o‘rni bor. Birlashgan Millatlar Tashkiloti haqida gap ketganda ko‘pchilik uni tinchlik va xavfsizlikni ta’minlovchi tashkilot sifatida tasavvur qiladi. Holbuki, BMT nafaqat terrorizm, jinoyatchilik va umumbashariy muammolarga qarshi kurashuvchi tashkilot, shu bilan birga xalqaro miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi tashkilot hamdir.

Agarda jahon mamlakatlarining tarixiy va bugungi rivojlanish tendensiyasiga nazar tashlasak, biror-bir davlat, jamiyat, millat yo‘qki, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga duch kelmagan. Boshqacha aytganda, aholi turmush darajasi va farovonligini oshirish, savodsizlik va ishsizlikni qisqartirish yo‘lida keskin chora-tadbirlar ko‘rish umumbashariy muammoga aylanib bormoqda

Mana shuning o‘ziyoq BMTning butun yer sharida xoh u g‘arb bo‘lsin, xoh u sharq bo‘lsin, barcha sohada o‘rni va roli yuqori ekanligidan dalolat beradi.

BMT xalqaro hamjamiyat hayotida demokratik prinsiplarni qaror toptirish, mustahkam tinchlik, barqarorlik hamda xavfsizlikka faqatgina jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy farovonligi bilangina erishish mumkin degan tamoyil asosida faoliyat yuritib kelmoqda.

Demak, bundan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, mavjud iqtisodiy-ijtimoiy sohadagi muammolarga chuqur e’tibor qaratib, hamkorlikda hal etish kerak bo‘lgan tinchlikni ta’minlashning, unga rahna soluvchi illatlarga qarshi kurashning muhim garovidir. Shu bois ham BMT so‘nggi ellik yil ichida dunyoda amalga oshirilgan ko‘plab tub iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar muallifi bo‘ldi.

Xalqaro miqyosda, ko‘pchilik huquqshunos olimlar Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti FAOning tashkil etishlishiga olib kelgan nazariy va amaliy fikrlarga o‘z hissasini qo‘sghan, olimlarning qarashlari xatti-harakatlari,

g‘oyaning rivojlanishi va yakuniy natijalar uchun juda muhim edi, chunki ularning keltirgan fikrlari o‘z vaqtida, ushbu tashkilotning kelib chiqish tarixiga ta’sir ko‘rsatishi barchamizga ma’lum bo‘lgan jaryondir. Sababi, o‘sha davrda isteqomat qilgan namoyondalarning keltirgan aniq faktlari ushbu takilotning paydo bo‘lish davridan to bugungi kungacha yetib kelganligi alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun ularning hissasi haqida qisqacha ma’lumot berishimiz, bu tashkilotning qanday paydo bo‘lganligini va natijada hozirgi xalqaro hukumatlararo tashkilot shaklida qanday shakllanayotganini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti FAOning kelib chiqish tarixi 1880 yilda qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanishni qaror qilgan Kaliforniyalik ishbilarmon Devid Lyubin, nomi bilan chambarchas bog‘liq. XIX asr ohiri va XX asr boshlarida jahon iqtisodiyotida D.Lyubin¹ tushunib yetdiki xalqaro savdoda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari muhim o‘rin egallashini va faqatgina xalqaro tashkilot orqali fermerlarning manfaatlarini muvaffaqiyatli himoya qilishi mumkinligini tushunib yetgan edi.

I.V.Antonovaning ilmiy tadqiqot ishlarida asosiy e’tiborni, fyermelarning ahvolini yaxshilash uchun xalqaro miqyosda ba’zi mexanizmlarni ishlab chiqish kerakligini ko‘rsatdi, va uning tadqiqot ishida aynan u nazarda tutgan yo‘nalishdagi tashkilot va nihoyat 1905 yilda Xalqaro qishloq xo‘jalik instituti (XQXI) tashkil etildi. Ushbu tashkilot qishloq xo‘jaligi muammolari bilan shug‘ullanuvchi *birinchi xalqaro hukumatlararo tashkilot* bo‘lib o‘z faoliyatini yurgizgan. Ushbu tashkilot Ikkinci Jahon Urushiga qadar jiddiy uzilishlarsiz faoliyat ko‘rsatdi, keyin uning aktivlari BMTning alohida tashkil etilgan ixtisoslashgan tashkiloti FAOga o‘tib ketdi.² Amerikalik huquqshunos olim Yeva.Garrov va Jay.Dayning qarashlarida esa oziq-ovqatga bo‘lgan huquq butun dunyo uchun xavf soladigan tabiy oqibatlardan biri ekanligini, yer yuzidagi zaif qatlamdagi to‘yib ovqatlanish huquqidan mahrum bo‘lgan insonlar huquqini himoya qilishga qaratilish, hamda oziq-ovqatga bo‘lgan

¹ Айзенберг.А. Накормить мир: Биография Дэвида Любина. Рим. 29 октября 1965 г.
<https://www.kirkusreviews.com/book-reviews/a/azriel-eisenberg-2/feeding-the-world-a-biography-of-david-lubin/>.

² Антонова.И.В. Современные международно –правовые проблемы деятельности ФАО.

Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук.М: 2009. -С.19.

huquqni xalqaro doirada bartaraf etishda olim, ko‘proq iqtisodiy rivojlangan davlatlar bilan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish kerakligini takidlayi.¹

Yana boshqa bir xalqaro huquqshunos olim Aysi Didim va Ashlig Bestlarning ilmiy qarashlarida, xalqaro huquqda aynana oziq-ovqatga bo‘lgan huquq bu inson huquqlarining alohida ijtimoiy va iqtisodiy sohasi bo‘lib, unga ko‘ra, xalqaro huquq, xususan, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi uchun o‘simpliklar genetik resurslari to‘g‘risidagi xalqaro shartnomaga turlarning, shu jumladan odamlarning, intensiv qishloq xo‘jaligi uchun foydalaniladigan yerlarning omon qolishi uchun mas’ul bo‘lgan ekologik jarayonlarning yaxlit tabiatini e’tiborsiz qoldirmaslik. Ya’niy ishlab chiqarish usullarining ekologik jarayonlarga ta’siri to‘liq e’tirof etilgandagina oziq-ovqat xavfsizligiga hissa qo‘shishi mumkinligi ta’kidlaydi.²

FAOning rivojlanish tarixida quydagি namoyondalarga alohida to‘htalib o‘tgan. D.Lyubin faoliyatini Avstraliyalik Frank L. Mak Dougall 1935 yil Qishloq xo‘jaligi institutini yaratilishiga alohida etibor qaratgan. 1905 yil 7-iyunda Italiya hukumati ilk bor xalqaro harakterdagi Xalqaro qishloq fermer xo‘jaligi institutini birinchi konferensiyani chaqirdi. 1934 yilda ishtirok etadigan mamlakatlar soni tezda birinchi yig‘ilishdagi 46 a’zo mamlakatlar sonidan 74 ga ko‘tarildi.

Buning natijasida FAO tashkilotinig ilk o‘sishi uchun asos bo‘ldi. Ammo, birinchi jahon urushidan so‘ng, hamkorlik qilishni istamagan davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar keskin edi. Va bir necha yil o‘tib Ikkinchi Jahon urushi boshlanishi vaziyatni yaxshilamadi. Frank Makdugal keyinchalik Lubinning ishini davom ettirdi. Iqtisodchi va oziq-ovqat muammosi bo‘yicha mutaxassisni Makdugal qishloq xo‘jaligida to‘yib ovqatlanmaslik bilan kurashish va adolatli iqtisodiy modelni yaratishi muhimligini isbotladi.

Xalqaro munosabatlar tarixida agrar xarakterdagi muammolarni hal qilishning xalqaro mexanizmini yaratish g‘oyasi yangi emas edi, chunki u turli sabablarga ko‘ra

¹ Eve E. Garrow & Jack Day, Strengthening the Human Right to Food, 7 UC Irvine L. Rev. 275 (2017). Date Downloaded: Tue May 2 04:24:28 2023 Source: Content Downloaded from HeinOnline.

²Ayse Didem Sezgin & Ashleigh Best, Re-imagining International Law’s Environment: An Ecological Critique of International Food Law and International Disaster Law, 23 MELB. J. INT’L L. 23 (2022).PhD Candidate, Melbourne Law School. Bluebook 21st ed.

ilgari paydo bo‘lgan, lekin faqat XX asrning boshlarida bu borada aniq qadamlar qo‘yilgan edi. 1905 yilda Italiyada (Rim) Xalqaro qishloq xo‘jaligi instituti tuzildi, u 1930 yilda Butunjahon qishloq xo‘jaligi ro‘yxatini o‘tkazdi, bu o‘sha davr uchun juda muhim edi, uning asosida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat bo‘yicha foydali statistika olingan. 1935 yildan boshlab, ushbu institut Millatlar Ligasi va Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) bilan hamkorlikda, global miqyosda aniq oziq-ovqat muammolari bilan shug‘ullana boshladi.

Yangi xalqaro tashkilotning maqsad va vazifalari borasida jiddiy qaramaqarshiliklarga qaramay, barcha davlatlar vakillari bunday tashkilotni yaratish zarurligi to‘g‘risida bir ovozdan fikr bildirishdi. Anjumanda davlatlar uchun milliy qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga to‘silqlarini kamaytirish bo‘yicha bir qator muhim tavsiyalar qabul qilindi. Konferensiyada, shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) taklif etiladigan yangi xalqaro tashkilotning kelishilgan nomi tasdiqlandi.

Hot Springs konferensiyasida FAOning ta’sis hujjatini ishlab chiqish uchun Vaqtinchalik komissiya tuzildi, u Vashingtonda bo‘lib o‘tdi va Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat bo‘yicha hisobot tayyorlaydigan Qo‘mitani (Frank L. Makdugal, Avstraliya raisi) tuzdi. 1945 yil iyun oyida *FAO¹ta’sis hujjati - Xartiya loyihasi tayyorlandi*, unda quyidagi ikkita asosiy yondashuv birlashtirilgandi. **Birinchidan**, Tashkilot ochlikni yo‘q qilish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ko‘maklashishi kerakligi masalasi; **ikkinchidan**, Tashkilot qishloq xo‘jaligi sohasidagi statistik ma’lumotlarni qayta ishlash va a’zo davlatlarga bu sohada tegishli tavsiyalar berish kabi vazifasi qo‘yilgan edi.

1943 yil 18 maydan 3 iyunga qadar o‘tkazilgan konferensiya vaqtinchalik komissiya tuzdi va u FAO Konferensiyasining Kvebekdag‘i birinchi sessiyasida 1945 yil 16 oktyabrda FAO tashkil qilinishiga asos bo‘ldi.²

¹ Ushbu atama ingliz tilidan: “The Food and Agriculture Organization of the United Nations” (FAO). <https://www.fao.org/home/en/>.

² United Nations Interim Commission on Food and Agriculture. The work of FAO. Washington. 1945 y. <http://www.fao.org/3/p4228e/p4228e04.htm>

FAO Ustavining loyihasi va vaqtinchalik komissiyaning yuqorida qayd etilgan hisoboti 1945 yil 16 oktyabrdan 19 noyabrgacha Kvebekda (Kanadada) o‘tkazilgan FAO konferensiyasining birinchi sessiyasida asosiy mavzu FAO Ustavi qabul qilinganligi bo‘ldi.

FAOning tashkil etilishi va rivojlanshi tarixini o‘rganib chiqib, uni quydag‘i bosqichlarga bo‘lib tahlil qilib chiqishni lozim topdik:

Birinchi tarixiy bosqich o‘z ichiga 1945-yildan 1962 yillargacha bo‘lgan davrni qamrab olgan. BMTning ixtisoslashgan xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) tashkil etildi. 1935 yillarda ilk rivojlanish bosqichida FAO yakka alohida tashkilot sifatida emas, balki u Xalqaro mehnat tashkiloti qoshida butundunyoga oziq ovqat yetkazib berish masalalarini monitoring qilish bilan faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, 1943 yilda Ikkinchiji jahon urushi dalatlararo davrida aziyat chekgan aholiga yordam berish maqsadida ilk bor AQSHning Virjiniya shtatida 44 davlatlar ishtirokidagi oziq-ovqat yetkazib berish va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va ochlikni oldini olishga bag‘ishlangan davlatlararo xalqaro konfrensiya (Hot Spring) bo‘lib o‘tdi. Ushbu xalqaro konfrensiyaning boshlanganligi barcha ishtirokchi davlatlarda oziq ovqat xavfsizligi va to‘yib ovqatlanishga bo‘lgan huquqni yanada shakillanishiga turtki bo‘ldi.

Shuningdek, ushbu davr ikkinchi jahon urushi davri bilan bog‘liq bo‘lib, o‘sha yillarda bank va moliya sohasida (Bretton-Vuds muzokaralari, XTTB (Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki) va XVFning 1944 yilda yaratilishiga olib keldi) (1947 yilda GATT tashkil etishda yakun topgan) savdo sohasida. 1943 yil 18 maydan 3 iyungacha Hot Springs shahrida (Hot Springs, Virjiniya, AQSH) Xalqaro hukumatlararo konfrensiya bo‘lib o‘tdi.¹ Kun tartibidagi asosiy masala - xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining kelajakdagi harakati haqidagi masala bo‘ldi.

¹ Международные валютно-кредитные и финансовые отношения. Учебник для академического бакалавриата. М: Ирайт. 2019. С. 69.

Ushbu konferensiyada turli davlatlar vakillari tomonidan kelajakdag'i xalqaro tashkilotning roli turli xil tarzda tushunilgan: ba'zilari qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat bilan bog'liq barcha masalalar bilan shug'ullanadigan xalqaro hukumatlararo tashkilot tuzishni talab qilgan, boshqalari (ayniqsa, Ikkinci jahon urushining oqibatlaridan ancha ta'sirlangan davlatlarning vakillari) tavsiya etilgan strukturada faqat ochlik va qashshoqlikka qarshi kurash masalalari bilan shug'ullanadigan xalqaro hukumatlararo tashkilotni ko'rdi. Konferensiyada bir qator davlatlar (jumladan, AQSH) yangi xalqaro hukumatlararo tashkilot nazorati ostida maxsus oziq-ovqat zahiralarini yaratish g'oyasiga qarshi chiqdilar.

FAOning bosh ofisi dastlab Vashingtonda joylashgan, ammo 1951 yilda. uni Rimga ko'chirishga qaror qilindi. 1946 yilda BMT va FAO o'rtasida (EKOSOS yordamida) shartnama imzolangan, buning asosida FAO BMT tizimining ixtisoslashtirilgan muassasasiga aylandi. Xuddi shu yili ilgari aytib o'tilgan Xalqaro qishloq xo'jaligi institutining FAO Evropa filialiga aylantirilgan barcha funksiyalari FAOga topshirildi.

Hukumatlar ushbu asrda xalqaro muammolar, jumladan, qishloq xo'jaligi masalalari bilan shug'ullanish uchun ko'plab tashkilotlar tuzdilar. Ba'zi Millatlar Ittifoqi va Xalqaro qishloq xo'jaligi instituti singari, sahnadan o'tib ketgan va boshqalar o'rnini egallagan. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar, aslida XX asrning noyob mahsulotlaridan biri, hatto ularning paydo bo'lishi xalqaro munosabatlarning mexanizmlari sifatida, insonning o'zi kabi qadimiy bo'lган trendning zamonaviy ifodasıdir. Qishloq xo'jaligi sohasi olimlari bir asrdan ko'proq vaqt oldin xalqaro axborot almashuvini tashkil qilishni boshladilar. Misol uchun, 1863 yilda Germaniyaning Gamburg shahrida davom etayotgan Xalqaro Veterinariya Kongresslarining birinchisi bo'lib o'tdi. Shu bilan birga, shakar ishlab chiqaruvchilarning muammolari 1864 yilda imzolangan bo'lib, u birinchi hukumatlararo tovar bitimi bo'lib tarixga muxrlandi.

Ikkinci tarixiy bosqich - 1962-1996 yillarni o'z ichiga olib, ushbu davr Jahon oziq-ovqat muammosi konferensiyasi natijalariga asoslanib, **xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi faoliyati tizimi** shakillandi.

1962 yilda FAO va Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti 167 a’zo davlatdan iborat bo‘lgan Kodeks Alimentarius¹ Komissiyasiga asos soldi. Va bu xalqaro arenada ilk bor oziq-ovat xavfsizligiga qaratilgan katta tarixiy voqeaga sabab bo‘ldi. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan kasallangan kasalliklarni ilmiy tahlildan foydalanib, ushbu komissiya o‘z navbatida milliy standartlarni belgilash, iste’molchilar uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, fermer va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarga yordam berish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan keng qamrovli standartlar, jahon bozorida ko‘paya boshladи.

Kodeks Alimentarius Komissiyasi o‘zining ixtisoslashtirilgan tuzilmalari orqali ishlaydigan 1000 dan ortiq oziq-ovqat qo‘sishimchalari monitoringini o‘tgazib, unda pestisidlar va veterinariya tibbiyotiga 2500 dan ortiq cheklovlarini o‘rnatdi. U organik oziq-ovqat ta’rifi bo‘yicha shartnoma tuzdi va oziq-ovqat markalari uchun qo‘llanma ishlab chiqdi. Bu komissiya hayvonlarni oziqlantirish bo‘yicha tavsiyalarni doimiy ravishda yaxshilaydi.

Kodeks Alimentarius Komissiyasi doirasida maxsus hukumatlararo operativ guruh biotexnologiyadan olingan oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, genetik modifikatsiyalangan oziq-ovqat mahsulotlari uchun tamoyillar va ko‘rsatmalar ishlab chiqadi.

1963 yil 4-18 iyun kunlari Vashingtondagи Xalqaro oziq-ovqat sanoati Kongressi jahon hamjamiyati e’tiborini oziq-ovqat xavfsizligining dolzarb muammolariga qaratgan muhim forumi ushbu holatning doimiy ravishda global ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Oziq-ovqat inqirozlari bo‘yicha global hisobotning so‘nggi nashriga ko‘ra, 2023 yilda 59 mamlakat va hududlarda 282 millionga yaqin odam o‘tkir ochlik darajasiga duch keldi - bu o‘tgan yilga nisbatan 24 millionga ko‘payganligini anglatadi. Bugungi kunda o‘sish hisoboti tahlil qilingan oziq-ovqat inqirozlarining kengayishi, shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligi, ayniqsa G‘azo sektori va Sudandagi, Ukraina va Isroil davlatlari misolida ko‘rsak, vaziyatning keskin yomonlashishi

¹ Codeks Alimentarius bu- Oziq-ovqat Kodeksi Kodeks Alimentarius Komissiyasi tominda tasdiqlangan oziq-ovqat standartlari to’plami. <https://www.fao.org/fao-who-codexalimentarius/home/ru/>

sababli oziq-ovyatga bo‘lgan huquqlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri buzilayotganini ko‘rishimiz mumkin.¹

FAO 1993 yilda Dunyoda 2010 yilgacha qishloq xo‘jaligining rivojlanishi dasturini ishlab chiqdi. FAO va tashqi ekspertlar tomonidan ishlab chiqilgan FAONing Global Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish 2010 yilgi hisoboti bu o‘simplik va chorvachilik mahsulotlarining agrotexnika va tabiiy resurslarini o‘rganish iborat bo‘lgan.²

1995 yillarda ushbu tashkilotning faoliyat yo‘nalishiga baliq ovlash qoidalari bo‘yicha kodeks qabul qilinganligi yana bir tarixiy voqeadir. Ushbu Kodeks dengiz hayoti resurslaridan barqaror foydalanishni ta’minlash uchun ishlab chiqilgan va 170 dan ortiq davlatlar tomonidan qabul qilingan; Kodeksda baliq ovlash resurslaridan oqilona foydalanish va akvakulturani rivojlantirish tamoyillari mustahkamlangan.

Shuningdek, 1985-1995 yillarda FAO beshinchı o‘n yilligni amalga oshirdi. Ushbu davrda 1985 yilda Juhon oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha shartnomasi imzolashdi. FAO konferensiyasida oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha keng qamrovli global tizimning rejasini taqdim etadigan Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risidagi bitim qabul qildi. 1992 yilda Juhon deklaratsiyasi qabul qilindi va ovqatlanish bo‘yicha harakatlar rejası tuzildi. Deklaratsiya va Harakatlar rejası Oziqlantirish bo‘yicha xalqaro konferensiada qabul qilingan bo‘lib, unda hukumatlar kelgusi ming yilgacha to‘yib ovqatlanmaslik bilan bog‘liq bir qator muammolarni yo‘q qilish yoki sezilarli darajada kamaytirish majburiyatini oldilar.³

Uchinchi tarixiy bosqich - 1996 yildan 2007 yillarni qamrab olgan bo‘lib, aniq maqsadni amalga oshirishda xalqaro hamkorlik xalqaro yordam orqali ochlar sonini kamaytirish vositasi sifatida insonning oziq-ovqatga bo‘lgan huquqini

¹ Global report on Food Crises: Acute hunger remains persistently high in 59 countries with 1 in 5 people assessed in need of critical urgent action.

² World Agriculture:Towards 2010, Published in 1995 by the Food and Agriculture Organization of the United Nations. https://www.fao.org/resources/Agriculture/World_Agriculture_Towards_2010.pdf.

³ World declaration and plan action for nutrition submitted to the conference Rome, December 1992. P.3. <http://apps.who.int/iris/bitstream/handle/10665/61051/a34303.pdf;jsessionid=89A327085890EC71AFABA7589FF1A4E0?sequence>.

ta'minlash uchun huquqiy daraja "hamma uchun" oziq-ovqat xavfsizligiga erishishni mustahkamlanishiga qaratilgan harakatlarni o'z ichiga oldi.

1996 yilda Butunjahon oziq-ovqat sammiti bo'lib o'tdi. Butunjahon oziq-ovqat sammiti 10 ming kishi ishtirok etgan tarixiy voqeа bo'lib, yangi ming yillikdagi dunyo rahbarlari oldida ochlikni to'xtatish masalasini muhokama qilish uchun forum tashkil etdi. Ushbu forrum butun dunyoda ochlikni oldini olish va barcha insonlarining oziq-ovqatga bo'lgan huquqi va to'yib ovqatlanishga qaratilgan edi. So'zimizning isboti sifatida 1945 yilgi Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasining 25-moddasida "Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki unga borliq bo'lman sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega"¹ ekanligi va 1966 yilgi "Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risida"gi Paktning 11- moddasi b) bandida "Ehtiyojga muvofiq va oziq-ovqat mahsulotlarini import yoki eksport qiluvchi mamlakatlarning muammolarini hisobga olgan holda jahondagi oziq-ovqat zahiralarining adolatli taqsimlanishini ta'minlash"² deb nomlangan bo'lib fikrimizcha yuqoridagi keltirib o'tilgan halqaro hujjatlar har bir insonning oziq-ovqatga bo'lgan huquqini belgilab berayotganini ko'rishimiz mumkin.

1996 yilda Jahan oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida Rim deklaratsiyasi qabul qilindi. Deklaratsiya 112 davlat rahbarlari yoki davlat rahbarlari o'rinosbosarlari va boshqa mamlakatlardan 70 dan ortiq yuqori darajadagi vakillar tomonidan Butunjahon oziq-ovqat sammiti davomida qabul qilinadi. Deklaratsiya xavfsiz va to'yimli oziq-ovqatga bo'lgan umumbashariy huquqni tasdiqladi. 1996 yil Rimda

¹ Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг Резолюция 217 А (III) билан 1948 йил 10 декабрда қабул ва эълон қилинган. Инсон хукуклари умумжаҳон декларацияси.
[https://nrm.uz/content?doc=181331_inson_huquqlari_umumjahon_deklaraciysi_\(bosh_assambleyaning_10_12_1948_y_217a_\(iii\)son_rezolyuciysi_bilan_qabul_qilingan_va_elon_qilingan\)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana](https://nrm.uz/content?doc=181331_inson_huquqlari_umumjahon_deklaraciysi_(bosh_assambleyaning_10_12_1948_y_217a_(iii)son_rezolyuciysi_bilan_qabul_qilingan_va_elon_qilingan)&products=1_vse_zakonodatelstvo_uzbekistana).

² Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах. Принят резолюцией 2200 А (XXI) Генеральной Ассамблеи от 16 декабря 1966 года.
https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pactecon.shtml.

oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi BMT tashkiloti sessiyasida o‘ziga xos xususiyatlarga ega qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish aniqlashtirib olindi. Ularning o‘rasida: aholining barcha ijtimoiy guruhlari va jamiyat qatlamlarining oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo‘lishi; tovar ishlab chiqarishni rivojlantirish; ishsizlikni kamaytirish va qashshoqlikka qarshi kurashish uchun daromad darajasini oshirish; tabiiy resurslarni boshqarish va atrof-muhit muhofaza qilish va boshqalar.¹

To‘rtinchi tarixiy bosqich va hozirgi davr -2002 yildan to hozirgi kungacha-global salbiy oqibatlarni bartaraf etish zarurati bo‘yicha oziq-ovqat inqirozi va Jahan oziq-ovqat qo‘mitaning islohotiga asoslangan oziq-ovqat xavfsizligi boshqaruvini takominlashtirish.

2002 yilda Butunjahon oziq-ovqat sammiti bo‘lib o’tdi. 179 davlat va Yevropa Komissiyasi vakillari ishtirok yetadigan Butunjahon oziq-ovqat sammiti xalqaro hamjamiyatning 2015 yilgacha to‘yib ovqatlanmaslikdan aziyat chekayotganlar sonini ikki baravarga kamaytirish majburiyatini tasdiqladi. Ushbu sammitning natijasida Ovqatlanish huquqi bo‘yicha tamoyillar belgilab olindi. Rahbariy tamoyillar FAO Kengashi tomonidan ikki yillik hukumatlararo muzokaralar yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan Butunjahon oziq-ovqat sammitida qabul qilindi.

2008 yilda FAO iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Konferensiyasida iqlim o‘zgarishi va bioyoqilg‘i, oziq-ovqat xavfsizligi va oziq-ovqat mahsulotlari narxlariga ta’sirini baholaydigan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligiga yordam va sarmoyalarni kengaytirishga qaratilgan qarorda 43 ta davlat rahbarlari va 100 ta vazirlar ishtirok etdi.²

2016 yilda FAO tashabbusi bilan Port davlat chora-tadbirlari to‘g‘risidagi bitim imzolandi. Port-davlat chora-tadbirlari to‘g‘risidagi bitim, noqonuniy, hisobot berilmagan va tartibga solinmagan baliq ovlashga qaratilgan birinchi qonuniy majburiy xalqaro shartnomadir.

¹Римская декларация о всемирной продовольственной безопасности, 1996 г.
https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/summit2009_declaration.shtml

² Responsible first trade and food security. World food Summit. Rome. 2008 y 13-17 november.
<https://www.fao.org/3/w3613e/w3613e00.htm>.

Uning maqsadi baliq ovlash, kemalarni portlardan foydalanish va ularni ushslash joylariga tushirish orqali baliq ovining oldini olish kabi maqsadlarni o‘z ichiga olgan xalqaro shartnoma. Ushbu shartnoma 2016 yil iyun oyida kuchga kirdi. Ushbu kelishuvning birinchi yarim yilligi davomida dunyo davlatlarining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i unga qo‘sildi. Ushbu shartnoma, kemalarga tomonlarning portlariga kirishni qidirishda yoki ular portda bo‘lganida amal qiladi. Ba’zi baliq ovlari va konteyner kemalari ozod qilinadi. Shartnoma rivojlanayotgan mamlakatlarning shartnomani amalga oshirish borasidagi sa’y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlash talablariga alohida e’tibor beradi.¹

FAO tashkil etilganidan buyon unga ishonib topshirilgan birinchi vazifalardan biri bu global ovqatlanish holatini yaxshiroq aniqlash uchun umumiy nuqtai nazariyani tayyorlash edi. Tashkilotning birinchi Jahon oziq-ovqat tadqiqotlari oziq-ovqat holati to‘g‘risida to‘liq ma’lumot beradiki; maxsus ilmiy dalillar uzoq vaqtdan beri ochlik va to‘yib ovqatlanmaslik keng tarqalgan degan fikrni tasdiqlaydi. Amaldagi standartlar nuqtai nazaridan biroz noto‘g‘ri bo‘lsada, ushbu tadqiqot 70 mamlakatni qamrab oldi va dunyodagi oziq-ovqat holatini tahlil qilishga birinchi urinish bo‘ldi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti FAO o‘z rivojlanish davrida ko‘pdan ko‘p tarixiy voqealarni guvohi bo‘ldi va ushbu davrda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligini xavfsizligini ta’minalshlash bo‘yicha bir necha muhim strategik dasturlar va vazifalarni ilgari surdi. Bulardan hozirgi paytda, FAO dunyodagi eng yirik va keng qamrovli oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi statistikasi ma’lumotlar bazasining yangilangan versiyasini chiqardi. FAOSTAT² ma’lumotlar bazasining yangi versiyasi bo‘lib, ma’lumotlarning har xil turlari va toifalari bilan hamkorlik qilish imkonini beradi, foydalanish uchun qulay interfeysga ega va dinamik grafiklar va kerakli ma’lumotlarni taqdim etishning boshqa shakllarini yaratishga doir tashkilotning ma’lumotlar bazasi hisoblanadi.

¹ The Agreement on Port State Measures to Prevent, Deter and Eliminate Illegal, Unreported and Unregulated Fishing, 31/12/2016 FAO. <https://www.fao.org/port-state-measures/resources/detail/en/c/1111616/>

² Food and agriculture statistics. <https://www.fao.org/faostat/en/home>.

Ma'lumotlar bazasi (FAOSTAT)dan BMTning oltita rasmiy tilida ishlash mumkin. Bugungi kunda, CountrySTATning milliy versiyasi 20 ta davlatda, Region Statning mintaqaviy versiyasi esa 3 ta mintaqada tasdiqlangan.¹

1.2-§. FAOning BMT tizimidagi ixtisoslashgan muassasa sifatida tutgan o'rni va uning faoliyat yo'nalishlari.

XXI asrga kelib, butun dunyoda yuzlab xalqaro tashkilotlar mavjud bo'lib, ular jahondagi xalqaro xuquqiy tartibotni saqlash va davlatlararo o'zaro mafaatli hamkorlikni rivojlantirishda asosiy muvofiqlashtiruvchi kuch sifatida maydonga chiqishmoqda. Davlatlar tashqi siyosatida bunday xalqaro tashkilotlar bilan xamkorlik olib borishni ustivor vazifa sifatida ko'rishmoqda.

FAOning xalqaro huquq tashkilotining to'laqonli sub'yekti ekanligini asoslashimizda uning xalqaro tashkilotga xos bo'lgan tomonlariga to'xtalib o'tamiz. Rassiyalik huquqshunos olim Kuteynikov Aleksandr Yevgenyevichning fikriga ko'ra, "Xalqaro tashkilotlar tushunchasi" ilmiy va kundalik atamashunoslikda mustaxkam o'rnishgan bo'lsada, ammo har safar uning qo'llanishi, unda turlicha mazmun bo'lgani uchun ham tushunchaga alohida izoh berilishini talab etadi. Xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xalqaro noxukumat tashkilotlar orasidagi asosiy farq shundan iboratki, birinchidan davlatlarning birlashmasini aks ettirsa, ikkinchisi esa, jismoniy va yuridik shaxslar, assosiatsiyalar, jamoat tashkilotlarining birlashmasini aks ettiradi.²

Davlatlararo aloqalarda, ko'p tomonlama hamkorlikning shakli bo'lgan – tashkilotlar tuzish va ular vositasida hamkorlik aloqalarini olib borish XX asrda, alohida hamkorlik yo'nalishi sifatida jadal rivojiana boshlagan bo'lsada, xalqaro tashkilotlarining dastlabki ko'rinishlari qadimgi davrlardan boshlangan. Odatda, xalqaro huquqqa, shuningdek, xalqaro tashkilotlarga oid ilmiy ishlarda xalqaro

¹ United Nation Organization. Distr: General 20 December 2006 Russian Original: English <file:///E:/2007-6-agriculturalstats-R.pdf>. <https://www.fao.org/statistics>.

² Кутейников А.Е. Международные межправительственные организации: Социологический подход/ Журнал социологии и социальной антропологии, 1999 год, том II, выпуск 4. <http://www.soc/pu/ru/publications/1999/4/kutejn/html>

tashkilotlarni tashkilot sifatida shakillanishi, tashkil topishi va rivojlanishining davrlashtirishga oid o‘rni alohida axamiyatga ega. Va shuni alhida ta’kidlash joizki, xalqaro huquqshunoslar tomonidan davirlashtirish masalasiga har xil yondoshishlar mavjud.

Bunday qarashlar xalqaro huquq sohasining taniqli huquqshunos olimi Abashidze Aslan Xuseynvichning ilmiy qarashlarida, xalqaro tashkilotlarni bosqichlarga bo‘lib o‘rganishni maqsadga muvofiqligini keltirib o‘tgan. Bunga ko‘ra:

Birinchi bosqich – qadimgi davrlardan 1815 yilgacha (Vena kongressigacha) bo‘lgan davr;

Ikkinci bosqich 1815 yildan 1919 yilgacha;

Uchinchi bosqich 1919 yildan 1945 yilgacha;

To‘rtinchi bosqich 1945 yildan to hozirgacha bo‘lgan davr.¹

Xalqaro huquqshunos olim, Mo‘minov Abdulkay Rashidovichning qarashlarida esa, “dastlabki xalqaro iqtisodiy va bojxona birlashmalarining paydo bo‘lishi xalqaro tashkilotlarining tashkil topishidagi muhim tarixiy bosqich hisoblanadi” deb keltirgan qarashlari asosli.² XIII va XVII asrlar davomidagi Ganza savdo ittifoqi savdo gildyalarining bloki hisoblangan va Boltiq dengizida, qisman Shimoliy dengiz va Shimoliy Yevropaning katta qismida savdo monopoliyasini o‘rnatgan edi. XIX asrning boshida tashkil topgan Germaniya bojxona ittifoqi ko‘plab nemis davlatlarining ittifoqi hisoblangan bo‘lib, o‘zaro bojxona to‘siqlarini bartaraf etish maqsadida tashkil topgan, ittifoq chegarasida olingan bojlardan esa umumiy kassa tashkil etilib, unda yig‘ilgan foyda esa, a’zolar o‘rtasida proporsional ravishda taqsimlanar edi.³

Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq sub’yektlarining biri hisoblanadi. Bugungi kunda xalqaro hayotning biror sohasi yo‘qki, unda xalqaro tashkilotlarining ishtiroki

¹ Блищенко П, Абашидзе А.Х. Право международных организаций. Учебник.-М.: 10-26 с.

² Мўминов.А.Р.Халқаро ташкилотлар хукуқи шакилланишининг назарий масалалари. Монография:. Инсон хукуклари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2019, -10 б.

³ Мўминов.А.Р.Халқаро ташкилотлар хукуқи шакилланишининг назарий масалалари. Монография:. Инсон хукуклари бўйича Ўзбекистон Республикаси Миллий маркази, 2019, -10-11 б.

bo‘lmasa. Huquqshunos olim A.Saidovning ilmiy qarashlarida, xalqaro munosabatlarda xalqaro tashkilotlar davlatlar hamkorligining oqilona shakllaridan biri sifatida muhim rol o‘ynaydi. Hamda, xalqaro tashkilotlar tizimining murakkablashib borishi va vakolatlarning kengayishi jadal tus olmoqda.¹

“Xalqaro tashkilot” tushunchasi kundalik atamashunoslikda ham mustahkam o‘rnashib qolgan bo‘lsada, yuqorida aytilganidek, uning mohiyatini har safar tushuntirishlarni talb etadi. Chunki unda turlicha mazmun mavjud. Odatda xalqaro tashkilotlarnin ikkita turi ajratib ko‘rsatiladi: xalqaro hukumatlararo tashlilotilpot, xalqaro noxukumat tashkilotlar. Ular orasidagi asosiy farqi shundaki, birinchisi, davlatlarini birlashtirsa, ikkinchisi jismoniy yoki yuridik shaxslar, assosiatsiyalar, xarakatlar, jamoat tashkilotlarini birlashtiradi.²

Xalqaro huquqshunos olim A.Mo‘minovning keltirgan fikrlarida esa, xalqaro tashkilotlar-cuveren davlatlar yoki xalqaro tashkilotlarining erkin sohasida davlatlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun umumiy vakolatga ega bo‘lgan xalqaro tashkilotning rezalyusiyasi asosida tashkil etiladi, shuningdek, a’zo-davlatlarning irodasidan mustaqil holda alohida vakolatlarga ega bo‘lib, unda tegishli bosh va yordamchi organlar tizimi faoliyat ko‘rsatadi.³

“Xalqaro tashkilot” tushunchasi kundalik atamashunoslikda ham mustahkam o‘rnashib qolgan bo‘lsada, yuqorida aytilgandek, uning mohiyatini har safar tushuntirishlarni talab etishadi, chunki unda turlicha tushunchalar mavjud. Odatda xalqaro tashkilotlarning ikkita turi ajratib ko‘rsatiladi: xalqaro hukumatlararo tashkilotlar va xalqaro nohukuma tashkilotlardir. Ular orasidagi asosiy farq shundaki, birinchisi davlatlarni birlashtiradi, ikkinchisi esa jismoniy va yuridik shaxslar, assosiatsiyalar, harakatlar, jamoat tashkilotlarini birlashtiradi.⁴

¹ Сайдов.А.Х. Халқаро хуқуқ –Т.: Адолат, 2001.- 64 б.

² Кутейников.А.Е. Международные межправительственные организации.-: Социологический подход/ Журнал социологии и социальной антропологии, 1999 год, том II, выпуск 4. http://www/soc/pu.ru/publication/jssa/4_kuteyn.html

³ Мўминов.А. Ўзбекистон ва ЮНЕСКОнинг халқаро-хуқуқий муносабатлари.-Т.: Янги аср авлоди,2003.

⁴ Кутейников.А.Е. Международные межправительственные организации: теоретико-социологический анализ.-: Социологический подход/ Журнал социологии и международных организций, Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2012. 256 с. год. [Https://hugepdf.com/download/5b2446af3284_pdf](https://hugepdf.com/download/5b2446af3284_pdf).

G.Yuldasheva, N.Gafurova, Z.Borsiyevalarning takidlashicha, xalqaro tashkilotlar bu, xozirgi zamon xalqaro huquqida davlatlarining asosiy hamkorlik ishtrokkchilari sifatida etirof etadi. Bunga ko‘ra davlatlar, xalqaro tashkilotlar orqali siyosiy, iqtisodiq, ijtimoiy-madaniy va ilmiy sohalarda huquqiy hamkorlikni amalga oshirishdagi xalqaro huquqiy hamkorlik deb ilmiy nazariy qarashlarida to‘xtalib o‘tgan.¹

Odatda xalqaro tashkilotlarning nomi faqat tashkilot nomi bilan cheklanib qolmaydi, balki ular tashkilot nomi bilan bir qatorda , ittifoq, jamg‘arma, bank, agentlik, kengash, liga va boshqa nomlar bilan ham atalishi mumkin.Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Yevropa Ittifoqi (YeI), Xalqaro valyuta fondi (XVF), Jahon banki, Arab davlatlar ligasi hamda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti ham shular jumlasidandir.

FAO - BMTning ochlik bilan kurashish bo‘yicha xalqaro sa’y-harakatlarini boshqaradigan ixtisoslashgan tashkilot hisoblanadi.

FAOning maqsadlari-ovqatlanishni yaxshilash, aholi turmush darajasini ko‘tarish, mehnat samaradorligini oshirish va oziq-ovqat taqsimotini yaxshilash, qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilik xo‘jaliklari mahsuldorligini oshirish, qishloq aholisi turmush sharoitlarini yaxshilash, dunyo iqtisodiyotining rivojiga ko‘maklashish hamda qishloq xo‘jaligi va aholining oziqlanishiga oid ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va olib borish kabi asosiy maqsadlar bilan o‘z faoliyatini olib boradi.

FAOga a’zo davlatlar bugungi kunda tobora ko‘payib borayotgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi muammolarga duch kelishmoqda. Ularni qo‘llab-quvvatlash uchun **FAO beshta ustuvor yo‘nalishlar va maqsadlarni belgilab oldi:**

- Ochlikni yo‘q qilishga va qishloq xo‘jaligini taminlashga yordam berish;
- Qishloq xo‘jaligi, o‘rmonzorlik va baliqchilikni samaradorligini va barqarorligini ta’minlash;

¹ Юлдашева.Г, Гафурова.Н, Борсиева.З. Право международный организаций. Учебное пособие. –Ташкент: ТДЮИ, 2013. -10 с.

- Qishloq kambag‘alligini kamaytirish;
- Inklyuziv va samarador qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimlarini yaratishga imkon yaratish;
- Inqiroz va tahdid davrida hayotni barqarorligini ta’minlash; Birlashgan Millatlar Tashkiloti va FAO doirasida qabul qilingan hujjatlarning qoidalarini umumlashtirish asosida, a’zo davlatlarga quyidagi maqsadlarga erishishda yordam berishga qaratilgan asosiy maqsadlari mavjud. Shuningdek, **FAOning qo‘shimcha uchta maqsadini ajratish mumkin:**

- 2015 yilga kelib, yer yuzida surunkali to‘yib ovqatlanmaydigan odamlar soni ikki baravar kamaytirilishi uchun barcha insonlarning doimiy ravishda to‘yimli va tabiatdan xavfsiz bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo‘lishini ta’minlash;
- Barcha xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarini yaxshilash maqsadida doimiy ravishda qishloq xo‘jaligini, shu jumladan baliqchilik va o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirishga ko‘maklashish;
- Aholini oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan, shu jumladan er, suv, o‘rmonlar, baliq va genetik resurslardan oqilona foydalanish kabi doimiy harakatdagi maqsadlari mavjud.

Bugungi kunda yuqoridagi barcha maqsadlar sayin harakat qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. Misol uchun birgina O‘zbekiston Respublikasi bilan FAO o‘rtasida oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasida 2025 yilgacha hamkorlik to‘g‘risida bitim imzolandi. FAO va O‘zbekiston o‘rtasidagi 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan Mamlakat hadli dasturini rasmiy ishga tushirilishiga bag‘ishlanib, ushbu dastur istiqbolda o‘zaro hamkorlikni yanada kengayishiga turtki bo’ldi va tegishli yo’l-yo’riqlarni belgilab beradi.¹

Ustavning 1-moddasi Tashkilotning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy, texnik, ijtimoiy va iqtisodiy tadqiqotlar o‘tkazish; ovqatlanish, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligidagi ta’lim va menejmentni takomillashtirish, aholini yaxshi

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.12.2020 yildagi PQ-4922-son O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti, BMT Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi hamda BMT Butunjahon oziq-ovqat dasturi bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.<https://nrm.uz/content>

ovqatlanish va dehqonchilik nazariyasi va amaliyoti haqida xabardor qilish; Tabiiy resurslarni saqlash va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ilg‘or usullarini ishlab chiqish; bu FAOning asosiy funksyalarini tashkil etadi.

FAO Ustavining 1-moddasida tashkilotining funksiyasiga oid bo‘lib, unga ko‘ra: milliy va xalqaro miqyosda quyidagilarga nisbatan harakatlarni qo‘llab-quvvatlaydi va tavsiya qiladi, ular quyidagilardan iborat:

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligiga oid ilmiy, texnik, ijtimoiy va iqtisodiy tadqiqotlar o‘tkazish; ovqatlanish, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligidagi ta’lim va menejmentni takomillashtirish, aholini yaxshi ovqatlanish va dehqonchilik nazariyasi va amaliyoti haqida xabardor qilish; tabiiy resurslarni saqlash va qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning ilg‘or usullarini ishlab chiqadi. Shuningdek, Ustavning 2-qismida esa tashkilot quyidagi munosobotlarda milliy va xalqaro darajada harakatlarni rag‘batlantiradi va to‘g‘ri faoliyatga kirishiga tavsiya beradi:

- a) ovqatlanish, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi masalasi bo‘yicha ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy va iqtisodiy izlanishlarni amalga oshiradi
- b) ovqatlanish, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasining tuzilishi va boshqaruvini yaxshilaydi;
- c) tabiiy resurslarni saqlash va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni ilg‘ori usullarini o‘zlashtirish;
- d) oziq-ovqat va qishloq xo‘jalik mahsulotlarining qayta ishlash, sotilishi va taqsimlanishini yaxshilash;
- e) tegishli qishloq xo‘jaligi kreditlari bilan ta’minlash bo‘yicha milliy va xalqaro strategiyalarni ishlab chiqish;
- f) qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bo‘yicha shartnomalarga xalqaro siyosatni tatbiq etish;

Yuqoridagilardan tashqari qo‘shimcha funksiyalari ham bor:

- a) hukumatlar so‘rashi mumkin bo‘lgan texnik yordam ko’rsatish;
- b) manfaatdor hukumatlar bilan munosobatlarni yo’lga qo‘yish;

c) tashkilotning nizomining muqaddimasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarga erishish uchun kerakli va tegishli chora-tadbirlar ko'rish kabi funksiyalari mavjud.¹ Ustavning 3-moddasi 1-bandiga muvofiq quyidagilar:

Hukumatlar tomonidan talab qilingan texnik yordam; (FAO konferentsiyasi va FAO Ustaviga qabul qilingan tavsiyalardan kelib chiqadigan majburiyatlarni bajarishda ularga yordam berish uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan missiyalarni (tegishli hukumatlar bilan hamkorlikda) tashkil etish; bular barchasi FAOning Ustavda ko'rsatilgan funksiyalariga kiradi.

Shuningdek, tashkilotni funksiyasiga quyidagilar kiradi:

- a) hukumatlar so'rashi mumkin bo'lgan texnik yordam ko'rsatish;
- b) manfaatdor hukumatlar bilan munosobatlarni yo'lga qo'yish;
- c) tashkilotning nizomining muqaddimasida ko'rsatib o'tilgan maqsadlarga erishish uchun kerakli va tegishli chora-tadbirlar ko'rish.²

FAO tashkilotiga a'zo bo'lishni shartlari: Konferensiya, uchdan ikki qism ovozi bilan taqdim yetilishi mumkin qaror qabul qilish uchun tashkilotga a'zo davlatlarning ko'pchiligining mavjudligi, mintaqaviy har qanday tashkilotning tashkilotiga a'zo bo'lish nizomni 4-bandida ko'rsatilgan talablarga javob beradigan iqtisodiy integratsiya a'zo bo'lish uchun so'rov yuborgan va ushbu moddaning rasmiy ravishda u qabul paytida amalda bo'lgan Nizomning tan olishi lozim.³

Har bir so'rov yuboruvchi mintaqaviy iqtisodiy integratsiya tashkiloti tashkilotga a'zo bo'lish to'g'risidagi talab masalalarini ko'rsatadigan ishonch yorliqlari deklaratsiyasini taqdim etadi, ushbu vakolatlar unga a'zo davlatlar tomonidan beriladi.

¹ Устав ФАО.Сборник базовых документов. Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединенных Наций. Том I и II.Издание 2017. –7.С.. <http://www.fao.org/3/mp046r/mp046r.pdf>.

² Basic textes Food and Agriculture organization of the United Nation.Volumes I and II. Edition 2017 y.Artivle 1.Page 7 <https://www.fao.org/3/mp046e/mp046e.pdf>

³ Basic textes Food and Agriculture organization of the United Nation.Volumes I and II. Edition 2017 y.Article 2. Page 8. <https://www.fao.org/3/mp046e/mp046e.pdf>

Tashkilotga a'zo davlatlar ushbu tashkilotga kirayotganda aniq ko'rsatib o'tilmagan va xabar berilmagan har qanday masalalar bo'yicha vakolatini saqlab qoladi.

O'zaro vakolatlarni taqsimlash bilan bog'liq har qanday o'zgarish a'zo tashkilot va unga a'zo davlatlar tomonidan a'zo tashkilot yoki uning a'zo davlatlariga tarqatadigan Bosh direktorga xabar berishadi.

A'zo bo'lgan ishtirokchilarning huquqlari va majburiyatlarining mohiyati va hajmi tashkilotning nizomi, qoidalari va ko'rsatmlari bilan belgilanadi. A'zolik va assotsiatsiyalangan ishtirokchilik konferensiya tomonidan so'rov tasdiqlanganidan keyin kuchga kiradi.

Tashkilot konferensiya tashkil etadi, unda har bir a'zo davlat ishtirok yetadi va assotsiatsiya a'zosi bitta delegat tomonidan namoyish etiladi. Birlashtirilgan a'zolar Konferensiya ishida qatnashish huquqiga yega, ammo ular mansabdor shaxslar tarkiba kirmaydi yoki ovoz berish huquqiga ega yemaslar. Har bir a'zo davlat o'zining delegatiga o'rnbosar, yordamchi va maslaxatchi tayinlashi mumkin. Konferensiya o'rnbosarni, yordamchini va maslaxatchini ishtirok etish shartlarini belgilab berishi mumkin, biroq har qanday shakladagi ishtirokda ular ovoz berish huquqiga ega emaslar, istisno tariqasida ruxsat beriladi qachonki o'rnbosar, yordamchi va maslahatchi delegatni almashtirganda.

Shuningdek, takidlab o'tish lozimki, delegat bittadan ortiq davlatni yoki birlashgan assotsiyasini namoyish qila olmaydi.

Har bir a'zo davlat bitta ovozga ega. Agar ishtirok etuvchi davlatni pul badallaridan qarzdorligi bo'lsa, konferensiya ovoz berish huquqidan mahrum qilinadi. Konferensiya, biroq, ovoz berishda ruxsat berishi mumkin, qachonki to'lovni kechiktirish unga bog'liq bo'lmashtirilgan holatlarda yuzaga kelgan bo'lsa.

Har ikki yilda bir marta konferensiya o'tkazilib, amalga oshirilgan ishlar muhokama qilinadi, Tashkilot faoliyatining asosiy tamoyillari aniqlanadi, keyingi yillarda faoliyat dasturi, byudjeti qabul qilinadi. Bu konferensiya Bosh direktor olti yil muddatga saylanadi. FAO byudjeti uning a'zolari tomonidan badallar ko'rinishida moliyalashtiriladi, uning miqdori konferensiya tomonidan o'rnataladi.

Konferensiyada uning ishiga Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi qo‘mitasi ko‘maklashadi. Ushbu qo‘mita konferensiyaga doklad namoyish qiladi, shuningdek, Iqtisodiy va Ijtimoiy kengash orqali BMT ni Bosh Assambliyasiga doklad taqdim qiladi.

Konferensiya tashkilotning siyosatini belgilaydi va byudjetini tasdiqlaydi va boshqa vakolatlarni amalga oshiradi. Konferensiyasi Tashkilotning umumiy qoidalar va moliyaviy yo‘riqnomalarini qabul qiladi. Konferensiya Tashkilot maqsadlari bilan bog‘liq har qanday masalalar bo‘yicha har qanday xalqaro tashkilotga tavsiyalar berishi mumkin. Konferensiya Kengash, Kengashning har qanday komissiyasi yoki qo‘mitasi, shuningdek har qanday bunday komissiyalar yoki qo‘mitalarning yordamchi organi tomonidan qabul qilingan har qanday qarorlarni qayta ko‘rib chiqishi mumkin.

FAO ixtisoslashgan tashkilot sifatida BMT ni Nizomining 57- moddasiga binoan Birlashgan Millatlar Tashkiloti bilan munosabatlarini mustahkamlaydi va rag’batlantiradi. FAO va Birlashgan Millatlar Tashkiloti o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi shartnomalar konferentsiya tomonidan tasdiqlanishi shart.¹

Tashkilot va boshqa o‘xshash funktsiyalarga yega xalqaro tashkilotlar o‘rtasida yaqin hamkorlikni ta’minalash maqsadida, Konferensiya bunday tashkilotlarning vakolatli organlari bilan shartnomalar tuzish, mas’uliyatni tayinlash va hamkorlik usullarini aniqlashi mumkin. Bosh direktor Konferensiya qarori bilan boshqa hukumatlararo tashkilotlar bilan qo‘shma xizmat tuzilmalari, kadrlarni yollash va o‘qitish uchun ummumiyl mexanizmlarni yaratish bo‘yicha shartnomamlarni imzolashi mumkin. Konferensiya, ko‘pchilik uchdan ikki qism ovozi bilan, Konferensiya tomonidan qabul qilingan qoidalarga muvofiq, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi masalalar bo‘yicha konvensiyalar va bitimlarni tasdiqlash va a’zo davlatlarga yuborish masalasi bo‘yicha qaror qabul qilish mumkin.

¹ Basic textes Food and Agriculture organization of the United Nation. Volumes I and II. Edition 2017 y. Article 12. Page 14. <https://www.fao.org/3/mp046e/mp046e.pdf>

Har qanday a'zo davlat Nizomni qabul qilgan paytdan boshlab to'rt yil o'tgandan so'ng har qanday vaqtida, chiqish to'g'risida bildirishnoma yuborib Tashkilotdan chiqishlari mumkin. Assotsiasiyalangan a'zoning chiqib ketishi to'g'risida xabarnoma Tashkilotga a'zo davlat yoki uni saqlash uchun mas'ul xalqaro ishchi organ tomonidan xabarnoma yuboriladi. Bunday xabarnoma Bosh direktorga yonaltirilgan kundan boshlab bir yil o'tgandan keyin kuchga kiradi.

Hozirda dunyo amaliyotida FAO rivojlanayotgan davlatlarga hozirda axborot tarmog'i sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. FAO xodimlari, shu jumladan agronomlar, o'rmon xo'jaligi, baliqchilik va qishloq xo'jaligi mutaxassislar, ovqatlanish bo'yicha mutaxassislar, sotsiologlar va iqtisodchilar, rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradigan ma'lumotlarni to'playdi, tahlil qiladi va tarqatadi. FAOga a'zo mamlakatlar bilan agrar siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish, qo'llab-quvvatlash, rejalashtirish va tayyorlash borasidagi tajribasi bilan o'rtoqlashadi.

FAOga a'zo davlatlarga FAO a'zosining Ustavida ko'rsatilgan faoliyat doirasidan kelib chiqib infarmasion axborot resursi orqali ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Ushbu tarmoqda FAO va a'zo davlatlar o'rtaida ma'lumotlar almashiladi.

To'plangan tajriba va bilimlarni ko'plab sohalarda yuqori professionallik va texnik sohalarda yuqori malakaga ega bo'lgan FAO eng ishonchli ma'lumot manbai deb hisoblash mumkin.

FAO tashkilotiga a'zo bo'lishni shartlari. Konferensiya, uchdan ikki qism ovozi bilan taqdim etilishi mumkin qaror qabul qilish uchun tashkilotga a'zo davlatlarning ko'pchiligining mavjudligi, mintaqaviy har qanday tashkilotning tashkilotiga a'zo bo'lish nizomni 4-bandda ko'rsatilgan talablarga javob beradigan iqtisodiy integratsiya a'zo bo'lish uchun so'rov yuborgan va ushbu moddaning rasmiy ravishda u qabul paytida amalda bo'lgan Nizomning tan olishi lozim.¹

¹ Устав ФАО. Сборник базовых документов. Продовольственной и сельскохозяйственной организации Объединенных Наций. Том I и II.Издание 2017. –8.С.. <http://www.fao.org/3/mp046r/mp046r.pdf>.

O‘z o‘rnida tashkilot murakkab tarkibiy tuzilishiga ega bo‘lib tashkilotning bosh organi sifatida bu bosh kansler direktori va uning tarikibiga kiruvchi bo‘limlar ya’ni;

- Bosh direktor devoni;
- Qishloq xo‘jaligi va iste’molchilarini himoya qilish departamenti;
- Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish departamenti;
- Balichqilik va dengiz madaniyati deaprtamenti;
- O‘rmon xo‘jaligi departamenti;
- Informasion a’loqa departamenti;
- Oziq-ovqat resurslarini himoya qilish va atrof muhitni himoya qilish departamenti;
- Texnik hamkorlik departamenti;

Shular jumlasidandir. Har bir bo‘lim o‘z ichiga bir necha maxsus ixtisoslashtirlagan bo‘lmalarini oladi.

Bosh direktor devoni. Uning tarkibiga Birlashgan Millatlar Tashkilotining “kelajakdagi istiqbollar, maqsadga erishish va rivojlanish bo‘yicha koordinasion byurosi”, bosh direktor devonxonasi, huquqiy masalalar bo‘yicha boshqarma hamda narxlar va byudjetni tartibga solish byurosidan iborat.

Qishloq xo‘jaligi va iste’molchilarini himoya qilish departamenti. Uning tarkibiga hayvonshunoslik va vetereniraniya bo‘limi, oziq-ovqat va iste’molchini himoya qilish bo‘limi, O‘simlikshunoslik va o‘simlik olamini himoya qilish bo‘limi, Qishloq infrostrukturasi va agrostrukturani nazorat qilish bo‘limlaridan iborat.

Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish departamenti. Uning tarkibiga iqtisodiyotda qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘limi, statistika bo‘limi, Savdoni nazorat qilish bo‘limi, Qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashtirilgan hududlarida yuzaga kelgan bosh muammolar bilan ishslash bo‘limidan iborat.

Balichqilik va dengiz madaniyati departamenti. Bاليقhilik xo‘jaligini siyosat va iqtisodga ta’sirini nazorat qiluvchi bo‘lim, baliqchilik maxsulotlari va uni ishlab chiqishni nazorat qilish bo‘limi, baliqchilik xo‘jaligini boshqarish bo‘limlaridan iborat.

O‘rmon xo‘jaligi departamenti. O‘rmon xo‘jaligini siyosat va iqtisodga ta’sirini nazorat qiluvchi bo‘lim, o‘rmon xo‘jaligi maxsulotlari va uni ishlab chiqarish ustidan nazorat qilish bo‘limi va O‘rmon xo‘jligini boshqarish bo‘limlaridan iborat.

Shu bilan birga boshqa departamentlarda ham bir qator bo‘limlar o‘z faoliyatini olib boradi.

Yuqorida takidlaganimizdek Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) Birlashgan Milllatlar Tashkilotining ixtisoslashtirilgan tashkiloti hisoblanib, ushbu tashkilot o‘z navbatida hamkor boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o‘z faoliyatini amalga oshiridi bunday xalqaro tashkilotlar qatoriga Butunjahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (BSST), Xalqaro qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti jamg‘armasi (XQXTJ) va boshqa ixtisoslashtirilagna tashkilotlarni kiritishimiz mumkin.

Agar tashkilotning hozirdagi shaxsiy tarkibi haqida ma’lumot beradigan bo‘lsak, Tashkilotnnig bosh direktori Joze Grasiano da Silva, uning operatsiyalarni amalga oshirish bo‘yicha o‘rinbosari Laran Toma, tashkilot loyihlarni amalaga oshirishni nazorat qiluvchi o‘rinbosari Daniyel Gustafon hamda iqli va oziq-ovqat ishlab chiqarish resurslar nazoratini olib boruvchi o‘rinbosari Mariya Elena xonimlar tashkil etadi. Tashkilotning O‘zbekistonda tashkil etilgan vakolatxoansining tuzilishi Takilot vakili va uning yordamchi yo‘nalishlar bo‘yicha kotiblaridan iborat.

Tashkilot tarkibida bevosita Texnik hamkorlik departamenti ham tashkil qilinagn bo‘lib, bevosita ushbu departamant tarkibida ikki asosiy bo‘lib ya’ni investisiyani tashkil etish va joylardagi maxsus operatsiyalarni tashkil etish bo‘limlaridir. Ushub bo‘limlarning asosiy vazifasi tashkilot faoliyatiga daxldor bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki bilan hamkorlikda investisiya masalalari bo‘yicha shug‘illansa, boshqa bir bo‘lim esa investisiya natijasida yoki FAO ning buyudjetiga asoslangan loyhalarni joylarda amalga oshirish faoliyati bilan shug‘illanib keladi.

1.3-§. Hozirgi davrda global oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini xal qilishda FAOning roli va ahamiyati.

Jahonda global miqiyosda oziq ovqat xavfsizligi va oziq-ovqatga bo‘lgan huquq masalalari eng dolzarb muammo maqomini olmoqda. Bugungi kunga kelib dunyo bo‘ylab aholi soni keskin oshib ketishi va ushbu jarayon davomiy ekanligi, dunyo bozorlarida oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan talab ning demografik oshib ketishiga olib kelmoqda.

Dunyoning turli hududlarida oziq-ovqat tanqisligi yoki iqlimning keskin o‘zgarishi natijasida qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini yetishtirish masalsida yuzaga kelgan muammolar natijasida ushbu sohaning ahamiyati oshib bormoqda.

Ushbu jarayon XX asr o‘rtalariga kelib xalqaro ahamiyatga ega sohalardan biri sifatida shakillandi. Shu nuqtai nazardan oziq-ovqat xavfsizligi va uning sub’yektlari o‘rtasidagi xalqaro-huquqiy hamkorligi sohasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertant o‘z ilmiy tadqiqotlarida ushbu masalaga etibor qaratib, bu munosabatlarni nazariy, huquqiy va amaliy jihatlari bilan bog‘liq masalalarga to‘xtalgan.

1996-yilda bo‘lib o‘tgan, Butunjahon oziq o‘vqat Sammiti doirasida birinchi bo‘lib dunyo hamjamiyati sayyoramizda och odamlar soni ortib borayotganiga qaratildi.

Butunjahon oziq-ovqat sammiti doirasida birinchi bo‘lib dunyo hamjamiyati e’tibori sayyoramizda och odamlar soni ortib borayotganiga qaratildi. Hozirgi vaqtda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) ma’lumotlariga ko‘ra, aholisi soni bir milliard kishidan oshgan, ya’ni dunyo aholisining 15 foizini tashkil qiluvchi 30 dan ortiq mamlakatlar oziq-ovqat yordamiga muhtoj. Shuningdek, 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlarining kun tartibidagi aynan qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimlarini yaxlit baholashda va mamlakatlar uchun dasturiy qarorlar qabul qilishda inklyuzivlik va barqarorlik

muhim ahamiyatga yega yekanligi, bu sohaning butun duyo uchun nechoglik muhim maslalaigi uchun yetarlicha asosdir.¹

O‘rganilgan tadqiqotlar natijasida oziq-ovqat havfsizligi va butun dunyoda ochlikni bartaraf yetishga qaratilgan harakatlarni quyidagi tarixiy bosqichlar orqali quydagicha davrlashtiramiz:

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi xalqaro huquqiy hamkorlik XX- asrning o‘rtalarida, insoniyat birinchi marta oziq-ovqat muammosining global tabiatini va uning butun dunyo uchun trik qolish va to‘yib ovqatlanish manfaatlari yo‘lida tezda hal qilish zarurati bilan duch kelgan paytda rivojiana boshladi.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasidagi hamkorlikni xalqaro-huquqiy tartibga solish yevolyusiyasini dissertant o‘z ilmiy izlanishlari asosida, 4 bosqichga bo‘lish mumkin degan qarorga kelib tahlil qildik.

Birinchi bosqich - Ikkinchi jahon urushining og‘ir oqibatlarini boshidan kechirgan davlatlar tashabbusi bilan aynan oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohasi bilan shug‘ullanuvchi BMTning ixtisoslashgan tashkiloti FAOni tuzilishi bilan boshlangan davr. Xususan, 1943-yil may oyida ilk bor AQSHda Hot Springs oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiya hamda, Tashkilotning rasmiy tashkil yetilishi 1945 yil 16 oktyabrdan Kvebekda (Kanada) bo‘lib o‘tdi. Har yili 16 oktyabr Jahon oziq-ovqat kuni sifatida nishonlanib kelishi o‘sha davrdan boshlangan. 1946 yilda FAO BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ixtisoslashgan agentligi maqomini olgan. Tashkilot o‘z faoliyatini qishloq xo‘jaligi rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash siyosati orqali dunyoda qashshoqlik va ochlikni kamaytirishdan iborat bo‘lgan o‘z Nizomi asosida o‘z harakatlarini amalga oshira boshladi. 1945 yil BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha ixtisoslashgan xalqaro tashkiloti - FAOning tashkil yetilishi bilan bog‘liq bo‘lgan davr bo‘lib, unda butun yer yuzida oziq-ovqat yetishmasligi siyosati hamda oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo‘jaligi

¹ ФАО: Положение дел в области продовольствия и сельского хозяйства – 2023. Выявление реальной стоимости продовольствия с целью преобразования агропродовольственных систем. Рим.2023 г.
<https://doi.org/10.4060/cc7937ru> , <https://www.fao.org/3/cc7937ru/cc7937ru.pdf>

sohasidagi xalqaro huquqiy bazani ishlab chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan davrni boshlab berdi.

FAO zarur imkoniyatlarga ega bo‘lgan holda xalqaro darajada oziq-ovqat xavfsizligi masalalarini ham bevosita, ham BMT tizimining boshqa ixtisoslashgan muassalari, fondlari va dasturlari (masalan, WFP, IFAD, JSST, UNICEF, UNEP, BMT va) bilan hamkorlikda hal qila oladi.

Shuningdek FAOning yeng muhim shartnomalaridan biri bo‘lgan dunyo aholisining oziqlanishining yeng muhim elementi bo‘lgan o‘simpliklar va o‘simplik mahsulotlarini himoya qilish sohasidagi konvensiya 1997 yil O‘simpliklarni himoya qilish bo‘yicha xalqaro konvensiya turli mamlakatlarning qonunlarini birlashtirish bo‘yicha xalqaro hamkorlik bilan bog‘liq masalalarni muhokama qilish uchun platforma bo‘lib xizmat qildi. Qo‘sishimcha tarzda shuni aytish mumkinki, FAO va JSSTning qo‘shma yiglishida “Kodeks Alimentarius” ya’ni, xalqaro oziq-ovqat standartlari, Konvensiya asosida ishlab chiqilgan hamda, Jahon savdo tashkiloti (JST) tomonidan xalqaro savdo tizimida foydalanish uchun ham asosiy standartlar o‘z harakatini boshlab yuborgan.

2004 yilda FAO kengashi milliy oziq-ovqat xavfsizligi kontekstida oziq-ovqatga bo‘lgan huquqni izchil amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ixtiyoriy ko‘rsatmalar matnini tasdiqladi.¹

ikkinci bosqich -1972-1974 yillardagi global don inqirozi bilan bog‘liq. Dunyoning yetakchi don yetishtiruvchi mamlakatlarida g‘alla yetishtirishning qisqarishi va keyinchalik oziq-ovqat mahsulotlari narxlarining oshishi jahon oziq-ovqat bozorlaridagi vaziyatni beqarorlashtirib, ko‘plab mamlakatlarni asosiy oziq-ovqat mahsulotlarining keskin tanqisligi xavfiga duchor qildi. Natijada oziq-ovqat ta’minoti muammosi dunyoda xavfsizlik va barqarorlikning yeng muhim omiliga aylandi.

¹ Food and Agriculture Organization of the United Nations, Report of the Council of the Food and Agriculture Organization of the United Nations, One Hundred and Twenty-seventh Session, Rome, 22-27 November 2004 (CL 127/REP), appendix D; Voluntary Guidelines to support the progressive realization of the right to adequate food in the context of national food security. 2005. Rome, FAO. 44 pp

Uchinchi bosqich - Oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilishda xalqaro hamkorlik 1996 yil noyabr oyida bo‘lib o‘tgan, Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi sammitida dastlabki xalqaro harakterdagi hujjat Rim deklaratsiyasida davlatlar birinchi martda o‘z oldilariga aniq maqsad qo‘ydilar: Ushbu harakatlar dasturi 2015 yilga kelib, ochlik va to‘yib ovqatlanmaslikdan aziyat chekayotgan dunyo aholisi ulushini ikki barobarga (taxminan 400 million kishiga) kamaytirish maslasini bartaraf yetish uchun harakatlar rejasini tuzdilar. Belgilangan maqsadlarga yerishish uchun ishtirokchilar Butunjahon sammiti xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlikda uni amalga oshirishda va kuzatib borish majburiyatini oldilar.¹

Harakatlar rejasi ushbu yo‘nalishda bir qator majburiyatlarni o‘z ichiga oladi va "barcha uchun oziq-ovqat xavfsizligiga yerishish vositasi sifatida oziq-ovqatga bo‘lgan huquqni amalga oshirish, to‘liq va izchil amalga oshirishga alohida ye’tibor qaratish"ga chaqirdi. Barqaror rivojlanish bo‘yicha Butunjahon sammitini amalga oshirish rejasi va Jahon oziq-ovqat sammitining deklaratsiyasida 1997 yildan beri BMTning Inson huquqlari bo‘yicha Oliy komissari tashabbusi bilan har yili insonning oziq-ovqatga bo‘lgan birinchi huquqi bo‘yicha maslahatlashuvlar o‘tkazila boshlangan.²

Shunigdek, 2002-yilda bo‘lib o‘tgan Juhon oziq-ovqat sammiti davrida, ishtirokchi davlatlar har bir insonning yetarli oziq-ovqatga bo‘lgan huquqini ta’minlashga sodiqligini tasdiqladilar: Ya’ni, hamma uchun oziq-ovqat xavfsizligiga yerishish vositalari; uning yo‘qligining asosiy sabablarini tahlil qildi,

Xususan: oziq-ovqat mahsulotlariga cheklangan kirish;

talab va taklifning barqaror yemasligi;

¹ Всеобщая декларация о ликвидации голода и недоедания. 16 ноября 1974 года Всемирной продовольственной конференцией, созванной в соответствии с резолюцией 3180 (XXVIII) Генеральной Ассамблеи от 17 декабря 1973 года и принятая резолюцией 3348 (XXIX) Генеральной Ассамблеи от 17 декабря 1974 года. https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/hunger.shtml

² Plan of Implementation of the World Summit on Sustainable Development, Report of the World Summit on Sustainable Development, 26 August-4 September 2002, UN Doc A/CONF. 199/20. https://www.un.org/esa/sustdev/documents/WSSD_PlanImpl.pdf

tabiiy va texnogen ofatlar, kabi maslalar xalqaro oziq-ovqat xavfsizligiga yerishishdagi xalqaro hamjamiyatning keng qamrovli vazifasi yekanligini ta'kidladi.¹

Uchinchi davr aynan 1996-2007 yillarni qamrab olgan bo‘lib, “barcha uchun” oziq-ovqat xavfsizligiga yerishish vositasi sifatida insonning oziq-ovqatga bo‘lgan huquqini xalqaro huquqiy darajada targ‘ib qilish orqali ochlar sonini kamaytirish bo‘yicha aniq maqsadga yerishishda xalqaro hamkorlikni faollashtirish davri bo‘lgan.

to‘rtinchi bosqich - 2008 yildan hozirgi kungacha global oziq-ovqat inqirozining salbiy oqibatlarini bartaraf yetish va islohotga asoslangan global oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash sohasida, ko‘p tomonlama boshqaruv tizimini takomillashtirish zarurati bilan bog‘liq bo‘lgan davrlarni qamrab olgan. Ushbu bosqich 1974-yilda ilk tashkil yetilgan Juhon oziq-ovqat xavfsizligi qo‘mitasidan farqli tamoni, qo‘mita 2009-yildan butun dunyoda oziq-ovqat havfsizligining inklyuziv yo‘nalishi va ushbu sohada davlatlarga ushbu sohada bilim berish orqali yagona monitoring siyosatini amalga oshirish bo‘lgan.

Shu o‘rinda yana bir muhim o‘zgarish yuqoridagi harakatlarga yerishish yo‘lida, 2021 yil sentyabr oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi (UNEP) va agroyekologiya bo‘yicha Transformativ hamkorlik platformasini ishga tushirilishi, o‘simliklar o‘rtasidagi o‘zaro yekologik ta’sir hayvonlar, odamlar va atrof-muhit maslasiga alohida ye’tibor qaratilgan bo‘lib oziq-ovqat tizimlari bo‘yicha birinchi sammitida oziq-ovqat tizimlarining atrof-muhitga ta’sirining quydagi holatda tahlil yetkan: aholi soni o‘sib borishi bilan ko‘proq odamlar oziq-ovqat iste’mol qilmoqdalar va isrof qilmoqdalar ; ekin navlarining 90% foizdan ortig‘i yo‘q bo‘lib ketishi va bugungi kunda atigi to‘qqizta o‘simlik turi umumiy hosilning 66% foizini tashkil qilishi bu diabet, semirish va to‘yib

¹ Food and Agriculture Organization of the United Nations, Report of the World Food Summit: five years later, 10-13 June 2002, part one.

ovqatlanmaslik kabi sog‘liq uchun keng tarqalgan xavflarga hissa qo‘sib kelayotkani yeng achinarlisi.¹

Yer yuzida insonlar yashar yekanlar ovqatga bo‘lgan ehtiyoj va huquqlar tugamaydigan jarayondir. Shu sabab har bir inson sifatlari oziq-ovaqtidan foydalanish huquqiga yega. Sifatlari oziq-ovqat haqida gapirganimizda avvalo bizlar oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasiga yega bo‘lishimiz maqsadga muvofiqdir. "Oziq-ovqat xavfsizligi" tushunchasi birinchi marta siyosiy ahamiyatga yega bo‘lib, 1974 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti - FAO tomonidan o‘tkazilgan Rimdagagi Butunjahon konferensiyasida ilmiy muomalada mustahkamlandi.

Bugungi kunga kelib, birinchidan oziq-ovqat xavfsizligini yoritishdan avval, biz xalqaro huquqda xavfsizlik o‘zi nima? degan savolga huquqshunos olimlar izlanishlariga to‘htalib o‘tamiz. Xalqaro huquqshunos olim Ye.G. Moisyevning ilmiy qarashlarida, Xalqaro xavfsizlik deganda, "davlatlar va xalqaro huquqning boshqa sub’yektlari yerkin rivojlanishi uchun qulay xalqaro sharoitlar yaratilgan dunyo tartibi" sifatida keng ma’noda siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, axborot va xavfsizlikning boshqa jihatlarini o‘z ichiga olishi haqida chuntiradi. Amerikalik xalqaro huquqshunos olim G.Glaudia yesa, o‘zining ilmiy qarashlarida, xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi va ochlikni bartaraf yetish masalasini davlatlarning ichki iqtisodiyoti bilan bog‘laydi hamda, siffatli mahsulotlarni iste’mol qilishda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlar va uning bevosita aloqalari savdodagi tarifsiz to‘siqlarni bartaraf yetish, va savdoni yanada yerkinalashtirish kabi maslalarni o‘z ishida ko‘rsatkan.²

Yana bir AQSh huquqshunosi B.Sheyehy va Y.Chingning ilmiy izlanishlarida, FAO hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakatda 820 million kishi hali ham ochlik va to‘yib ovqatlanmaslikdan aziyat chekmoqda. Ayniqsa COVID-19

¹ UNEP: Environment programme. Oziq-ovqat tizimlarini qayta ko‘rib chiqish dasturi. 2021 y 4 iyun. https://www.unep.org/news-and-stories/story/rethinking-food-systems?gad_source=1&gclid=CjwKCAiAx_GqBhBQEiwAIDNAZmHmpsi4Kw7Y2oajhzOmb5r9fPF7MKBQk5xBBj8kUNiqBQrPaPTZ6hoCT0kQAvD_BwE

² G.Leoneli. GMO risks, food security, climate change and the entrenchment of neo-liberal legal narratives.30 Jan.2029 y.ISSN: 2041-4005 (Print) 2041-4013 (Online) Journal homepage: <https://www.tandfonline.com/loi/rtlt20>

pandemiyasi tufayli global miqyosda yanada ushbu sohaga bo‘lgan yehtiyorning kerakligi kuchaydi.¹

Yuqoridagilarda kelib chiqib, bizningcha birinchidan, oziq ovqat havfsizligi tushunchasi bo‘yicha quyidagicha mualliflik ta’rifi ishlab chiqildi: *oziq-ovqat xavfsizligi – bu iqtisodiyotning holati, butun hudud aholisining faol, sog ‘lom hayot kechirishi va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar uchun zarur bo‘lgan miqdorda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan huquqi bilan ta’milanishining kafolatlanishidir.*

Ikkinchidan, asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini iste’mol qilishni oqilona darajada ushlab turish uchun yaratilgan mexanizmni kashf yetish. O‘zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va iqtisodiy erkin qo‘snnichilik muhitini shakllantirish hamda mamlakatda kuchli ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik xarakatlarini amalga oshirishning samarali natija berishini yaratish. Ularning faoliyati xalqaro hujjatlar va davlatlarning milliy qonunchiligi, shuningdek, ikki tamonlama tuzilgan o‘zaro kelishuv asosida tuzilgan bitim (shartnoma) bilan tartibga solinishidir.

Uchunchidan, Oziq-ovqat havfsizligi sohasida, oziq-ovqat mustaqilligi doktirinasi tushunchasi-bu milliy oziq-ovqat tizimining maksimal avtonomligi va iqtisodiy barqarorligi, agrosanoat majmuasi (keyingi o‘rinlarda agrosanoat majmuasi) ishlab chiqarish salohiyatidan oqilona foydalangan holda jahon bozori sharoitlariga moslashuvi va faol tashqi iqtisodiy faoliyatidir degan ilmiy to‘htamga keldik. Oziq-ovqat inson hayotidagi eng muhim unsurlardan biri hisoblanadi.

Iste’molchilar har doim sifatli va xavfsiz mahsulotlar olishni istaydilar. Xavfsiz oziq-ovqat deganda biz odadta yuqori sifatli, ekologik toza, GMOsiz (genetic modifikatsiyalashgan organizmsiz), pestisidlar singari oziq-ovqatga aloqador zararli elementlar bo‘lmagan mahsulotlarni nazarda tutamiz.

Butun dunyoda, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash masalasi dunyo davlatlari oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. O‘zbekiston jahon oziq-ovqat dasturiga o‘z hissasini qo‘sish va kengaytirish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bu borada

¹ B.Sheehy and Y.Ching. Let them eat rights: Re-framing the food insecurity problem using a rights- based approach.

Michigan Journal of International Law, vol.43, no. 3, 2022, pp. 631-698. HeinOnline.

mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganday, “Qishloq xo‘jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va unin lokomotivi, ya’ni harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi.¹ Deb bildirgan fikrlari juda dolzarb ahamiyatga ega.

Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash muammosini hal etish har qanday mamlakatning davlat siyosati va ilmiy tadqiqot ob’yektining muhim ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Butun bir mamlakat va uning ayrim mintaqalarini oziq-ovqat bilan ta’minlashda agrosanoat kompleksi va qishloq xo‘jalik tarmog‘iga qator vazifalar qo‘yiladiki, ularni kompleks holda hal etish talab etiladi.

Davlat rahbarimiz Sh.M.Mirziyoyev — “Oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal etish, genetik modifikatsiya qilingan mahsulotlar yetishtirmaslik bo‘yicha qat’iy nazorat o‘rnatishga alohida e’tibor qaratish talab etadi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz bozorlarida import meva-sabzavot mahsulotlari ko‘payib boraётgani bizni albatta hushёrlikka chaqirishi kerak. Bunday holatning oldini olish uchun, avvalo, yo‘qolib boraётgan qadimgi navlarni tiklash, seleksiya ishlarini oqilona va samarali yo‘lga qo‘yish, sohaga ilm-fan yutuqlari, innovation ishlanmalarni keng joriy etishimiz zarur”² deya ta’kidlab o‘tgani ushbu masalaning e’tiborga molik ekanligini ko‘rsatib beradi.

Bizning tadqiqot mavzuimizni chuqur ochib berish, sohadagi muammolarni ochib berish, zarur takliflar bildirish O‘zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarini tahlil qilishni taqozo etadi. “Aholining Sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunining 17-moddasida fuqarolar davlat boshqaruvi organlaridan, mahalliy davlat hokimiyati organlaridan,

¹ Erkin va fapovon, davlatini mard va oljanob xalkimiz bilan birga kuramiz. Shavkat Mipziyoevning Recpyblikaci Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali mapocimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining kushma majlisidagi nutki. 15 Dekabr 2016.[https://nrm.uz/contentf?doc=482913_shavkat_mirzieevning_o%20%98zbekiston_respublikasi_presidenti_lavozimiga_kirishish_tantanali_marosimiga_bag%20%98ishlangan_oliy_majlis_palatalarining_qo%20%98shma_majlisidagi_nutqi_\(2016_yil_14_dekabr\).](https://nrm.uz/contentf?doc=482913_shavkat_mirzieevning_o%20%98zbekiston_respublikasi_presidenti_lavozimiga_kirishish_tantanali_marosimiga_bag%20%98ishlangan_oliy_majlis_palatalarining_qo%20%98shma_majlisidagi_nutqi_(2016_yil_14_dekabr).)

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 22.12.2017 yil. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

shuningdek davlat sanitariya nazoratini amalga oshiruvchi organlardan sanitariya-epidemiologik vaziyat va insonning yashash muhiti holati, yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan mahsulotning, shuningdek bajarilayotgan ishlar va ko‘rsatilayotgan xizmatlarning xavfsizligi hamda sifati to‘g‘risida axborot olish huquqida ega ekanligi belgilangan.¹

Bundan kelib chiqadiki, har bir fuqaro o‘zi iste’mol qiladigan mahsulotning xavfsizlik talablariga qanchalik javob berishi haqida yetarli ma’lumotga ega bo‘lishga huquqlidir.

Shuningdek qonunchiligmizda, “oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi” tushunchasiga ta’rif berilgan: “oziq-ovqat mahsulotining xavfsizligi, oziq-ovqat mahsulotining sanitariya, veterinariya, veterinariya-sanitariya, fitosanitariya qoidalari va normalariga mosligi”² ko‘rinib turganidek, ta’rifda xavfsilik uchun talab aynan ko‘rsatilmasdan boshqa normativ-hujjatlarga havola qilingan. Mahsulotning sifati va xavfsizligini ta’minlaydigan talablar majburiy bo‘lib, u qonun yoki boshqa normativ hujjat belgilangan tartibda o‘rnataladi.

O‘zbekiston Respublikasida qo‘llaniladigan standartlashtirish sohasidagi hujjatlarni quyidagi turlarga bo‘lishimiz mumkin:

- Milliy standartlar -standartlashtirish sohasidagi O‘zbekiston Respublikasining milliy organi tomonidan qabul qilingan hujjatlar;
- Standartlashtirish qoidalari, standartlashtirish sohasidagi normalar va tavsiyalar;
- Tyexnik, iqtisodiy va ijtimoiy soha axborotlarining barcha rus umumrespublika tasniflagichlari;
- Korxona, tashkilot va muassasalarning standartlari.

Tovarlarning xavfsizligiga qo‘yiladigan talablar turlicha, yuqoridaq hujjatlarda ko‘rsatilgan qoidalarga muvofiq belgilanadi. Ushbu qoidalardan chetga

¹ O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 26.08.2015 yildagi O‘RQ-393-son. Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to‘g‘risidagi. <https://lex.uz/docs/2732587>

² O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 30.08.1997 yildagi 483-I-son “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risida”- 2-модда.http://lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=20326

chiqish, masalan, tovarlarni odatiy bo‘lmagan sharoitda ishlatish, saqlash, iste’mol qilish qoidalarini buzish, iste’molchi uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin.

Genetik modifikatsiyalashgan organizmlar (GMO) - organizm genomiga tashqi genni kiritish orqali hosil qilingan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik organizmlar.¹ Genetik jihatidan o‘zgartirilgan organizmlarning o‘sishi oson va iqtisodiy jihatdan ancha arzonga tushadi - bu ularning tarqalishining asosiy sabablaridan biridir. Transgenli organizmlar tashqi sharoitlarga chidamli, ularga kasallik va zararkunandalar xavf solmaydi, murakkab parvarishni talab qilmaydi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qashshoqlik va ochlikdan qutulish borasidagi sust siljishlar bilan bog‘liq ravishda jahon hamjamiyatining xavotiri tobora ortib borayotgani ushbu masalani yanada muhokama qilishga va 1996 yilda Butunjahon oziq-ovqat xavfsizligi sammiti deklaratsiyasi bilan yangilangan 2009 yilda Jahon oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risidagi Rim deklaratsiyasini qabul qilishga turtki berdi.

Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), BMT ixtisoslashgan tashkilot sifatida oziqlanish, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bo‘yicha o‘z faoliyatining asosiy maqsadlarini kengaytirishga, butun dunyo bo‘ylab odamlarning ovqatlanish sifati va turmush darajasi, samaradorlikni oshirish, barcha oziq-ovqat va qishloq xo‘jalogini ishlab chiqarish va mahsulotlar tarqatish, qishloq aholisining ahvolini yaxshilash va targ‘ib qilish, jahon iqtisodiyotining yeng katta o‘sishi va insoniyatni ochlik va to‘yib ovqatlanmaslikdan xalos qilishga harkat qilib kelmoqda. FAO oziq-ovqat xavfsizligi sifatida shuni takidlaydiki “Qachonki hamma odamlar doimo jismoniy, ijtimoiy va iqtisodiy narsalarga yega bo‘lsalar yetarlicha xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanish ularning ozuqaviy yehtiyolarini qondirish va sog‘lom hayot kechirish uchun imkoniyat yaratadi”.²

¹ Bawa.A.S and Anilakumar..K.R. Cenetically modified food: safety, risks and public concerns. 2013 Dec; 50(6): 1035–1046. <https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3791249/>

²Декларация Всемирного саммита по продовольственной безопасности / Всемирный саммит по продовольственной безопасности (Рим, 16–18 ноября 2009 г.). http://www.un.org/ru/documents/decl_conv/declarations/pdf/summit2009_declaration.pdf (дата обращения: май 2016).

Global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligi juda ko‘p xususiyatli va eng murakkab muammo maqomini oladi. Mahsulotning yetarli miqdori va sifatini ta’minlash uning aspektlaridan biridir. Ushbu og‘ir vazifa FAO ning asosiy vazifalaridan biri bo‘lib hisoblanadi va bu oddiy vazifa emas:

2021 yilga kelib jahon aholisining soni 7,6 milliard kishiga etadi, bu 90-yillarning o‘rtalariga nisbatan aholi sonining 31 foizga oshishi demakdir. Rivojlanayotgan mamlakatlarda ma’lum bir vaqt ichida aholi sonining taxminan 98 foizini tashkil etadi. Bundan tashqari, 1995 yildan 2022 yilgacha rivojlanayotgan mamlakatlar shahar aholisining soni ikki barobarga oshib, 3,4 milliardni tashkil etadi.

2002 yildagi oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha Butunjahon sammitda qabul qilingan qoidalar FAONi isloh qilish rejasida shakillantirishga muvofiq bo‘ldi.

2002 yil 10-13 iyun kunlari Rimda FAO ishtirokida Butunjahon oziq-ovqat sammiti bo‘lib o‘tdi, unda 179 mamlakat (shundan 73 davlat yoki hukumat rahbarlari darajasida ishtirok etdi), shuningdek Evropa hamjamiyatini tashkilot sifatida taqdim etuvchi Komissiya ishtirok etdi.

Sammitda Jahon oziq-ovqat sammiti deklaratsiyasi nomi ostida ushbu hujjat bir ovozdan ma’qullanganligi, butun mamlakatda oziq-ovqat sohasidagi katta bir o‘zgarish bo‘lganligiga asos bo‘ldi. Ushbu, xalqaro hujjat 2002 yil Rim deklaratsiyasi deb nom oldi.

2002 yildagi Rim Deklaratsiyasi har kimning xavfsiz va to‘yib oziq-ovqat olish huquqini tasdiqladi, bu esa yetarli oziq-ovqat olish huquqiga va har kimning ochlikdan ozod bo‘lish huquqini berdi.

Biz ushbu qabul qilingan **deklaratsiyada keltirilgan oziq-ovqat xavfsizligining asosiy sabablari keltirilgan holatlarni ko‘rib va tahlil qilib chiqamiz:**

-oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanishning cheklanishi va bunday oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish uchun oilaviy va respublika byudjetlarining mavjud emasligi;

-talab va taklifning muvofiqemasligi yoki beqarormas

-tabiiy va tehnogen ofatlar (fors major)

Sammitda qayd etilishicha, barqaror siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muhit davlatlarga ichki siyosatni amalga oshirishda oziq-ovqat xavfsizligi va qashshoqlikka barham berishni ustuvor vazifa sifatida belgilab beradi. Demokratiya va barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish, shu jumladan rivojlanish huquqi va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida erkaklar va ayollarning teng huquqli ishti roki barqaror va umumbashariy oziq-ovqat xavfsizligiga erishishning muhim omillaridir. Rim Deklaratsiyasida qashshoqlik, oziq-ovqat yetishmasligining asosiy sababi ekanı aytilgan. Shunday qilib, kambag‘allikka qarshi kurashda katta yutuqlar keng aholi uchun oziq-ovqat bilan ta’minlashni hal qiluvchi ahamiyatga ega. Qarama-qarshilik, terrorizm, korruptsiya va atrof-muhitning tanazzulga uchrashi oziq-ovqat xavfsizligi asoslarini ham jiddiy ravishda buzadi.¹ Shu munosabat bilan oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni, ko‘paytirishni tashkil etish kerak.

Ushbu o‘sish tabiiy resurslardan barqaror (oqilona) foydalanish, notejis iste’mol va ishlab chiqarishni yo‘q qilish, ayniqsa rivojlangan mamlakatlarda amalga oshirilishi kerak. Qishloq reabilitatsiyasi ijtimoiy barqarorlikni kuchaytirish va ko‘p mamlakatlar duch keladigan ichki migratsiya sur’atlarini (shahar va qishloq o‘rtasidagi) pasaytirishda ustuvor yo‘nalish bo‘lishi kerak.

Ko‘rib chiqilayotgan hujjat xalqlar farovonligi va xalqaro hamjamiatning barqaror rivojlanishiga real tahdid soluvchi miqyosda ocharchilik bilan bog‘liq muammolar yuzasidan chuqr tashvish bildiradi. Shu munosabat bilan hukumatlar global miqyosda bir-biri bilan va BMTning ixtisoslashgan muassasalari, moliyaviy institatlari, NNT(NPO), jamoat va xususiy sektorlar bilan global oziq-ovqat xavfsizligiga erishishga qaratilgan dasturlar bo‘yicha faol hamkorlik qilishlari kerakligi maqsadga muvofiqdir.

¹ Climate Change 2007. Mitigation of Climate Change. Working Group III Contribution to the Fourth Assessment Report of the Intergovernmental Panel on Climate Change.//Ed. by Bert Metz, Ogunlade Davidson and others. UNEP. Cambridge University Press. 2007. https://www.ipcc.ch/site/assets/uploads/2018/03/ar4_wg3_full_report-1.pdf.

Rim deklaratsiyasida oziq-ovqatdan siyosiy va iqtisodiy tazyiq o'tkazish vositasi sifatida foydalanmaslik kerakligi alohida ta'kidlangan. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda davlatlar xalqaro huquqqa zid bo'lgan va bir tomondan oziq-ovqat xavfsizligini buzadigan choralarni amalga oshirmasliklari kerakligi belgilangan.

Tegishli ovqatlanish uchun yetarlicha oziq-ovqat ishlab chiqarolmaydigan yoki ololmaydiganlarga, jumladan urush, fuqarolik nizolari, tabiiy ofatlar yoki iqlim bilan bog'liq ekologik o'zgarishlarga duchor bo'lganlarga alohida e'tibor qaratildi. Qishloq xo'jaligi zararkunandalariga, qurg'oqchilik va tabiiy resurslarning tanazzuliga qarshi kurashda, shu jumladan cho'llar hududining ko'payishi, juda intensiv baliq ovlash, shuningdek biologik muvozanatni buzishda tezkor choralar ko'rish zarurati tan olindi.

Tahlillar natijasiga ko'ra, mintaqqa oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning proteksionizm yondashuvining eng taniqli vakillari - Yaponiya va Norvegiya, eksportga yo'naltirilganniki esa - Amerika Qo'shma Shtatlari(AQSH)dir. Dunyoning deyarli barcha davlatlari (masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlari) oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun oraliq yondashuvni amalda qo'llaydi. Bu yondashuvda proteksionizmva eksportga yo'naltirilgan yondashuvlarning ba'zi elementlari mavjud bo'lib, ular orqali oraliq yo'lni kuzatib boradi. Proteksionizm va eksportga yo'naltirilgan èndashuvlarning asosiy farqi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashningulushi juda yuqori. Misol uchun, Yaponiya va Norvegiyada qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash darajasi dunyo ko'rsatkichlardan yuqoridir. Yaponianing ichki bozorini himoya qilishning asosiy vositalari oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini hamda bojxona va tariflarni tartibga solish orqali oziq-ovqat importini cheklash, fermerlarga turli subssidiyalar shaklida to'g'ridan-to'g'ri to'lovlarni amalga oshirish hisoblanadi. Bunday yondashuv bilan qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash uchun sarflanadigan mablag'larni bir qismi sanoat va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi uchun investisiyalarga aylanadi va shutariqa milliy kapitalni qayta tiklash jarayonida

ishtirok etadi.¹ O‘z navbatida, oziq-ovqat importiga sarflanadigan pul mamlakatni tark etadi va eksport qiluvchi mamlakatlarda ishlab chiqarishni rivojlantirishda ishtirok etadi.

Barcha mamlakatlarda qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan asosiy chora-tadbirlar agrar sohada ilm-fanni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ilmiy va texnologik yutuqlarni joriy etish sohasida davlat sièsatini amalga oshirishdir. Xitoyda qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishda muvaffaqiyatga erishishning asosiy omillaridan biri, qishloq xo‘jaligi sohasida ilg‘or texnologiyalarni keng joriy etishdir. Xitoyning yangi agrar siyosati doirasida agrar soha ilm-fanini moliyalashtirishni ko‘paytirish va uzoq muddatli istiqbolda ishlab chiqarishdagi ilm-fan va texnologiyalarning ilg‘or yutuqlarini joriy etishni rag‘batlantirish rejalashtirilgan. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdagi Xitoy tajribasi noyobdir, chunki mamlakatda dunyo aholisining 22 foizini oziqlantirish vazifasi turibdi, bu dunyo yerining 7 foizini tashkil etadi. Agar uning hududida oziq-ovqat ishlab chiqarilmasa, hatto dunyo oziq-ovqat eksporti bu mamlakat aholisi ehtiyojlarini qondira olmaydi. Shu sababli Xitoyda importga katta bog‘liqlik muammosi mavjud emas²

Shunday qilib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha xorijiy tajribalar qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligi muammolarini hal etishda davlatning ustuvor rolini tasdiqlaydi. Davlat darajasida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga proteksion va eksportga yo‘naltirilgan yondashuvlar katta darajada qo‘llab-quvvatlanadi.

Hozirgi kunda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi har qachongidan ham dolzarbdir. O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash orqali aholini qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan extiyojlarni to‘la qondirish, oziq-ovqat bozoridagi barqarorlikni ta’minlashga katta e’tibor qaratildi. Davlatning oziq-ovqatga oid siyosati kartoshka, meva-sabzavot mahsulotlari bilan ham o‘z-o‘zini ta’minlashni

¹ “Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr, 2018 yil.B. 3-4. Mintqa oziq-ovqat xavfsizliginita’minlashning asosiy yo‘nalishlari.pdf.

² Xalqaro moliya va hisob” ilmiy elektron jurnali. № 4-5, avgust-oktyabr, 2018 yil.B. 4-5. Mintqa oziq-ovqat xavfsizliginita’minlashning asosiy yo‘nalishlari.pdf.

ko‘zda tutadi. Aholiga yetarli darajada chorvachilik mahsulotlari va o‘simlik yog‘i yetkazib berish, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash uchun zarur bo‘lgan bazani barpo etish, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari asosiy turlarining yetarli zaxirasini shakllantirish, ularning chakana baholari barqarorligini ta’minlashga erishish, chetdan keltirilayotgan mahsulotlar hajmlarini qisqartirib borish kabilar ham oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning muhim yo‘nalishlari hisoblanadi.

Birinchi bob bo‘yicha xulosalar

I bobda ishning nazariy qismidagi asosiy yo‘nalishlar tahlil qilinib, unda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO), o‘zining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan agentligi sifatida 60 yildan ortiq vaqt davomida o‘zining asosiy vazifalarini kengaytirishga intilib quydagilarni: dunyo bo‘ylab odamlarning ovqatlanish sifati va turmush darajasini yaxshilash; barcha oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarqatish samaradorligini oshirishni ta’minlash; qishloq aholisining ahvolini yaxshilanishi, jahon iqtisodiyotining o‘sishiga va shu bilan birga insoniyatni ochlikka va to‘yib ovqatlanmaslikka uchrash muammolarini barham berishda ko‘maklashib kelmoqda. Shu o‘rinda FAOning hozirgi davrgacha bo‘lgan tarixiy davrini rivojlanish bosqichini to‘rt davrga bo‘lib o‘rganildi va bu davrlar birinchi bosqich –qadimgi davrlardan to 1815 yilgacha (Vena kongressigacha) bo‘lgan davr; ikkinchi bosqich davri 1815 yildan 1919 yilgacha; uchinchi bosqich davri 1919 yildan 1945 yilgacha; to‘rtinchi bosqich davri 1945 yildan to hozirgacha bo‘lgan davr.

1974 yilda FAO tashabusi binoan Butunjahon oziq-ovqat konferensiyasi o‘tkazildi. Konferensiya vaqtida oziq-ovqat inqirozining eng yuqori cho‘qqisiga chiqgan edi. Ushbu konferensiyada taxminan 10 million tonnalik don zaxiralariga kirishni ta’minlaydigan jahon oziq-ovqat bankini yaratish taklif etildi; va Xalqaro qishloq xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasini tashkil etishni kelishib olindi.

1992 yilda Jahon deklaratsiyasi qabul qilindi va ovqatlanish bo‘yicha harakatlar rejasи tuzildi. Deklaratsiya va Harakatlar rejasи Oziqlantirish bo‘yicha

xalqaro konferensiyada qabul qilingan bo‘lib, unda hukumatlar kelgusi ming yilgacha to‘yib ovqatlanmaslik bilan bog‘liq bir qator muammolarni yo‘q qilish yoki sezilarli darajada kamaytirish majburiyatini oldilar.

Xulosa o‘rinda yana shuni ham takidlab o‘tish kerakki, dunyodagi ko‘plab rivojlanayongan davlatlarning iqtisodiyotini qishloq xo‘jaligi ya’ni agrar sohasining ulushi sanoatning ulushiga qaraganda ancha yuqori ko‘rsatkichda turishi yoki ayrim davlatlarning iqsodiyoti butunlay qishloq xo‘jaligiga bog‘langanligini inobatga olish muhim ahamiyat kab etadi.

2020 yil 29 dekardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida keltirib o‘tilgan fikrlari so‘zimizning yana bir isboti sifatida ko‘rshimiz mumkin.

“Afsuski, bu ofat butun insoniyat qatori xalqimiz uchun ham kutilmagan tashvish va murakkab muammolarni keltirib chiqardi. Buxoro va Sardobada yuz bergen tabiiy va texnogen ofatlar ham el-yurtimizning irodasini yana bir bor sinovdan o‘tkazdi.”

“Umuman, xalqimiz xotirjam bo‘lishi kerak: sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, bu borada kafolatlangan zaxirani yaratish va ularni bozorga uzlucksiz yetkazib berish hamda narx-navo barqarorligini ta’minlash ishlariga ustuvor darajada e’tibor qaratiladi. Buning uchun Hukumat va hokimliklar tomonidan barcha choralar ko‘riladi hamda bu masala Prezidentning doimiy nazoratida bo‘ladi.”¹ deb aytgan Murojatlari ushbu sohada ilg’or rivojlangan davlatlar tajribalarini o’rgangan holda, ichki bozorda raqobatbardosh mahsulotlarni yetishtirish, hamda xalqaro tashkilotlar hamkorligi doirasida, jahon bazorida oziq-ovqat mahsulotlarini sifat darajasida ekxsport qilish orqali ham davlatning ichki bozorini yanada shakillantirish, hamda oziq-ovqatdan aziyat chekayotgan yaqin mamlakatlarga ham oziq- ovqat mahsulotlardan foydalanish imkonini berishdir.

¹ 2020 yil 29 dekabr kuni Xalqaro kongress markazida prezident Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. <https://president.uz/uz/lists/view/4057>.

II. BOB. OZIQ-OVQAT VA QISHLOQ XO'JALIGI TASHKILOTI (FAO)NING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BILAN HAMKORLIGINIG XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI.

2.1-§. FAOning xalqaro-huquqiy hujjatlarining tahlili va klassifikatsiyasi.

Xalqaro ekologiya tadqiqotchi va tahlilchisi Dunkan Braykning fikriga ko‘ra, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimida FAO iste’molchilarini oziq-ovqat xavfsizligi, o’simlik va uy hayvonlari zararkunandalari va kasalliklarining transchegaraviy tarqalishi muammolari, shuningdek o’rmonlarning yemirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy va texnogen ofatlar kabi muammolarini hal qilish uchun o‘z imkoniyatlarini yaratish kerakligi, hamda FAO sayyoramizning iqlim o‘zgarishi va uning biologik xilma-xilligini saqlash kabi uzoq muddatli ta’sirlarga e’tiborni qaratishda davom etishi tarixdan to bugungi kun uchun doimiy ravishda dolzarb ahamiyatga ega ekanligini o‘zining faoliyat harakatlarida aks ettirgan tadqiqotchi hisoblanadi.¹

Haqiqatdan ham FAOning har bir yo‘nalish faoliyati bugungi kun uchun juda ham dolzarb hisoblanadi. Ushbu tashkilotning har bir faoliyat harakatini bizlar uning shartnomalari orqali tahlil qilishimiz mumkin.

FAOning shartnomalarini isloh qilish jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u unversal, mintaqaviy va global oziq-ovqat inqirozi bilan bog‘liq bo‘lgan davlatlar o‘rtasidagi o‘sib borayotgan o‘zaro bog‘liqlik va hamkorlik sharoitida amalga oshiriladi. FAOga a’zo davlatlar, ayniqsa oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi kabi sohalardagi mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik fenomenini yetarli darajada tushunish va qashshoqlikning ekstremal shakllarini yengish bo‘yicha Mingyllik Rivojlanish Maqsadiga erishganligi sababli, yuqorida aytib o‘tilganidek, ochlik kambag‘allikning sababi va oqibati ekanligini yodda tutish kerak.²

¹ Duncan Brack. International Trade and Climate Change Policy. London: Royal Institute for International Affairs. 2000. <https://www.worldcat.org/title/international-trade-and-climate-change-policies/oclc/049851703>

² Strengthening the international partnership for effective poverty reduction. Committee for Development Policy. United Nations. Geneva, 2007. <https://www.un.org/development/desa/dpad/publication/cdp-policy-note-2007/>

FAOning hujjatlarini tahlil qilayotganimizda uning klassifikatsiyasi hisoblangan xalqaro shartnomalariga to‘xtalib o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ularni uchta katta guruhga bo‘lib tahlil qilamiz:

Birinchi guruh, FAO Ustavining XIV moddasiga muvofiq tasdiqlangan ko‘p tomonlama shartnomalar, ularga ko‘ra FAO Konferensiyasi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligiga oid masalalar bo‘yicha konvensiya va kelishuvlarni ma’qullashi va a’zo davlatlarga taqdim etishi mumkin bo‘lgan shartnomalar hisoblanadi. Hamda ushbu shartnomalar FAO doirasida ishlaydi.¹

Ikkinci guruh, FAO doirasidan tashqarida ishlab chiqilgan va amal qiladigan ko‘p tomonlama shartnomalar, bu erda ahslashuvchi tomonlar FAO Bosh direktoriga dyepozitariy funksiyalarini bajarishni bergen.

Uchinchi guruh, Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi uchun o‘simpliklar genetik resurslari to‘g‘risidagi xalqaro shartnomaning 15-moddasiga muvofiq qabul qilingan ikki tomonlama bitimlar, Shartnomaning boshqaruvi organi va Xalqaro qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari bo‘yicha maslahat guruhining (SGIAR) Xalqaro qishloq xo‘jaligi tadqiqotlari markazlari o‘rtasidagi tuzilgan bitimlar. Hamda, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi uchun o‘simplik genetik resurslarining to‘plamlarini ishonchli tarzda saqlashga oid shartnomalarni o‘z ichiga oladi. Shu o‘rinda xalqaro huquqshunos Chuyko Nataliya Anrevnaning ilmiy tadqiqot ishlarida aynan mana shu oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan FAO, JSST va JSTning o‘zaro hamkorligidagi xalqaro standartlar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Xalqaro oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq bo‘lgan standartlarning huquqiy holatini tahlil qilish, kodeks Alimentarius komissiyasi, Xalqaro epizootik byuro (OIE), O‘simpliklarni himoya qilish bo‘yicha xalqaro konvensiya (IPPC) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ularning JST qonunchiligidagi roli kuchayganligidan dalolat beradi, chunki nizo yuzaga kelganda, sanitariya va fitosanitariya choralarini panellariga oid nizo yoki shikoyatlar

¹ FAO Treaties Database. <https://www.fao.org/treaties/background/en/>

apellyasiya organi tomonidan JST qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqiladi.¹ FAOning rasmiy elektron sahifasidan olgan ma'lumotimizga ko'ra FAOning jami shartnomalar soni 60 ta bo'lib, shulardan 18 tasi FAO doirasida, 25 tasi FAOning ishtirokchi tamonlari o'rtasidagi ikki tamonlama shartnomalar va Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi uchun o'simliklar genetik resurslariga oid bitmlar soni 15 tani tashkil etadi.(1- ilovada keltirilgan.)

Shuningdek, hududiga ko'ra, universal xalqaro shartnomalar, mintaqalararo tashkil etilgan tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan ikki tomonlama kelishuvlardan iborat:

FAOning universal xalqaro shartomalari:

1951 yilda o'simliklarni himoya qilish xalqaro konvensiyasi qabul qilindi.² Ushbu konvensiya orqali dunyodagi o'simlik resurslarini zararkunandalardan himoya qilishga qaratilgan xalqaro kelishuv FAOning dastlabki universal hujjatiga aylandi. 1951 yilda FAO konferensiyasi tomonidan qabul qilingan Sharhnomaga 1952 yilda kuchga kirdi. Va nihoyat 1992 yilda o'simliklarni himoya qilish xalqaro konvensiyasining Kotibiyati tashkil etildi. Ushbu xalqaro hujjatni ishtrokchilar soni 219 ta davlatlarni tashkil etadi. 2020 yil 13 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi ham ushbu xalqaro Konvensiyaning ishtrokchisi hisoblanadi.³

Eng muhim bo'lgan xalqaro hujjat bu FAO va JSST bilan birga qabul qilingan Kodeks Alimyentarius (Codex Alimentarius)⁴ oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va ularning xavfsizligi bo'yicha xalqaro miqyosda tan olingan me'yorlar, amaliyot mezonlari, ko'rsatmalari va boshqa tavsiyanomalar majmuidan iborat bo'lgan xalqaro hujjatdir.

¹ Чуйко.Н.А. Международно-правовое регулирование безопасности пищевых продуктов в рамках всемирной торговой организации. Автореферат. Диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Специальность 12.00.10 - Международное право; Европейское право. М-2015, с.11.

² FAO Treaties Database.Collection Article XIV. https://www.fao.org/treaties/results/en/?search=adv&subj_coll=ArticleXIV , <https://www.fao.org/treaties/results/details/en/c/TRE-000013/>

³ Adherence by Uzbekistan - International Plant Protection Convention; (Uzbekistan), Issued 28 February 2020. <https://www.fao.org/treaties/status-by-participant/general-profile/en/?iso3=UZB> , <http://extwprlegs1.fao.org/treaty/docs/csl000247.pdf>

⁴ <https://www.fao.org/fao-who-codexalimentarius/en/>

Mazkur Kodeks 1963 yil Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO/FAO - Food and agriculture Organization of the United Nations) hamda Jahon Sog‘lijni saqlash tashkiloti (JSST/WHO - World Health Organization) tomonidan tuzilgan Kodeks Alimentarius Komissiyasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Undan keyingi asosiy xalqaro hujjat FAO Kengashining oltmisht ikkinchi sessiyasi tomonidan tasdiqlangan 1973 yil 29-30 noyabr oyidagi Xalqaro guruch komissiyasining maxsus Preambulasi bo‘ldi.(International Rice Commision).¹

Navbatdagi muhim xalqaro hujjat 1993 yil 24 noyabrdagi Ochiq dengizda baliq ovlash kemalari tomonidan tabiatni muhofaza qilish va boshqarish bo‘yicha xalqaro chora-tadbirlarga rioya etishni tartibga solish to‘g‘risidagi kelishuv bo‘ldi. Undan keyingi universal xalqaro hujjat 2001 yil 3 noyabrdagi muhim xalqaro shartnoma O‘simliklar genetik resurslari hamda Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi haqidagi xalqaro shartnoma bo‘lib, bu ayni butun dunyo qishloq xo‘jaligining huquqiy rivojlanishi uchun kerakli bo‘lgan xalqaro shartnoma bo‘ldi.²

Yana bir tan olingan global xalqaro shartnoma 2009 yil 23 noyabrdagi Noqonuniy, qayd etilmagan va tartibga solinmagan baliqchilikning oldini olish va bartaraf etish bo‘yicha port davlati choralarini to‘g‘risidagi kelishuv bo‘lib, hujjatning ingлизча nomlanishi “Agreement on port state measures to prevent, deter and eliminate illegal, unreported and unregulated fisheries” deb nomlangan shartnoma hisoblanadi.

2015 yilga kelib "Mingyillik rivojlanish maqsadlari" nomli Mingyillik deklaratsiyasi (bundan keyin MRM deb nomlanadi). Ushbu hujjat uchun asosiy vazifalarini belgilaydi.

FAOning mintaqaviy harakatlari kelishuvlar doirasida faoliyat yuritadi. Ya’ni 4 alohida minaqaga Afrika mitaqasi, Yevropa va Markaziy Osiyo mitaqasi, Osiyo

¹ International Rice Commission as amended by the Special Session of the International Rice Commission Rome, Italy (24 November 1973) and approved by the SixtySecond Session of the FAO Council, Rome, Italy (29-30 November 1973). <https://www.fao.org/treaties/results/details/en/c/TRE-000010/>

² International treaty on plant resources for food and agriculture . 2001 year 3 november .Rome.Italy. https://www-fao-org.translate.goog/treaties/en/?x_tr_sl=en&x_tr_tl=ru&x_tr_hl=ru&x_tr_pto=sc

va Tinch okeani mitaqasi uchun alohida harakterga ega bo‘lgan tavsiyalar va ikki va ko‘p tamonlama loyiha va dasturlar bilan yordam beradi.

Afrika mintaqasi uchun FAOning asosiy maqsadi - Afrika mamlakatlari uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash va odamlar faol va sog‘lom hayot kechirishlari uchun etarli darajada yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlaridan mutazam foydalanishlarini ta’minalashdir.¹

Bugungi kunda ushbu mintaqqa a’zoligida 47 ta davlat a’zo. Afrika mintaqasi uchun quydagi ikki tamonlama loyiha dasturlarni ko‘rish mumkin:

Afrika Ittifoqining 2025 yilgacha ochlikni tugatish majburiyatini bajarishga qaratilgan dastur;²

qishloq xo‘jaligini qashshoqlikni kamaytirish uchun inklyuziv transformatsiya dasturini amalga oshirish, kabi mintaqaviy dasturlar bilan FAO yordam beradi.

Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasi uchun, FAO a’zolari va hamkorlari bilan oziq-ovqat xavfsizligi, to‘yib ovqatlanmaslik va qishloqdagi qashshoqlikka barham berish, tabiiy resurslarni barqaror boshqarish va qishloq xo‘jaligining milliy iqtisodiyotga to‘liq hissa qo‘shishini ta’minalash uchun ishlaydi.³

Ekinlarni diversifikatsiya qilish, chorvachilik mahsulotlari yetishtirish va sog‘lomlashtirish, chigirkalarga qarshi kurashni kuchaytirish, baliq yetishtirishni kengaytirish va tabiiy resurslarni barqaror boshqarishga oid O‘zbekiston hukumati bilan BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti FAO o‘rtasida imzolangan kelishuvning ustuvor yo‘nalishlaridandir.⁴

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni ta’kidlash kerakki, FAO tashkil etilganidan beri dunyodagi o‘zgaruvchan vaziyatga moslashib, o‘z faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib bormoqda.

¹ FAO Regional Office for Africa.2022 y. <https://www.fao.org/africa/en/>

² FAO Regional Office for Africa.2022 y . <https://www.fao.org/africa/about/en/>

³ FAO Regional Office for Europe and Central Asia.2022 y. <https://www.fao.org/europe/regional-initiatives/en/>

⁴ FAO Regional Office for Europe and Central Asia.2022 y <https://www.fao.org/europe/news/detail-news/ru/c/273112/>

Bundan tashqari, u kelgusi davrda doimiy o‘zgarishlarga va takomillashtirilgan ish uslublariga mos ravishda ushbu yo‘nalishda davom etish qobiliyatini namoyish etadi.

Buni tasdiqlash uchun 2005 yilda FAO Bosh direktori Tashkilotni keng miqyosli islohot rejasini taklif qilganligini ta’kidlash kerak, bu nafaqat BMTning ixtisoslashgan muassasalari tizimidagi umumiy vaziyat, balki FAO rahbar organlari tomonidan ilgari surilgan takliflar bilan ham bog‘liq.

FAOning boshqaruv organlari FAOni isloh qilishda BMTni isloh qilish bilan bog‘liq barcha jarayonlarni hisobga olish kerakligini aniq tushunadilar. Shuni yodda tutish kerakki, Birlashgan Millatlar Tashkilotini isloh qilish chaqirig‘i uning ixtisoslashgan muassasalari faoliyatida takroriy holatlarning oldini olish zarurati bilan, butun BMT tizimining samaradorligi va uyg‘unligini oshirishga qaratilgan. "Hamkorlik, muvofiqlashtirish va hamjihatlikka bo‘lgan talablar islohotning muhim tarkibiy qismidir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Sammitda qabul qilingan tashqi yordam samaradorligini oshirish to‘g‘risidagi deklaratsiyada qayd etilgan (Parij, 2005 yil mart).¹ Ma’lumki, BMT islohoti uzoq vaqtadan beri davom etmoqda. Dastlab ushbu islohot Birlashgan Millatlar Tashkilotining turli fondlari va dasturlari ishida yanada uyg‘unlikni ta’minlash masalasiga qaratildi.

Biroq, qisqa muddatda asosiy e’tibor BMTning ixtisoslashgan muassasalari ishini kuchaytirishga qaratilishi kutilmoqda, bu FAOdan BMTning boshqa ixtisoslashgan muassasalari bilan o‘zaro ishslash uslubini o‘zgartirishni talab qiladi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, ikkilamchi o‘zgarishlarga moslashishda haddan tashqari sust, bu rivojlanish tashkilotlari bilan hamkorlik darajasiga bevosita ta’sir qiladi.

Aslida, global miqyosdagi sanoat tashkilotlari bo‘lgan holda, bunday ixtisoslashgan muassasalar BMTning fondlari va dasturlaridan, xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlaridan keskin farq qiladi. Shu bilan birga, ular o‘z

¹ Multilateralism under challenge? Power, international order, and structural change.//Ed. by Edward Newman, Ramesh Tha Kur and John Tirman. United Nations University Press, Tokyo. New York. Paris. 2008.
<https://archive.unu.edu/unupress/sample-chapters/1129-MultilateralismUnderChallenge.pdf>

vakolatlari doirasida jamoat mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun yuqori xalqaro standartlarni o‘rnatish va qo‘llab-quvvatlash uchun katta mas’uliyatni o‘z zimmalariga oladilar¹

Umuman olganda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari o‘zlarining xalqaro faoliyati va a’zo bo‘lgan ayrim mamlakatlarga xizmat ko‘rsatish o‘rtasidagi zarur muvozanatni topish va ta’minlashda o‘xshash vazifalarni hal qilishlari kerak.

Shu bilan birga, ular tegishli ma’lumotlar va maxsus bilimlarning saqlovchilaridir (har biri o‘z sohasi bo‘yicha). Bularning barchasi ixtisoslashgan muassasalarga foydali siyosat bo‘yicha maslahatlar berish va a’zo mamlakatlarga o‘zlarining ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishda yordam berish imkoniyatini beradi. Shu sababli Birlashgan Millatlar Tashkilotining ixtisoslashgan muassasalari rahbarlik qilishi va BMT islohotlarining keyingi bosqichida faol ishtirok etishi shart.

Ushbu vazifalarni hal qilish uchun FAO tomonidan shoshilinch choralar ko‘rish zarurati BMT tizimidagi ixtisoslashtirilgan agentliklarning rahbarlari Muvofiqlashtiruvchi kengashi doirasida o‘tkazilgan uchrashuvlarda yanada ravshan bo‘ldi.

Shu bilan birga, FAO faoliyatini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, u BMTning ixtisoslashgan muassasalari tizimidagi rolini tanqidiy qayta ko‘rib chiqishi va FAO oldiga qo‘yilgan vazifalarni bajara olishi uchun o‘zini qanday o‘zgartirishni aniq ko‘rsatishi kerak. FAOning Mingyllik rivojlanish maqsadlariga erishish borasidagi sa’y-harakatlari milliy darajada to‘planishi kerak va Tashkilot BMT tizimidagi islohotlarning umumiyligi sa’y-harakatlari nuqtai nazaridan ushbu darajadagi potentsial qayerda va qanday qilib samarali qo‘llanilishini hal qilishi kerak.

¹ Regulating Globalization: Critical approaches to global governance.//Ed. by Pierre de Senarens and Ali Kazancigil. United Nations University Press, Tokyo. New York. Paris. 2007. <https://unu.edu/publications/books/regulating-globalization-critical-approaches-to-global-governance.html#overview>

FAOga a'zo davlatlar bugungi kunda tobora ko'payib borayotgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi muammolarga duch kelishmoqda. Ularni qo'llab-quvvatlash uchun FAO beshta ustuvor yo'nalishlar va maqsadlarni belgilab oldi:

- Ochlikni yo'q qilishga va qishloq xo'jaligini taminlashga yordam berish;
- Qishloq xo'jaligi, o'rmonzorlik va baliqchilikni samaradorligini va barqarorligini ta'minlash;
- Qishloq kambag'alligini kamaytirish;
- Inklyuziv va samarador qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tizimlarini yaratishga imkon yaratish;
- Inqiroz va tahdid davrida hayotni barqarorligini ta'minlash;

FAO ovqatlanish, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi bo'yicha ma'lumotlarni yig'adi, tahlil qiladi, talqin qiladi va tarqatadi. **Tashkilot quyidagi munosobotlarda milliy va xalqaro darajada harakatlarni rag'batlantiradi va to'g'ri kirishishni tavsiya beradi:**

- a) ovqatlanish, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalasi bo'yicha ilmiy, texnikaviy, ijtimoiy va iqtisodiy izlanishlarni amalga oshiradi
- b) ovqatlanish, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasining tuzilishi va boshqaruvini yaxshilaydi;
- c) tabiiy resurslarni saqlash va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni ilg'or usullarini o'zlashtirish;
- d) oziq-ovqat va qishloq xo'jalik mahsulotlarining qayta ishlash, sotilishi va taqsimlanishini yaxshilash;
- ye) tegishli qishloq xo'jaligi kreditlari bilan ta'minlash bo'yicha milliy va xalqaro strategiyalarni ishlab chiqish;
- f) qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha shartnomalarga xalqaro siyosatni tatbiq etish;

FAO dunyoning 130 dan ortiq mamlakatlarida vakolatxonasiga ega. FAOning markazlashtirilmagan tarmog'iga beshta mintaqaviy, to'qqizta submintaqaviy va 80 mamlakatlararo bo'limlari kiradi. Yana 38 mamlakat bilan bir nechta akkreditatsiya shartnomalari imzolandi, ushbu shartnomalarga binoan FAO vakili boshqa

mamlakatda o‘z faoliyati olib boradi, ammo akkreditatsiya o‘tgan davlatda o‘z yordamchisiga ega bo‘ladi.

Shuningdek, Jahon oziq-ovqat xavfsizligi uchrashuvlarini muntazam ravishda chaqirish orqali dunyoda qashshoqliknii bartaraf etishga qaratilgan kelishilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligi haqida umumiy tushuncha paydo bo‘ldi. FAO ochlikning bir vaqtning o‘zida qashshoqliknin sababi va oqibati yekanligini aniq bilib kelmoqda. Jahon uchrashuvlarining yakuniy deklaratsiyalarida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasi yangi mingyillikdagi ustuvor vazifalardan biri sifatida ilgari surildi. Shu bilan birga, ushbu forumlarda qabul qilingan qoidalar davlatlarning milliy mas’uliyati doirasiga kiradigan qoidalar ekanligini hisobga olinishi kerak. Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo’jaligi tashkilotining asosiy maqsadlari, vazifalari davlat darajasida amalga oshirilishi va oziq-ovqat xavfsizligi sohasida milliy agrar siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishda manfaatdor mamlakatlar tomonidan to‘liq foydalanimishi lozim.

Har bir mamlakatning ehtiyojlari va ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda, FAOning joylarda olib boradigan ishlari hayvonlar yoki o’simliklar zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurashdan tortib, qishloq don omborlarini ta’mirlash va yuqori darajadagi siyosat bo‘yicha maslahatlar berishgacha bo‘lgan vazifalarni qamrab oladi.

2.2-§. FAO bilan O‘zbekiston Respublikasining oziq-ovqatga oid hamkorligining xalqaro-huquqiy hujjatlari.

Bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasi dunyo davlatlari oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir.

Ilk bor oziq-ovqat xavfsizligi masalalari xalqaro miqyosda 1996 yilda Rim shahrida bo‘lib o‘tgan Jahon oziq-ovqat forumida muhokama qilingan. Bu forumda 130 mamlakat ishtirok etdi. Unda kam rivojlangan mamlakatlarga oziq-ovqat

yordami berish masalalari ko‘rildi. Forumda asosan “Yer shari aholisini qanday boqish kerak” degan muammo qo‘yilgan”.¹

Iqtisodchi olim, H.Abdulqosimovning qarashlarida, yer yuzida iqlim o‘zgarishining natijasida yuz berayotgan tabiiy ofatlar, yerlarni sug‘orish uchun suv tanqisligi, qurg‘oqchilik, urbanizatsiya jarayonlari natijasida qishloq xo‘jaligi ehtiyojida foydalilaniladigan yer maydonlarining qisqarib borishi, ayrim mamlakatlarda davom etayotgan fuqarolik urushlari, jahon va hududiy oziq-ovqat bozorlaridagi turli beqarorliklar va boshqa shu kabi noxush vaziyatlar oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni qiyinlashtirmoqda. Oqibatda dunyo oziq-ovqat bozorlarida narx-navo ko‘tarilib bormoqda.²

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlashda muhim o‘rin tutadi. Shu bois mamlakatning o‘z ishlab chiqarishiga tayangan holda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash ustuvor vazifa hisoblanadi.O‘zbekiston jahon oziq-ovqat dasturiga o‘z hissasini qo‘shish va kengaytirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

O‘zbekiston Respublika Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta’kidlaganday, “Qishloq xo‘jaligini isloh qilish va oziq-ovqat xavfsizligini ta ’minlash masalalari, hech shubhasiz, biz uchun eng muhim vazifalardan biri bo‘lib qoladi. Eng avvalo, agrosanoat kompleksi va uning lokomotivi, ya’ni harakatga keltiruvchi kuchi bo‘lgan ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarini izchil rivojlantirishga katta e’tibor qaratiladi”.³

¹ Karimov.I. BMT sammiti Mingyllik rivojlanish maqsadlariga bag‘ishlangan yalpi majlisidagi nutqini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. – T.: “Iqtisodiyot”, 2010. -25-b; Abulqosimov H.P. Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. – T.: “Akademiya”, 2012. -160-б. file:///C:/Users/User/Downloads/zbekistonda-azi-ov-at-havfsizligini-taminlash-omillari.pdf

² Abulqosimov H.P. O‘zbekiston Milliy universiteti Iqtisodiyot fakulteti “Iqtisodiyot nazariyasi” kafedrasini professori, iqtisod fanlari doktori. Iqtisod va Moliya / Экономика и Финансы, 2015, ст.-8. file:///C:/Users/User/Downloads/zbekistonda-azi-ov-at-havfsizligini-taminlash-omillari.pdf

³ Erkin va fapovon, davlatini mard va oljanob xalkimiz bilan birga kuramiz. Shavkat Mipziyoevning Recpyblikaci Pezidenti lavozimiga kirishish tantanali mapocimiga bagishlangan Oliy Majlis palatalarining ko‘shma majlisidagi nutki. 14 Dekabr 2016.y

[https://nrm.uz/content?doc=482913_shavkat_mirzieevning_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_presidenti_lavo_zimiga_kirishish_tantanali_marosimiga_bag%E2%80%98ishlangan_oliy_majlis_palatalarining_qo%E2%80%98sh_ma_majlisidagi_nutqi_\(2016_yil_14_dekabr\)&products=1](https://nrm.uz/content?doc=482913_shavkat_mirzieevning_o%E2%80%98zbekiston_respublikasi_presidenti_lavo_zimiga_kirishish_tantanali_marosimiga_bag%E2%80%98ishlangan_oliy_majlis_palatalarining_qo%E2%80%98sh_ma_majlisidagi_nutqi_(2016_yil_14_dekabr)&products=1) vse zakonodatelstvo uzbekistana

Bundan tashqari, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirishning muhim yo'nalishi qishloq xo'jaligini jadal rivojlantirish, modernizatsiya qilish hisoblanadi. Shu boisdan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Yettinchidan, kambag'allikni qisqartirish va qishloq aholisi daromadlarini ko'paytirishda eng tez natija beradigan omil bu – qishloq xo'jaligida hosildorlik va samaradorlikni keskin oshirishdir. Bunda har gettar yerdan olinadigan daromadni hozirgi o'rtacha 2 ming dollardan kamida 5 ming dollargacha yetkazish ustuvor vazifa qilib qo'yiladi. Buning uchun qishloq xo'jaligiga eng ilg'or texnologiyalar, suvni tejaydigan va biotexnologiyalarni, urug'chilik, ilm-fan va innovatsiyalar sohasidagi yutuqlarni keng joriy etishimiz lozim"¹, - deb ta'kidlagan.

Har qanday davlatning milliy oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, shaxsiyat, jamiyat va umuman mamlakatning ilg'or rivojlanishi bilan bog'liq masalalarni hal qilishda hukumatlarning asosiy vazifasi bo'lib kelgan va saqlanib qolmoqda. Oziq-ovqat xavfsizligi milliy xavfsizlikning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash-sog'lom va farovon millatning asosidir. Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining (FAO)ning asosiy yo'nalishlaridan biri samarali, raqobatbardosh qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratishdir.

Oziq-ovqat xavfsizligi insonlarning istalgan paytda faol va sog'lom turmushtarzi uchun zarur bo'lgan elementlarga boy va xavfsiz (sifati, soni va xilmay-xilligibo'yicha) ovqatlanish imkoniyatiga ega bo'lish demakdir.

Iqtisodchi olimlar S. Payziyeva va A. Paiziyevlarning ilmiy qarashlarida, tabbiy sharoitlar va iqlim o'zgarishlari tufayli O'zbekiston Respublikasidagi og'ir demografik vaziyat qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning hozirgi davrga nisbatan 10-15 foizga kamomadiga olib kelishi mumkin, bu yesa oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid solmoqda. Bu, ayniqsa, oilaning daromadi oziq-ovqat

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 29 dekabr. // "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 30 dekabr. Iqtisod va Moliya / Ekonomika i Finansi 2021,1(137).
<file:///C:/Users/User/Downloads/zbekistonda-ozi-ov-at-havfsizligini-taminlashning-ustuvor-y-nalishlari.pdf>

mahsulotlari ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi aholisining kam ta’minlangan qatlamlari uchun ta’minotni buzish muammolarining yeng yuqori cho‘qqisiga olib kelishi mumkin. 2050 yilga borib, faqat iqlim o‘zgarishi (bug‘lanishning ko‘payishi va suv oqimining kamayishi) ta’sirida paxta hosilining yo‘qolishi Sirdaryo hovuzida 11–13 foizga, Amudaryo havzasida – 11–13% foizga yetishi tahlil etilgan.¹

Jahon miqyosida oziq-ovqat narxlarining o‘zgaruvchanligi, qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta’minalash muammolari, aholining yetarli, xavfsiz va to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalishini ta’minalash zarurati sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash milliy siyosati O‘zbekistonning barqaror rivojlanishining muhim omilidir. Barqaror qishloq xo‘jaligi muammosi global iqlim o‘zgarishi, qishloq xo‘jaligi yerlarining tanazzulga uchrashi va suv resurslari tanqisligining ortib borayotganidan kelib chiqadi. Bu masala bo‘yicha ko‘plab xalqaro tajribalar mavjud bo‘lib, ularning dunyo miqyosida tarqalishi oziq-ovqat taqchilligi muammosini yetishtirishning yangi texnologiyalarini joriy yetish orqali hal yetish imkonini beradi, bu yesa yekinlarni yangi agroqlim va iqlim sharoitlariga moslashtirish imkonini beradi. tuproq sharoitlari.

Bizningcha, O‘zbekiston oziq-ovqat bilan o‘zini-o‘zi ta’minalaydigan bo‘lsa-da, o‘sib borayotgan aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minalash, ayniqsa, muvozanatli va xavfsiz ovqatlanishni ta’minalashning hayotiy muhim muammosi saqlanib qolmoqda. Muammo global oziq-ovqat inqirozi va iqlim o‘zgarishi tendensiyalari va boshqa ichki ob’yektiv va sub’yektiv omillar bilan bog‘liq.

Ulardan eng muhimlari:

- iqlim o‘zgarishiga moslashish O‘zbekiston uchun nisbatan yangi tushunchadir va mamlakat mahalliy aholining bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam talab qiladi uning salbiy ta’sirini oldini olish yoki ijobiy ta’siridan foyda olish uchun aholi

¹ S. Payziyeva and A. Paiziev. Institute of Electronics Uzbek Academy of Science 2020y, Tashkent , Uzbekistan.
http://ndl.ethernet.edu.et/bitstream/123456789/68396/1/2012_Book_StrategiesForAchievingFoodSecu.pdf#page=53

- zaruriyatdan kelib chiqqan holda O‘zbekistonga oziq-ovqat importining yuqori transport xarajatlari talab qiladigan dengizga chiqish uchun boshqa ikki davlatdan o‘tish qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga ye’tiborni kuchaytirish;
 - muvozanatli, barqaror va muhimligini jamoatchilik tushunish yetishmasligi xavfsiz oziq-ovqat intellektual va jamoat salomatligini rivojlantirish uchun asos sifatida millat genofondini mustahkamlash va takomillashtirish bilan;
 - davlat siyosatini amalga oshirishning samarali mexanizmlarining yo‘qligi ovqatlanishning oqilona muvozanati, bu yesa sog‘lom turmush tarziga olib keladi;
 - toza ichimlik suvi bilan uzoq muddatli ta’minlash bo‘yicha noaniqliklar, shuningdek ning tabiiy qisqarishi tufayli sug‘orma dehqonchilik uchun suv resurslarining cheklanganligi muzliklar va shunga mos ravishda daryolar oqimi va mavjud suvdan norasional foydalanish resurslar;
 - innovasion qishloq xo‘jaligi texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi va demak, pastligi yekinlar hosildorligi va qishloq xo‘jaligi hosildorligi;
 - qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining rag‘batlantirish va moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilash uchun yo‘qligi orqali yer resurslarining sifati va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ko‘paytirish innovasion texnologiyalarni joriy yetish;
 - aholining qariyb uchdan bir qismini tashkil yetuvchi nisbatan past daromad darjasasi, buning natijasida oziq-ovqat, non va non mahsulotlariga bo‘lgan talabning o‘ta yuqori bo‘lishi, shuningdek, aholining yetarli yemasligi.
- qimmatli oziq moddalar bilan boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish uchun xarid qobiliyati;
- ozuqaviy va xavfsiz mahsulotlarni ta’minlash uchun mas’ul bo‘lgan muassasalarning yo‘qligi yoki zaifligi aholi uchun oziq-ovqat, shu jumladan oziq-ovqat sifati standartlarini ishlab chiqish, joriy yetish va monitoring qilish masasi.

Shu boisdan qayd etish lozim, ayni globallashuv jarayonida mamlakatlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan sifatli va sotib olish qobiliyati doirasida

ta'minlash muhim masalaga aylandi. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda davlatning roli muhim ahamiyatga ega bo'lib, u, birinchi navbatda, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, monopoliyaga qarshi siyosatni amalga oshirish, oziq-ovqat xavfsizligiga salbiy ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillarni bartaraf etish, ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish, eksportni rag'batlantirish, importni maqbullashtirish, soliqqa tortishda imtiyozlar berish, moliya-kredit mexanizmlarini rivojlantirish kabi masalalardan iboratdir.

Fikrimizcha, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar davlatning nafaqat agrar sohadagi, balki siyosiy va iqtisodiy yo'nalishdagi faoliyatları bilan ham bevosita bog'liqdir. 1974 FAOning Jahon oziq-ovqat sammitida ushbu iqtisodiy kategoriya tushunchasi birinchi bor taklif qilingan, "barqaror oziqo-ovqat iste'molini ta'minlash va ishlab chiqarish hajmi, narxlarning o'zgarishini to'ldirish uchun muhim oziq-ovqatlar bo'yicha dunyoda yetarli jamg'armalari doimiy mavjudligini bildiradi"¹

Shuni alohida ko'rsatib o'tish lozimki, O'zbekiston o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdan tashqari, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlarning oziq-ovqat ta'minotiga ham munosib hissa qo'shayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotining 2015 yil iyun oyida Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tgan 39-konferensiyasida Mingyllik rivojlanish maqsadlariga erishgan davlatlarni taqdirlash marosimida O'zbekiston 14 ta davlat qatorida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda erishgan yutuqlari uchun maxsus mukofot bilan taqdirlandi.²

O'zbekiston Respublikasi hukumati va boshqa hamkorlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan hamkorlik dasturi O'zbekiston uchun ustuvor bo'lib hisoblangan masalalarni o'z ichiga oluvchi va FAOning asosiy tamoyillariga javob beruvchi

¹ Nyu-York (United Nations. 1975. Report of the World Food Conference, Rome 5–16 November, 1974. New York). <https://digitallibrary.un.org/record/701143>

² Абулқосимов Х.П., Расулов Т.С. Ўзбекистонда озиқ-овқат хавфсизлигини таъминлаш йўллари. Рисола. - Т., "Fan va texnologiya", 2015. <file:///C:/Users/User/Downloads/1881-%D0%A2%D0%B5%D0%BA%D1%81%D1%82%20%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D0%B8-4697-1-10-20200629.pdf>

strategik hujjat bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu xujjat yangi 2016 yildan 2020 yilgacha bo‘lgan davr uchun imzolangan BMTning O‘zbekiston bilan hamkorlik qilish dasturi asosida ishlab chiqilgan¹.

O‘zbekiston Respublikasi Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabr Oliy Majlisga Murojotnomasida shuni takidlab o‘tgan ediki “Kelgusi yilda infliyasiyaviy targetlash doirasida narx-navo o‘sishini 10 foizdan oshirmaslik Markaziy bank va Hukumatning asosiy vazifasi bo‘ladi. Bu borada global pandemiya oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga jiddiy e’tibor qaratish zarurligini yana bir bor tasdiqladi. Shu boisdan ham asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin oshib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida import sohasidagi boj to‘lovlar bo‘yicha berilgan imtiyozlar yana bir yilga uzaytiriladi. Umuman, xalqimiz xotirjam bo‘lishi kerak: sifatli oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish, bu borada kafolatlangan zaxirani yaratish va ularni bozorga uzlusiz yetkazib berish hamda narx-navo barqarorligini ta’minlash ishlariga ustuvor darajada e’tibor qaratiladi. Buning uchun Hukumat va hokimliklar tomonidan barcha choralar ko‘riladi hamda bu masala Prezidentning doimiy nazoratida bo‘ladi”².

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 10 noyabrdagi Shanxay hamkorlik tashkiloti sammitidagi nutqida takidlab o‘tdiki “Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi hamkorlik dasturini amalga oshirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish hayotiy muhim ahamiyatga egaligini”. Bundan tashqari, 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasida “tarkibiy o‘zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish; qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqr qayta ishslash, yarim tayyor va tayyor oziq-ovqat hamda qadoqlash mahsulotlarini ishlab

¹ Mo’minov A.R. Xalqaro tashkilotlar huquqi. Darslik.-T: Lesson press, 2019 y. 274 bet.

² O‘zbekiston Respublikasi Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil dekabr Oliy Majlisga Murojotnomasi.https://www.norma.uz/oz/bizning_sharhlari/2020_yilgi_murojaatnomasi_prezidentning_maruzasidan_asosiy_tezislar

chiqarish bo‘yicha eng zamonaviy yuqori texnologik asbob-uskunalar bilan jihozlangan yangi qayta ishlash korxonalarini qurish, mayjudlarini rekonstruksiya va modernizasiya qilish bo‘yicha investisiya loyihamalarini amalga oshirishligi” ko‘rsatib o‘tildi¹.

Xalqaro oziq-ovqat xavfsizligiga tahdidlarni tahlil qilish ushbu global muammoni hal qilish uchun oziq-ovqat xavfsizligi qonuni tamoyillari tizimining imkoniyatlaridan foydalanishni, xalqaro shartnomalar tuzishni, shuningdek oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning xalqaro huquqiy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha takliflarni shakllantirishni talab qiladi.

Mamlakatimizda ushbu sohada keng kolamli ishlar istiqlolning ilk kunlaridanoq amalga oshirildi. Xususan, 1997 yil Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi Qonunning qabul qilinishi buning yaqqol misolidir. Oziq-ovqat xavfsizligi sifatining xavfsizligi va uning ta’minlanganlik darajasi, zaxiralarning mavjud bo‘lishi kabi omillar orqali umumiyligi oziq-ovqat barqarorligi ta’milanadi. Ya’ni oziq-ovqatning inson salomatligiga bo‘lgan salbiy ta’sirini tartibga solish borasidagi tadbirlar birinchi navbatdagi masala bo‘lsa, ikkinchidan, oziq-ovqat yuzasidan boshqa mamlakatlarga qaram bo‘lishning oldini olishdir.

Shuni aytish mumkinki, hozirgi bosqich jahon hamjamiyatining oziq-ovqat xavfsizligi muammosini hal qilish yondashuvlarini o‘zgartirish nuqtai nazaridan keskin burilish payti deb hisoblanmoqda. O‘zbekiston va FAO strategik ustuvor yo‘nalishlari qishloq xo‘jaligi, o‘rmonchilik va baliqchilikning samaradorligini va barqarorligini oshirish uchun xalqaro texnologik almashinuvni faollashtirish, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqatning samarali tizimlariga o‘tish; agrobiznes va ijtimoiy munosabatlarda gender tengligiga erishish, hamkorlik va savdo sohasidagi tartib va qoidalarni takomillashtirish; tabiiy ofatlar va texnogen halokatlar oqibatlarining oziq-ovqat bilan ta’minlashga xavfini kamaytirish lozim.

Yuqorida ta’kidlanganlardan kelib chiqqan holda, bizning fikrimizcha, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda davlatning roli quyidagi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармойиши, 15.08.2017 йилдаги Ф-5024-сон.
<https://lex.uz/docs/-3307879>

yo‘nalishlarda o‘z aksini topishi maqsadga muvofiq. Jumladan: oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabni tartibga solish; oziq-ovqat mahsulotlari bo‘yicha taklifni tartibga solish; tashkiliy infratuzilma va axborot ta’minotini takomillashtirish; tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish. Shuningdek, uning rolini oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish va agrosanoat ishlab chiqarishi sohasini rivojlantirish jarayonlarini boshqarishning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Fikrimizga yana qo‘shimcha qilgan holda shuni aytish mumkinki, 2023 yil 7-8-sentabrda, O‘zbekiston hukumati tomonidan BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining texnik ko‘magida tashkil yetilgan oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiyada ishining yakuniy xulosasi Samarqand deklaratsiyasini qabul qildish bilan bo‘ldi.

Xalqaro konferensiya dunyo va Markaziy Osiyoga a’zo davlatlarda oziq-ovqat xavfsizligining hozirgi holatini ko‘rib chiqish, SDG 2 sari olg‘a siljishga to‘sinqinlik qilayotgan qishloq oziq-ovqat tizimining ayrim asosiy muammolarini ko‘rib chiqish va ushbu muammolarga yechim topishga harakat qilishdan iborat. Ochlikni bartaraf etish, oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanishini yaxshilash, 2030 yilgacha barqaror qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha aniq vazifalarni o‘z ichiga olgan SDG-2 “Nol ochlik” maqsadiga erishish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi holati ko‘rib chiqildi.

FAO bosh direktori Syuy Dun’yuning Samarqand Sammitida keltirib o‘tilgan qarashlari ya’ni, “Global iqtisodiy tanazzul va o‘sishning sekinlashuvi iqlim inqirozining oqibatlari, agrooziq-ovqat tizimida investisiyalarning yetishmasligi, oziq-ovqatlar narxining o‘sib borishi va tengsizlikning kuchayib borishi bilan uyg‘unlikda, bizni 2030-yilgacha Barqaror taraqqiyot sohasidagi maqsadlar (BTM)ga, ayniqcha BTM-2 (Nol ochlik)ka erishishga qaratilgan kursdan chetlatib yubordi. Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiya butun dunyodagi agrooziq-ovqat tizimlari qayta tashkil etilishidagi ilgarilashuvning tezlashishi uchun

jiddiy maydoncha bo‘ladi, pirovardida bu tizimlar dengizga chiqish yo‘liga ega bo‘lmanan rivojlanayotgan mamlakatlar duch kelayotgan chaqiriqlarga alohida urg‘u berib, yanada samarali, inklyuziv va barqaror tus oladi. Bundan tashqari, konferensiyada yaxshilashning to‘rt yo‘nalishi: ishlab chiqarishni yaxshilash, ovqatlanish sifatini yaxshilash, atrof-muhit holatini yaxshilash va hayot sifatini yaxshilash maqsadida qishloq joylarda gender tenglikni mustahkamlash, qishloq xo‘jaligini innovation rivojlantirish va raqamli qishloq xo‘jaligi masalalari muhokama etiladi, bunda hech kim e’tiborsiz qolmasligi kafolatlanadi”,¹ — deb bildirgan fikrlari so‘zimizning yana bir isbotini ko‘rsatadi.

Samarqand deklaratsiyasida ishtirokchi mamlakatlar tomonidan quyidagi maqsadlarni amalga oshirish choralari ko‘rib chiqildi:

- qishloq xo‘jaligini ekologik jihatdan eng xavfsiz, bioxilma-xillikni qo‘llab-quvvatlaydigan usulda, suv resurslaridan optimal foydalangan holda rivojlantirish;
- aholi, ayniqla bolalar va o‘smlarning sog‘lom ovqatlanishiga ko‘maklashish, maktabda ovqatlanish kompleks dasturlarini joriy qilish;
- ayollarning agrooziq-ovqat tizimlari transformatsiyasidagi ulushini oshirish uchun qishloq joylardagi ayollar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirish;
- davlat miqyosida kichik va oilaviy xo‘jaliklarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ishlab chiqarish, tabiiy va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

Va biz uchun muhim bo‘lgan yana bir masla, deklaratsiyada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, xususan dengizga chiqish yo‘li bo‘lmanan mamlakatlarga bu borada ko‘maklishishga qaratilgan bir qancha aniq chora-tadbirlar belgilab qo‘yilgan.

¹Samarqand deklaratsiyasi: Oziq-ovqat havfsizligi bo‘yicha xalqaro konfrensiya. 2023 yil.7-8sentyabr.
<https://www.gov.uz/news/view/2487/>

2.3-§. FAO bilan O‘zbekiston Respublikasining qishloq xo‘jaligi sohasidagi hamkorligining xalqaro-huquqiy hujjatlari.

O‘zbekiston 2011 yil 2 oktyabrdan FAO a’zosi bo‘lishi bilan tamonlar o‘rtasida institusional hamkorlik FAO bilan o‘zaro munusabatlarni muvofiqlashtiruvchi ma’sul organ-Qishloq xo‘jaligi vazirligi tomonidan amalga oshirilishi yo‘lga qo‘yildi. Tashkilot, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi, Sog‘liqni saqlash vazirliklari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Gidrometeorologiya xizmati (O‘zgidromet) va boshqalar bilan hamkorlik olib boradi.

Yevropa mintaqasining o‘sish darajasining pasligiga qaramay, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ichida O‘zbekiston kuchli o‘sishda davom etayotkan davlatlar qatoridan joy olgan. FAOning O‘zbekiston uchun qaratilgan tadqiqotlarida 2012-yilda qayd etilgan 8,2% foizlik o‘sish sur’atidan bir oz pastroq. 2008-2012 yillarda YAIMning real o‘sishi yiliga o‘rtacha 8,3% foizni tashkil etdi, bu esa O‘zbekistonni bu davrda Markaziy Osiyo davlatlari ichida, o‘rtal daromadli mamlakatlardagi eng tez rivojlanayotgan iqtisodiyot sohasi va aholi soni o‘sayotkan davlatlar qatorida ko‘rishimiz mumkin.¹

FAOning O‘zbekiston bilan tuzilgan 2014 va 2017 yillar uchun o‘rganilgan monitoring tahlillarida, mamlakat atrof-muhit muammolariga, ayniqsa quruq yerlarning hududiy joylashuvi va iqlimiyl xususiyatlariga ko‘ra zaifligi, sho‘rlanish, suv-botqoq va yaylovlar eroziyasi, o‘rmonlarning kesilishi, o‘tloqlarning haddan tashqari kamayishi, biologik xilma-xillikning yo‘qolishi kabi ekologik muammolar mamlakat ekologik resurslariga tahdid solayotgan sharoitlarni keltirib chiqarayotkanilagini alohida keltirib o‘tkan.

Haqiqatdan ham ko‘pgina yerlar, xususan, qishloq xo‘jaligi yerlari degradatsiyaga uchrashi va bu esa yerlarning tabiiy unumдорligini pasaytirishi va qishloq xo‘jaligi hududlaridagi tabiiy ekotizimlar salohiyatiga ta’sir qilish havfini mavjudligini bildiradi.

¹ FAO and Republic of Uzbekistan. Country Programming Framework (CPF) For 2014-2017 years.

FAOning O‘zbekiston uchun tuzgan davlat programmasi tahlillariga biz ham qo‘shilgan holda shuni aytishimiz mumkinki, atrof-muhit oqibatlari shamol va suv eroziyasi va quyi oqimdagи cho‘kindilarning ko‘payishi va suv sifati, biologik xilmallilik va yashash joylarining yo‘qolishi bilan bog‘liq holatlar albatta qishloq xo‘jaligidagi unumdarlika ta’sir o‘tkazmay qolmasligigiga hech kim kafolat bera olmaydi.

FAO va O‘zbekiston Hukumat, xalqaro tashkilotlar bilan kelishilgan holda, 2003 yildan buyon bu boradagi tashabbuslar bilan turmush sharoitini yaxshilash masalalarini chuqurroq tushunishga ko‘maklashmoqda. Misol uchun 2003-2004 yillarda Osiyo taraqqiyot banki (OTB) “Turmush darajasini yaxshilash strategiyasini” ishlab chiqishga texnik yordam ko‘rsatdi.

Qishloq xo‘jaligi vakillari FAO tomonidan qishloq xo‘jaligi hosildorlikni oshirish, turli transchegaraviy hayvon kasalliklarini tarqalishiga to‘sinqinlik qilish, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaliklarini rivojlantirish bo‘yicha salohiyatini oshirish maqsadida o‘tkazilayotgan tadbirlarda muntazam ravishda ishtirok etishmoqda.

FAOning O‘zbekistonga ko‘rsatayotgan texnik ko‘magi quyidagilardan iborat:

- sabzovot urug‘larini ishlab chiqarish dasturini rivojlantirish;
- o‘rmon xo‘jalingining yog‘och bo‘lmagan mahsulotlar sektorini qo‘llab-quvvatlash milliy strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- baliq ovlash va yem-xashak taylorlash jarayonini tashkillashtirishga ko‘mak ko‘rsatish;
- qishloq xo‘jaligi innovasiyon tizimlarini tahlil qilish va takomillshtirish salohiyatini rivojlantirish;
- sug‘oriladigan maydonlarda kam resurs sarflaydigan texnologiyalarni joriy etish;
- baliqchilik va suv xo‘jaligi madaniyatlarini rivojlantirish;
- pestisidlarni nazorat qilish va qishloq xo‘jaligi zararkunandalar qarshi kurashish;
- chigirkalar bosqiniga qarshi kurashish;

- yuqori-patogen qush grippini nazorat qilish va uni yo‘q qilish;
- transchegaraviy hayvon kasalliklarini nazorat qilish.

2014 yilning 4-6 iyun kunlari FAO Bosh direktori Joze Grasiano da Silva O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida 2014-yil 5-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) o‘rtasida FAO vakolatxonasini O‘zbekiston Respublikasida tashkil etish to‘g‘risida bitim imzolandi. Sharhnomaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hukumati FAO vakolatxonasini O‘zbekiston Respublikasiga (keyingi o‘rinlarda FAO vakolatxonasi deb yuritiladi) joylashtiradi va O‘zbekiston uni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni, shu jumladan FAO vakolatxonasining xodimlarini saqlash xarajatlarini moliyalashtiradi.¹

2014 yil 28 avgustda FAONing “O‘zbekiston uchun FAO Doiraviy hamkorlik dasturi” imzolandi. FAO tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga ko‘rsatilayotgan yordam yo‘nalishlari 2014-2017 yillarda mo‘ljallangan dasturida belgilab olingan. Ular quyidagilardan iborat edi:

ekinlarni diversifikasiya qilish va ishlab chiqarishni takomillashtirish orqali ichki bozor va eksport uchun yuqori qiymatga ega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;

chigirtka va zararkunandalarga qarshi samarali vosita va tizimlarni joriy etish, tabiatni muhofaza etishga yordam beruvchi qishloq xo‘jaligini hayotga tadbiq qilish;

chorvadorlik va parrandachilikning unumdarligini oshirish, chorva kasalliklarining oldini olish, asalarichilikni rivojlantirish orqali chorvaning brusellyoz va boshqa yuqumli kasalliklariga qarshi kurash;

milliy baliqchilikni rivojlantirish, unumdarligini oshirish;

tabiiy resurslarni unumli boshqarish, o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish, qishloq aholisining daromadini oshirishga yordamlashish, yer va suv resurslarini

¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori, 26.11.2014 yildagi 321-son. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori Birlashgan Millatlar Tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining (FAO) O‘zbekiston Respublikasidagi vakolatxonasi faoliyatini tashkil etish tog‘risida. <https://lex.uz/ru/docs/-2502790>

boshqarishda tajamkorona, takomillashgan texnologiyalarni qo'llash, qurg'oqchilik bilan bog'liq bo'lgan xavflarning oldini olish.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasiga ko'ra, qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirishda tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni muttasil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotni ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorining eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish ko'zda tutilgan¹.

Shu borada agrosanoat kompleksida olib borayotgan islohotlar, xususan, 2017-yil 10-oktyabrda qabul qilingan "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishiga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda ekin maydonlaridan oqilona foydalanilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur qarorda belgilangan chora tadbirlarning amalga oshirishi mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy muammolarni hal qilishga imkon beradi.²

FAO va O'zbekiston o'rtaida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida 2025 yilgacha hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. FAO va O'zbekiston o'rtaida 2021-2025 yillarga mo'ljallangan Mamlakat hadli dasturini rasmiy ishga tushirilishiga bag'ishlanib, ushbu dastur istiqbolda o'zaro hamkorlikni yanada kengayishiga turki bo'ladi va tegishli yo'l-yo'riqlarni belgilab beradi. Barqaror rivojlanish bo'yicha milliy ustuvor vazifalarga muvofiq FAO 2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish bo'yicha kun tartibini amalga oshirish yuzasida

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining qarori, 27.01.2021 yildagi 713-IV-sod. 2017 — 2021 yillarda Uzbekistonni pivojantipishning beshta yctiyop yunalishi buyicha xdrakatlar ctpategiyaci. Uzbekiston Prezidenti 49 / 47 tonli fapmoni, 7 fevral 2017 yil. <https://lex.uz/docs/5285521>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 26.04.2018 yildagi PQ-3680-sod "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yana-da rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. <https://lex.uz/docs/3698698>

hukumatni qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining qiymat zanjiri bo'ylab oziq-ovqat tizimlarining barqarorligiga erishishga yordam berish majburiyatini olgan.¹

Mamlakat hadli dasturi oziq-ovqat tizimini isloh qilish bilan bog'liq bo'lgan milliy ustuvor maqsadlarga erishish bo'yicha Hukumatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM)ning milliy ustuvor yo'nalishlariga muvofiq ushbu MHD doirasida FAO Barqaror rivojlanish bo'yicha kun tartibini amalga oshirish yuzasida hukumatni qo'llab-quvvatlaydi va qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining qiymat zanjiri bo'ylab oziq-ovqat tizimlarining barqarorligiga erishishini ta'minlashga yordam beradi.

Strategik ustuvor yo'nalishlardan biri – aholi salomatligi va farovonligiga olib keladigan inson kapitalini inklyuziv rivojlantirishdir. 2025 yilga kelib, yoshlar, ayollar va aholining zaif qatlamlari hayot kechirish uchun zarur mablag'larni, munosib ish joylarini topishda keng qamrovli imkoniyatlarga ega bo'lishi kutilmoqda. Bunday imkoniyatlar inklyuziv va adolatli iqtisodiy o'sish hisobiga yaratiladi.

Yana bir ustuvor yo'nalish – bu barqaror rivojlanish va iqlim o'zgarishlarini hisobga olgan holda rivojlanishdir. Kutilayotgan natijalarga ko'ra, kelgusi besh yil ichida O'zbekistondagi eng xavfli mintaqalarning iqlim o'zgarishi va tabiiy ofatlarga chidamlilik darajasi o'sadi. Bundan tashqari, tabiiy resurslar va infratuzilmani tobora barqaror va gender jihatidan samarali boshqarish, iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish bo'yicha faol harakatlar, atrof-muhitni muhofaza qilish faoliyatini inklyuziv boshqarish hisobiga qo'shimcha foyda olinadi.

O'zbekiston Qishloq xo'jaligi vazirligi delegatsiyasining 2021 yilda Budapeshtga rasmiy tashrifi doirasida Qishloq xo'jaligi vaziri Jamshid Xodjayev FAO Bosh direktori o'rinnbosari Vladimir Raxmanin va FAO Sub-mintaqaviy koordinatori Viorel Gutsu bilan uchrashdi. Tomonlar o'zaro hamkorlikni yanada

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.12.2020 yildagi PQ-4922-son O'zbekiston Respublikasi BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti, BMT Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi hamda BMT Butunjahon oziq-ovqat dasturi bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/docs/5164680>

rivojlantirish va mustahkamlashga umumiy intilish mavjudligini bildirdilar va hamkorlikning ustuvor yo‘nalishlarini muhokama qildilar.

Yangi Mamlakat hadli dasturini ishga tushirilishi bilan birga O‘zbekiston Qishloq xo‘jaligi vazirligi va FAO o‘rtasida quyidagi yo‘nalishlarda yangi loyiha shartnomalari imzolandi:

- COVID-19 ga javoban O‘zbekistonda kartoshkachilik tarmog‘ini tiklash va rivojlantirish; Geografik ko‘rsatkichlar orqali barqaror oziq-ovqat tizimlarini mustahkamlash;
- Sholi ekinlarini ishlab chiqarish va boshqarishni qo‘llab-quvvatlash; Inklyuziv qishloq xo‘jaligi siyosatini amalga oshirishni qo‘llab-quvvatlash;
- Qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish. Yangi loyihalar 2023 yilgacha amalga oshiriladi va ularning umumiy qiymati deyarli bir million dollarni tashkil etadi.¹

O‘zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 4 mart kuni Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) videoanjuman shaklida o‘tgan 14-sammitida quyidagi taklifni ilgari surdi “BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) bilan birgalikda, IHTning Oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi yangi Dasturini ishlab chiqish va qabul qilish. Shavkat Mirziyoyev 2021 yilda joriy yilda Iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar qishloq xo‘jaligi vazirlarining, navbatdagi yig‘ilishini O‘zbekistonda o‘tkazishga tayyorligini bildirdi”.²

Hozirgi kunda FAO O‘zbekiston bilan keng qamrovli hamkorlikni yo‘lga qoyib kelmoqda va FAO o‘zini turli dasturlarini namoyon qilmoqda. Misol tariqasida keltirishimiz mumkinki, FAO, COVID-19 pandemiyasi oqibatida yuzaga kelgan global inqirozga qarshi ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar doirasida O‘zbekiston Janubi-Sharqiy hududlarida (Buxoro va qamish tumanlari) yashovchi qishloq oilalariga 34 issiqxonalar ajratdi. Issiqxonalar oziq-ovqat sifati va zaif

¹ FAO va O‘zbekiston o‘rtasidagi 2021-2025 yillarga mo‘ljallangan Mamlakat hadli dasturi.

<https://uzbekistan.un.org/uz/124432-fao-va-ozbekiston-ortasida-oziq-ovqat-va-qishloq-xojaligi-sohasida-2025-yilgacha-hamkorlik>

² Узбекистон Республикаси президенти Мирзиёев Шавкат Миромоновичнинг 2021 йил 4 марта куни Иқтисодий ҳамкорлик ташкilotinинг видеоанжуман шаклида ўтган 14-саммитидаги нутки.
<https://www.gazeta.uz/uz/2021/03/05/summit/>

oilalarning turmush darajasini oshirishga yordam beradi. Yangi issiqxonalarini o‘rnatishning to‘g‘riligini FAO mutaxassislari va tuman ma’muriyati vakillari kuzatib borishdi.

Hozirgi vaqtida FAO tog‘ va vodiy hududlarida o‘rmonlarni saqlab qolish va aholining eng zaif qatlamini qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekistonning to‘rtta pilot tumanida faoliyat yuritmoqda. FAO ayollarni o‘z oilalarining daromadlarini oshirish uchun muqobil daromad keltiruvchi faoliyatlar bilan shug‘ullanishga jalgilmoqda, bu esa o‘z navbatida chorva mollari va noqonuniy o‘rmonlarga qaramligini kamaytiradi.

FAO mamlakatning gender tengligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlarini mustahkamlash uchun Davlat o‘rmon xo‘jaligi qo‘mitasi bilan yaqin hamkorlikda ish olib bormoqda va gender tengligi tamoyillarini institusional siyosatga va o‘rmon xo‘jaligini boshqarishni tartibga soluvchi huquqiy asoslarga joriy etish bo‘yicha keng qamrovli ishlarni amalga oshirib kelmoqda¹.

FAO O‘zbekistonda va Vietnamda "aqlii" qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlaydi. O‘zbekiston va Vietnamda amalga oshirilayotgan FAO "kelajak avlod uchun aqlii fermerlik" loyihasi barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish, xususan, qashshoqlikni bartaraf etish, qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, barcha uchun sog‘lom turmush tarzi va farovonligini ta’minlashga xizmat qilmoqda. 3,4 million dollarlik umumiy byudjetga ega loyiha to‘rt yilga mo‘ljallangan bo‘lib, Koreya Respublikasi moliyaviy hamkor hisoblanadi.

FAO va GEF O‘zbekistonda rivojlanish loyihasini amalga oshirmoqda. O‘zbekiston og‘ir tanazzulga uchragan landshaftlarni boshqarish tizimini isloh qilish yo‘llarini izlamoqda, unda global ahamiyatga ega bioxilma-xillik turlari ishlab chiqarish tizimlari bilan bir xil bo‘lib, qishloq xo‘jalidan ortiqcha foydalanish va jadallahish oqibatida xavf ostida qolmoqda.

Bug‘doy O‘zbekistonda asosiy oziq-ovqat mahsulotlaridan biridir. Mamlakat Markaziy Osiyoda ushbu tovarning yirik ishlab chiqaruvchisi va eng yirik

¹ ООН. Роль женщин устойчивом управлении лесами в Узбекистане.04/12/2020/. <http://www.fao.org/fao-stories/article/ru/c/1339036/>

importchisi hisoblanadi. Hozirgi vaqtda bug‘doy ishlab chiqarish tizimlari atrof-muhitga sezilarli ta’sir ko‘rsatayotgani sababli, O‘zbekiston FAO va uning hamkorlarining yordamiga tayanib, bug‘doy ishlab chiqarish va ishlab chiqarish-sotish zanjirlarining barqarorligi va inklyuzivligini ta’minalash maqsadida eng yaxshi amaliyot va innovatsiyalarni qo‘llash ko‘lmini kengaytirish bo‘yicha aniq vazifani o‘z oldiga qo‘ymoqda. Shu maqsadda Global ekologik fond (GEF) O‘zbekistonda FAO tomonidan oziq-ovqat tizimlari va yerdan foydalanishni barqaror rivojlanish foydasiga va yer tiklanishini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sa’y-harakatlarini birgalikda moliyalashtirish to‘g‘risida qaror qabul qildi.

Xususan, mamlakat dunyoda bug‘doy oltinchi eng yirik iste’molchi va tuyadi o‘sishda davom etmoqda, deb hisobga olgan holda, bug‘doy va uning ishlab chiqarish va sotish zanjiri ishlab chiqarishni takomillashtirish ko‘zda tutilmoxda¹.

Mamlakatimizda ushbu sohada keng kolamli ishlar istiqlolning ilk kunlaridanoq amalga oshirildi. Xususan, 1997 yil Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi to‘g‘risidagi Qonunning qabul qilinishi buning yaqqol misolidir. Zotan, oziq-ovqat xavfsizligi sifatining xavfsizligi va uning ta’milanganlik darajasi, zaxiralarning mavjud bo‘lishi kabi omillar orqali umumiyoq oziq-ovqat barqarorligi ta’milanadi. Ya’ni oziq-ovqatning inson salomatligiga bo‘lgan salbiy ta’sirini tartibga solish borasidagi tadbirlar birinchi navbatdagi masala bo‘lsa, ikkinchidan, oziq-ovqat yuzasidan boshqa mamlakatlarga qaram bo‘lishning oldini olishdir.

Ikkinchi bob bo‘yicha xulosalar

Hozirgi kunga qadar, O‘zbekiston Respublikasida oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligini tartibga so‘luvchi bir nechta muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ularning orasiga kiritishimiz mumkinki, O‘zbekiston Respublikasining “Oziq-ovqat mahsulotining sifati va xavfsizligi tog‘risida”gi² qonuni, O‘zbekiston

¹ ФАО и ГЭФ реализуют проект по развитию в Узбекистане. 5/062020. /http://www.fao.org/europe/news/detail-news/ru/c/1279200/

² Ўзбекистон Республикасининг Конуни, 30.08.1997 йилдаги 483-И-сон. Озиқ овқат маҳсулотининг сифати ва хавсизлиги түғрисидаги. https://lex.uz/docs/20326

Respublikasining “Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi¹ qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Mahsulot taqsimotiga oid bitimlar tog‘risida”gi qonuni,² O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bog‘dorchilik-uzumchilik shirkatlari to‘g‘risidagi nizomini tasdiqlash haqida” qarori,³ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Meva-sabzavot mahsulotlarini eksport qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori,⁴ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Meva va sabzavotlardan olingan sharbat mahsulotlarining xavfsizligi to‘g‘risidagi umumiyligini texnik reglamentni tasdiqlash haqida”gi⁵ qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori⁶ shular jumlasidandir.

Haqiqatdan ham FAOning har bir yo‘nalish faoliyati bugungi kun uchun juda ham dolzarb hisoblanadi.

Yuqorida tahlil qilgan FAOning oziq-ovqat xavfsizlik tizimi va amaliyotini umumlashtirgan holda ishlab chiqqan takliflarimizni quyidagi ketma-ketlikda ifodalasak maqsadga muvofiq bo‘ladi:

Birinchidan, Oziq-ovqatga qoshilishi mumkin bo‘lgan kimyoiy moddalar, boyoqlar, tam beruvchi vositalar va ularning miqdorini tartibga soluvchi reglament ishlab chiqish lozim. Hozirgi kunda turli xil oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda va xalq istemoliga taqdim qilinib kelinmoqda. Biroq, shu ta’kidlash

¹ Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 28.12.1993 йилдаги 1006-XII-сон. Махсулотлар ва хизматларни сертификатлаштириш тўғрисидаги. <https://lex.uz/docs/99882>

² Ўзбекистон Республикасининг Қонуни, 07.12.2001 йилдаги 312-II-сон. Махсулот тақсимотига оид битмлар. <https://lex.uz/docs/20641>

³ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 03.12.2021 йилдаги 731-сон. Боғдорчилик-узумчилик ширкатлари фаолиятини тартибга солишнинг кўшимча чора-тадбирлари тўғрисида. <https://lex.uz/docs/5757461?type=print>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 23.02.2019 йилдаги 163-сон. Мева-сабzavot mahsulotlarini eksport қилиш tartibi t'ugrisida nizom 1xaqida. <https://lex.uz/docs/4213596>

⁵ Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 04.03.2020 йилдаги 119-сон. Мева va sabzavotlardan olingan sharbat mahsulotlarining xavfsizligi t'ugrisidagi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash xaqida. <https://lex.uz/docs/4753847>

⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 11.12.2019 йилдаги ПҚ-4549-сон. Мева-сабzavotchilik va uzumchiлик tarmoginini yanada rivojlantiriш, соҳада k'ushilgan қиймат zanjirini yaratiшga doir, k'ushimcha chora-tadbirlar t'ugrisida. <https://lex.uz/docs/-4641164>

lozimki, oziq-ovqat mahsolotlariga qanday kimyoviy moddalar, boyoqlar, tam beruvchi vositalar va qancha miqdorda qoshilmoqdaligi noma'lum bo'lib kelmoqda. Shuningdek, ushbu kimyoviy moddalar, boyoqlar, tam beruvchi vositalar jamiyatga nojoya ta'siri mavjudligi va oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilar mahsulot ishlab chiqarayotganda ushbu qoidlarga rioya qilmayotgani ham amaliyotda uchrab turibti. Va oziq-ovqatga qo'shilishi mumkin bo'lgan vositalni tartibga soluvchi normativ hujjat mavjud emas. Xorijiy tajribani o'rGANADIGAN bo'lsak, Latviya Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 28 fevraldag'i "Oziq-ovqatga ishlatiladigan oziq-ovqat qo'shimchalari va oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi bo'yicha majburiy talablar to'g'risidagi qoidalar, shuningdek oziq-ovqat qo'shimchalarini markalashga qo'yiladigan talablar tog'risida"gi Nizomi mavjud.¹ Ushbu Nizom Oziq-ovqatga qoshilishi mumkin bo'lgan kimyoviy moddalar, boyoqlar, tam beruvchi vositalar va ularning miqdorini huquqi tartibga so'ladi Shuningdek, Yevropa Parlamenti va Kengashining 1334/2008 yil 16-dekabrdagi Nizomi (YEK). "Tam beruvchi va ba'zi oziq-ovqat tarkibiy qismlari uchun, oziq-ovqatda ishlatiladigan aromatik xususiyatlarga ega mahsulotlar tog'risida"gi Nizomi mavjud.

Shu bois, Oziq-ovqatga qoshilishi mumkin bo'lgan kimyoviy moddalar, boyoqlar, tam beruvchi vositalar va ularning miqdorini tartibga soluvchi reglament ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb o'layman.

Ikkinchidan, yuqorida ta'kidlangandek, FAONING asosiy vazifasi va strategiyalaridan biri ochlikni yo'q qilish, qishloq xo'jaligini taminlashga yordam berish va qishloqlarda kambag'alligni kamaytirishdir. O'zbekiston Respublikasida Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirlig oziq-ovqat xavfsizligini, qishloq xo'jaligini va kambag'allikni oldini olishni ta'minlaydigan asosiy vakolatli davlat organi hisoblanadi. Shuni inobatga olib, FAO, Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi va Qishloq xo'jaligi vazirligi hamkorlikda olis cheka hududlarda kambag'allikni

¹ Decree No.725 of the Cabinet of the Ministers validating the Regulation on mandatory requirements for safety and labelling of food additives (enriching agents) and the modalities of registration of food additives (enriching agents). <https://faolex.fao.org/docs/pdf/lat142550.pdf>

qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorij tajribasini inobatga olgan holda kambag‘allik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyotini, ijtimoiy ta’minotning minimal standartlari me’yoriy asoslarini ishlab chiqish va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirib borish.

Tashkilotlar birgalikdagi amalga oshirayotgan ishlarini, loyihamalarini va dasturlarini o‘z rasmiy veb-saytlarida muntazam ravishda omaga e’lon qilib borish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Uchinchidan, oziq-ovqat xavfsizligini muhofaza qilishni tartibga solish bilan bog‘liq ruhsat beruvchi hujjatlarni olish uchun to‘lov miqdorini kamaytirish lozim. Shuningdek, to‘lovlarni elektron shaklda billing tizimi orqali to‘lash imkoniyatini yaratish, to‘langan to‘lovlarni fuqaroning mobil aloqa vositasiga “maxsus kod” yuborish orqali tasdiqlash amaliyotini joriy etish lozim.

To‘rtinchidan, umumiyligi ovqatlanish korxonalarini va ko‘ngilochar obektlar tunghi vaqtida faoliyat yuritish uchun pasport berish tizimini joriy etish lozim.Ushbu pasportda amalga oshiriladigan faoliyat turlari, yuridik shaxsning toifasi, talab qilinadigan ma’lumotlar, qaysi davlat organi tomonidan berilishi, kiritilgan ma’lumotlar tekshirilishi lozim bo‘lgan davlat organlarining axborot tizimlari, to‘lanadigan yig‘im miqdori va amalga oshiriladigan faoliyatning talablari va shartlarini aks etirilishi maqsadga muvofiq.

III. BOB. FAO VA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI O'ZARO HAMKORLIGINING HUSUSIYATLARI VA ASOSIY YO'NALISHLARI.

3.1-§. FAO va O'zbekistonning xalqaro huquqiy hamkorligining maqsadlari va vazifalari.

O'zbekistonda aholining oziq-ovqat hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan extiyojlarni to'la qondirish, oziq-ovqat bozoridagi barqarorlikni ta'minlash yo'lida faoliyat yuritadigan muhim tarmoq-agrar sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda o'zaro xalqaro-huquqiy hamkorlik masalasiga katta e'tibor qaratilish orqali amalga oshiriladi.

Aynan, FAO Ustavida unga a'zo davlatlar: "o'zlarining yurisdiksiyalarida ovqatlanish sifati va insonlarning turmush darajasini oshirish" bo'yicha mustaqil va jamoaviy choralar ko'rish orqali "umumiy farovonlikka" hissa qo'shishga qat'iy qaror qildilar. "Barcha oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va tarqatishda samaradorlikning o'sishini ta'minlash"; "Qishloq aholisining ahvolini yaxshilashga qaratilganligi"¹ belgilab qo'yilgan.

FAOning ushbu ustuvor maqsadlari a'zo davlatlar bilan pirovard natijada global iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga va insoniyatning ochlikka bo'lgan ehtiyojmi yengishga qaratilgan. Ustavning muqaddimasi, FAO orqali a'zo davlatlarning qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohasidagi "amalga oshirilgan harakatlar va erishilgan yutuqlar to'g'risida bir-birlariga hisobot berish" kerakligi haqida ham aks ettirilgan.

FAO faoliyatining asosiy yo'nalishi qishloq xo'jaligi bo'lsada shuningdek, Ustavning 1-moddasining, 1-qismida "qishloq xo'jaligi" atamasi "baliqchilik, dengiz mahsulotlari, o'rmon xo'jaligi va o'rmonning dastlabki mahsulotlari" degan ma'noni ham o'z ichiga qamrab oladi.

Yuqorida keltirib o'tkanimizdek, **FAO O'zbekiston respublikasi bilan aynan, qishloq xo'jaligi sohasida: inklyuziv qishloq xo'jaligi, gender qishloq**

¹ Устав ФАО. Сборник базовых документов. Том I, II ООН. 2017 г.

<https://www.fao.org/publications/card/ru/c/3f4a0dfc-1728-48a0-91ce-a6aa2cb707c2/>

xo‘jaligi, oziq-ovqat sanoati, oziq-ovqat xavfsizligi, asalarichilik, o‘rmon xo‘jaligi kabi yo‘nalishlarda o‘z hamkorligini amalgalashiradi.

Jumladan qishloq xo‘jaligi sohasida O‘zbekiston respublikasi FAOga a’zo bo‘lgunga qadar va FAOga a’zo bo‘lgandan keyingi davrga qarab tahlil qilsak sezilarli ko‘rsatkichlarni ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston iqtisodiyotida agrar siyosatning rivojlanish tarixini shartli ravishda bir necha davrlarga bo‘lish mumkin.

1920 yillargacha bo‘lgan davr. Bu davrda qishloq xo‘jaligi tarqoq holda rivojlangan. Qishloq xo‘jaligi asosan oziq-ovqat muammosini hal qilish va qisman xorijiy bozorlarga muhim tovarlarni ayirboshlash vositasi bo‘lib xizmat qilgan. Yerga asosan ma’lum guruh egalik qilgan va ularning shaxsiy manfaatlari agrar siyosatning mohiyatini tashkil qilgan. Agrar siyosat soliqlar va to‘lov vositalari orqali amalgalashirilgan.¹

1920-1991 yillar. Mamlakat agrar siyosati asosan paxta yakkahokimligi siyosatiga qaratilgan, yerga egalik davlatning qo‘lida, ishlab chiqarish va mulk munosabatlari umumiyligka asoslangan. Agrar siyosat davlat tomonidan, asosan sanoatning manfaatlariga asoslangan holda amalgalashirilgan.

1991-1997 yillar. Barcha sohalarda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar mulkni davlat tasarrufidan chiqarishga qishloq xo‘jaligida ham amalgalashirishga harakat qilindi.

1998 yildan keyingi davr. Bu davr mamlakat hukumatining qishloq xo‘jaligiga keskin e’tibor qaratishi bilan boshlandi. Mamlakat qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni keskin chuqurlashtirish borasida qator qonun va me’yoriy hujjatlarning qabul qilinishi bu tarmoqqa e’tiborning kuchayishidan dalolat berdi. Mamlakat qishloq xo‘jaligidagi mavjud iqtisodiy tushkunlikni yo‘qotish va uni samarali rivojlantirishning qator dasturlari ishlab chiqildi va ular davriy ravishda takomillashtirilib amalgalashirilmoqda. Bu davrdagi agrar siyosatning asosiy

¹ Сайдова.Д, Рустамова.И, Турсунов.Ш, “Аграр сиёсат ва озик-овқат хавфсизлиги”. Ўкув кўлланма. Т.: “ЎЗР Фанлар Академияси Асосий кутубхонаси” босмахонаси нашриёти. Т:2016 й. 21-22 бетлар.
http://www.agriculture.uz/filesarchive/Agrar_policy_Food_security_20072016_all.pdf.

xususiyatlariga yerga munosabatning keskin o‘zgartirilishi, rivojlangan mamlakatlar tajribalari va mamlakat ichki xususiyatlari e’tiborga olinib amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar, ishlab chiqarishni fan yutuqlari asosiga qurish, yangi texnologiyalardan foydalanish kabi bir qator xususiyatlar xosdir.

2001 yildan to hozirgi kungacha bo‘lgan davr O‘zbekiston va FAO bilan o‘zaro hamkorlik harakatlari davri O‘zbekiston BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti – FAOga 2001 yilda a’zo bo‘lganligi qishloq xo‘jaligi sohasiga tubdan yangicha yo‘nalishlarning shakillanishiga sabab bo‘ldi. 2014 yil 6 iyunda Toshkentda mazkur tashkilot vakolatxonasi ochilishi mamlakatimizda FAO bilan hamkorlikda zamonaviy texnologiyalar yerga ishlov berish, seleksiya va urug‘chilik, cho‘llanish va yer yemirilishiga qarshi kurashishning ilg‘or uslublari amaliyotga tatbiq qilindi. Buning natijasida g‘allachilik, paxtachilik, chorvachilik, bog‘dorchilik va boshqa sohalarda mahsulot hajmi va sifati oshmoqda.

FAOning O‘zbekiston Respublikasi bilan ilk hamkorlik maqsadi 2014 yildan boshlangan bo‘lib u qydagisi “Mamlakat dasturlash asosi O‘zbekiston uchun” (Country Programming Framework for the Republic of Uzbekistan 2014-2017 (CPF)) deb nomlangan hamkorlik loyiha dasturi bilan boshlangan. Ushbu xalqaro tashkilot O‘zbekiston bilan o‘ziga halqaro huquqiy hamkorlikning 5 ta maqsadni o‘z oldiga qo‘ygan vazifa qilib oldi. Ular quydagilar:

1. Ekinchilik tizimini diversifikatsiya qilish va barqaror ishlab chiqarishni intensivlashtirish.
2. Chigirkalarga qarshi kurashning samarali usullarini targ‘ib qilish, zararkunandalarga qarshi integratsiyalashgan boshqaruv.
3. Chorvachilik, kasalliklarga qarshi kurash va asalarichilik.
4. Baliqchilik va ichki baliqchilikni rivojlantirish.
5. Tabiiy resurslarni barqaror boshqarish.¹

¹ FAO Representative for Uzbekistan and Subregional Coordinator for Central Asia “Country Programming Framework for the Republic of Uzbekistan 2014-2017”. 5-p. FAO%20and%20UZBEKISTAN/2014-2017%20FAO%20and%20Uzbekistan.pdf

1995 yilda FAO o‘zining 50 yilligini nishonlagan paytda FAO yana bir bor Ustav maqsadlariga global e’tiborni qaratdi. Yarim asrlik yubiley o‘z ustavida belgilangan maqsadlarga erishish yo’lida hissa qo‘sish uchun yaxshi imkoniyat bo‘ldi. Shu munosabat bilan ikkita muhim masala qayd etildi. Birinchidan, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlashda, shuningdek, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda sezilarli yutuqlarga erishish. Ikkinchidan, erishilgan barcha yutuqlarga qaramay, dunyoda och odamlar soni jami aholining beshdan biriga to‘g‘ri kelayotgani bo‘ldi.

1995 yildagi FAO konferensiyasida qabul qilingan Kvebek deklaratsiyasida qishloq xo‘jaligini, o‘rmon xo‘jaligini va baliqchilikni jadal rivojlantirish zarurati - barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashning muhim yo‘nalishi bo‘ldi. Ushbu deklaratsiya oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning ham, iste’molchilarning ham ahvolini yaxshilash zarurligiga urg‘u beradi, rivojlanish uchun tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni talab qilinishi, shuningdek barqaror rivojlanish uchun global sheriklik zarur ekanligi ko‘rildi.

Shunday qilib, ko‘rib chiqilayotgan Deklaratsiya FAO faoliyatining asosiy yo‘nalishlari bo‘lib xizmat qiladigan ustuvor maqsadlarni tasdiqladi. Ushbu maqsadlar 50 yil dan ortiq vaqt davomida yuz bergen o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, to‘plangan tajribaga tayangan holda va FAO tomonidan bunday tajribaga asoslangan yangi yondashuvlar, uslublar va ish uslublarini hisobga olgan holda yana bir bor tasdiqlandi. 20-asrning oxirida, ayniqsa global oziq-ovqat xavfsizligi muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferentsiyalar va sammitlarda yangi yondashuvlar namoyish etildi.

Ushbu forumlarning ta’siri ostida dunyoda 90-yillarda yuzaga kelgan vaziyatga xalqaro hamjamiatning umumiy munosabati sifatida rivojlanish muammosi haqida umumiy tushuncha shakllandi. O‘tgan asr, xususan, keng jamoatchilikning e’tiborini kambag‘allikka qarshi kurash bo‘yicha kelishilgan choralar zarurligiga qaratildi.¹

¹ Абашидзе А.Х. Ницета - новая угроза человечеству. Вестник РУДН. Серия: юридические науки, 2005, № 2 (18). С. 96-101.

Ayniqsa, ochlik bilan kurashish - inson qadr-qimmati uchun qashshoqlikning ekstremal va qabul qilib bo'lmaydigan shakli, shuningdek, er-xotin vazifani hal qilish masalasiga alohida e'tibor qaratildi: sayyoramizning tabiiy boyliklarini saqlashga katta e'tibor berib, aholi uchun etarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zarurati ahamyatli ekanligi yaqqol namoyonligini ko'rishimiz mumkin.¹

Xuddi shu 1995 yilda Oziq-ovqat muammolari bo'yicha Butunjahon sammitini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilingan edi. 1996 yilda ushbu Sammit oziq-ovqat xavfsizligiga bag'ishlangan eng yuqori darajadagi birinchi global tadbir bo'lib o'tdi.

Ushbu uchrashuvda avvalgi xalqaro konferensiyalar va uchrashuvlarda belgilangan qoidalar asosida shartnomalar imzolandi. Ushbu kelishuvlarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi yangi mingyillikning ustuvor vazifalaridan biri sifatida ilgari surilgan. Forum, shuningdek, Jahon oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha Rim deklaratsiyasini va Butunjahon Oziq-ovqat Sammitining Harakat Rejasini qabul qildi, bu xalqaro hamjamiyatning yer yuzidagi barcha odamlar uchun oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishga bo'lgan qat'iyligini yana bir bor tasdiqladi.

Xalqaro konferensiyalar va jahon yig'ilishlarida qabul qilingan turli xalqaro hujjatlar va harakatlar rejalaridagi qoidalar, maqsadlar va vazifalar, birinchi navbatda, davlatlarning milliy javobgarligi doirasiga kiradi: ular davlat darajasida bajarilishi kerak. Shu bilan birga, har biri o'z vakolatlari doirasida ish olib boradigan xalqaro tashkilotlar, shuningdek, davlatlar tomonidan amalga oshirilayotgan harakatlarga yordam va ko'mak ko'rsatishga chaqiriladi.

Shunday qilib, FAO o'z vakolatlari doirasida, davlatlarga Butunjahon Sammit Harakat Rejasini amalga oshirishda yordam berishda muhim rol o'ynaydi. Bundan tashqari, FAO o'zining tuzilmalaridan biri (Jahon oziq-ovqat xavfsizligi qo'mitasi) orqali avvalgi Jahon sammitining qarorlari bajarilishini nazorat qiladi. Mening qarshlarim nuqtai nazaridan Jahon Sammitining Harakatlar rejasi hozirgi zamon

¹ The State of Food Security in the World. Rome, FAO, 1999; World Bank's World Development Report 2000/2001: Attacking Poverty.

FAO faoliyatining asosiy maqsadining ajralmas qismi sifatida ko‘rib chiqilishi kerak.

Shu bilan birga, FAO, BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha konferensiyasi tomonidan 1992 yilda qabul qilingan "21 asr kun tartibi" ga bag‘ishlangan BMT konfrensiyasi qarorlarni amalga oshirishda, BMTning bir qator boshqa konferentsiyalari qarorlarini jumladan, ayollar, bolalar muammolariga bag‘ishlangan ", ijtimoiy rivojlanishga qaratilgan BMT hujjatlari BMT oldida turgan global majburyatlardan biridir.¹

FAO Ustavining kirish qismida berilgan maqsadlarga erishish uchun umuman barcha zarur va tegishli choralarni ko‘rish. Professor K.A.Bekyashevning o‘zining ilmiy qarashlarida (birinchi marotaba xalqaro huquqning ichki doktrinasida FAOning tirik dengiz resurslarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini tubdan tahlil qilgan²), FAO Nizomida bevosita noma’lum sohalarda qator vakolatlar (vakolatlar) mavjud.

Xususan, biz dengizning tirik resurslarini himoya qilish, shu jumladan dengiz baliqchiligini tartibga solish muammolari haqida gapiramiz. Professoring ilgari surgan qarshlarida, BMTning Dengiz huquqi bo‘yicha konfrensiyasi ishida, u o‘z faoliyatini 1982 yilda BMTning Dengiz huquqi to‘g‘risidagi konventsiyasini qabul qilishi bilan o‘z tasdig‘ini topdi.³

FAOning umumiyligi (ammo muhim) funksiyasi qishloq xo‘jaligi siyosati va xalqaro shartnomalar loyihamalarini muhokama qilish uchun neytral forum bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu ish FAOning turli texnik qo‘mitalari, kengashlar va konferentsiyalarda, vazirlarning maxsus rejali yig‘ilishlarida va Butunjahon oziq-ovqat sammitlari kabi global forumlarda global darajada amalga oshirilmoqda.

FAOning turli xil forumlari turli komissiyalarning ish sohalarini qamrab olgan (shu jumladan cho‘l chigirtka nazorati bo‘yicha komissiya yoki sigirlar quturishi yiki kasalligi bo‘yicha Yevropa komissiyasi). Shunday qilib, 2001 yilda

¹ World Report on violence against children //Paulo Sergio/ Independent Expert for the United Nation Secretary-General’s study on violence against children/Geneva, 2008. <https://digitallibrary.un.org/record/587334>

² Абашидзе А.Х., Арсентьев Ю.А., Лазарев М.И. Международное морское право. М., 2005.

³ Бекяшев К.А. ФАО и правовые вопросы охраны живых ресурсов открытого моря. М., 1976, сб.

qabul qilingan Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi uchun o‘simliklarning genetik manbalari to‘g‘risidagi xalqaro shartnomada genetik resurslarga bemalol kirish imkoniyatini yaratadigan prinsiplar shakllantirildi.¹ FAO mamlakatlarga milliy va mintaqaviy agrosanoat siyosatini olib borishga intilmagani uchun, u betaraf rolga ega bo‘lgan halol dallol sifatida qabul qilinadi.

Ta’kidlash kerakki, FAO hozirda axborot tarmog‘i sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda. FAO xodimlari, shu jumladan agronomlar, o‘rmon xo‘jaligi, baliqchilik va qishloq xo‘jaligi mutaxassislari, ovqatlanish bo‘yicha mutaxassislar, sotsiologlar va iqtisodchilar, rivojlanish maqsadlariga erishishga yordam beradigan ma’lumotlarni to‘playdi, tahlil qiladi va tarqatadi. FAO a’zo mamlakatlar bilan agrar siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish, qishloq xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha milliy strategiyani ishlab chiqish, qo‘llab-quvvatlash, rejorashtirish va tayyorlash borasidagi tajribasi bilan o‘rtoqlashadi.

2014 yilning 4-6 iyun kunlari FAO Bosh direktori Joze Grasiano da Silva O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurdi. Tashrif davomida 2014-yil 5-iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi hukumati va Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) o‘rtasida FAO vakolatxonasini O‘zbekiston Respublikasida tashkil yetish to‘g‘risida bitim imzolandi. Shartnomaga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi hukumati FAO vakolatxonasini O‘zbekiston Respublikasiga (keyingi o‘rinlarda FAO vakolatxonasi deb yuritiladi) joylashtiradi va O‘zbekiston uni saqlash bilan bog‘liq xarajatlarni, shu jumladan FAO vakolatxonasining xodimlarini saqlash xarajatlarini moliyalashtiradi.

2014 yil 28 avgustda FAOning “O‘zbekiston uchun FAO Doiraviy hamkorlik dasturi” imzolandi. FAO tomonidan O‘zbekiston Respublikasiga ko‘rsatilayotgan yordam yo‘nalishlari 2014-2017 yillarda mo‘ljallangan dasturida belgilab olingan. Ular quyidagilardan iborat yedi:

¹ The state of the World’s animal genetic resources for food and agriculture. Commission on genetic resources for food and agriculture. Rome. 2016.27 January.

ekinlarni diversifikasiya qilish va ishlab chiqarishni takomillashtirish orqali ichki bozor va eksport uchun yuqori qiymatga yega bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotini ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish;

chigirtka va zararkunandalarga qarshi samarali vosita va tizimlarni joriy yetish, tabiatni muhofaza etishga yordam beruvchi qishloq xo‘jaligini hayotga tadbiq qilish;

chorvadorlik va parrandachilikning unumdorligini oshirish, chorva kasalliklarining oldini olish, asalarichilikni rivojlantirish orqali chorvaning brusellyoz va boshqa yuqumli kasalliklariga qarshi kurash;

milliy baliqchilikni rivojlantirish, unumdorligini oshirish;

tabiiy resurslarni unumli boshqarish, o‘rmon xo‘jaligini rivojlantirish, qishloq aholisining daromadini oshirishga yordamlashish, yer va suv resurslarini boshqarishda tajamkorona, takomillashgan texnologiyalarni qo‘llash, qurg‘oqchilik bilan bog‘liq bo‘lgan xavflarning oldini olish.

Shuni qayd qilish lozimki, O‘zbekiston o‘zining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashdan tashqari, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yeksport qilish orqali xorijiy davlatlarning oziq-ovqat ta ’minotiga ham munosib hissa qo‘shayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e’tirof etilmoqda. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining 2015 yil iyun oyida Italiyaning Rim shahrida bo‘lib o‘tgan 39-konferensiyasida Mingyllik rivojlanish maqsadlariga erishgan davlatlarni taqdirlash marosimida O‘zbekiston 14 ta davlat qatorida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda erishgan yutuqlari uchun maxsus mukofot bilan taqdirlandi.

Shu borada agrosanoat kompleksida olib borayotgan islohotlar, xususan, 2017-yil 10-oktabrda qabul qilingan “Fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer yegalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer yegalari faoliyatini yanada rivojlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari o‘z vaqtida va sifatli bajarilishiga, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda yekin maydonlaridan oqilona foydalanilishini ta ’minlashga

xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur qarorda belgilangan chora tadbirlarning amalga oshirishi mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha asosiy muammolarni hal qilishga imkon beradi.¹

FAO va O'zbekiston o'rtasida oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasida 2025 yilgacha hamkorlik to'g'risida bitim imzolandi. FAO va O'zbekiston o'rtasidagi 2021-2025 yillarga mo'ljallangan Mamlakat hadli dasturini rasmiy ishga tushirilishiga bag'ishlanib, ushbu dastur istiqbolda o'zaro hamkorlikni yanada kengayishiga turki bo'ladi va tegishli yo'l-yo'riqlarni belgilab beradi. Barqaror rivojlanish bo'yicha milliy ustuvor vazifalarga muvofiq FAO 2030 yilgacha bo'lgan davrda Barqaror rivojlanish bo'yicha kun tartibini amalga oshirish yuzasida hukumatni qo'llab-quvvatlash va qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining qiymat zanjiri bo'ylab oziq-ovqat tizimlarining barqarorligiga erishishga yordam berish majburiyatini olgan.²

FAO turli milliy tashkilotlar, xalqaro moliya institutlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tizimidagi boshqa tashkilotlar, Xalqaro qishloq xo'jaligi tadqiqotlari bo'yicha maslahat guruhi (CGIAR) va mintaqaviy tashkilotlar bilan ma'lumot va ma'lumot almashishda sheriklik aloqalarini olib boradi. FAO, BMT statistika bo'limini qo'llab-quvvatlash orqali statistikada xalqaro standartlarni belgilashda muhim rol o'ynaydi.

FAO qishloq xo'jaligiga oid 2015 yil hisoboti, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligining holati to'g'risidagi hisobot, baliqchilik va akvakultura holati to'g'risidagi hisobot kabi umumiylis hisobotlar ustida ishlashni davom ettirmoqda. Jahon o'rmon xo'jaligining holati va Oziq-ovqat mahsulotlari to'g'risida hisobot". FAO umumiylis hisobotlar bilan bir qatorda aniq va doimiy ravishda yangilanib turadigan ma'lumotlarga asoslangan holda qishloq xo'jaligining ayrim tarmoqlarini

¹ 2017-yil 10-oktabrda qabul qilingan "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yana-da rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori <https://lex.uz/docs/3372977>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 15.12.2020 йилдаги ПҚ-4922-сон "БМТ Озиқ-овқат ва кишлөк хўжалиги ташкiloti, БМТ Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш халқаро жамғармаси ҳамда БМТ Бутунжаҳон озиқ-овқат дастури билан ҳамкорлигини кенгайтириш ва чукурлаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ти қарори. <https://lex.uz/docs/5164680>

va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni tahlil qilish va baholash bo‘yicha ixtisoslashtirilgan tadqiqotlarni tayyorlaydi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, baliqchilik (baliq mahsulotlari) FAO faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, bu haqida to‘liq ma’lumotni professor K.A.Bekyashevning asarlarida batafsil aks etirilganligini ko‘rishmiz mumkin.¹ Bu imte’mol qilinadigan baliq maxsuloti o‘zida eng ko‘p oqsilining qariyb, 16% qamrab olgan. Biroq baliq resurslarining kamayishi, atrof-muhitning yomonlashishi va boshqa muammolar ushbu manbani xavf ostiga solib qo‘yayotganligi achinarli holat.² Ammo, FAOning mas’uliyatli baliq oviga oid xalqaro axloq kodeksida baliq zaxiralaridan oqilona foydalanish tamoyillari ro‘yxati mavjud. Tashkilot davlatlar va baliq ovlash jamiyatlariga ushbu Kodeks qoidalariiga rioya qilishdagi kuzatuvlarni amalga oshirishda yordam beradi.

FAO funksiyalari bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish uchun konferentsiyada qo‘mitalar, komissiyalar, ishchi guruhlar tuzilishi mumkin. Shuningdek, u boshqa xalqaro tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish huquqiga ega. Konferensiya FAOning boshqa organlari tomonidan o‘z vakolatlari doirasida imzolangan shartnomalarni tasdiqlash huquqiga ega.

Konferensianing rezolyutsiyalaridagi tavsiyalar majburiy harakterga ega emas. Biroq, professor K.A.Bekyashevning fikricha, “Konferensiya rezolyutsiyalari, agar ular FAO Ustavining umumiyligi qoidalari doirasida qabul qilinsa va zamonaviy xalqaro huquqqa zid kelmasa, davlatlar uchun majburiy bo‘lishi mumkin” degan ilmiy nazariy qarashni ilgari surgan. Shu bilan birga, olim yana bir izoh beradi: ushbu rezolyutsiyalar davlatlararo bitimning o‘ziga xos shakli bo‘lib, davlatlar uchun majburiy bo‘lib, faqat ular Konferentsiyada belgilangan muddatda qabul qilingan yoki rad etilmagan taqdirdagina qabul qilinadi.³

Kengashga a’zo har bir davlat bitta vakilga ega va faqat bitta ovozga ega. Kengashning har bir a’zosi o‘z vakilining o‘rinbosarlarini, yordamchilarini va

¹ Бекяшев К.Л. Морское рыболовное право. М, 2007.

² The state of World fisheries and aquaculture. 2006. FAO. Rome. 2007.

³ Бекяшев К.А. ФАО и правовые вопросы охраны живых ресурсов открытого моря. М., 1976. С. 16-17.

maslahatchilarini tayinlashi mumkin. Kengash ko'rsatilgan shaxslarning uning ishida ishtirok etish shartlarini belgilashi mumkin, ammo ular ishtirok etishning har qanday shaklida ovoz berish huquqiga ega emaslar, faqat ulardan biri bevosita vakilni almashtirgan hollar bundan mustasno. Ikkinchisi Kengashning bittadan ortiq a'zosi bo'la olmaydi. Vakillar Kengashida vakolat muddati va boshqa xizmat shartlari FAO konferentsiyasi tomonidan belgilangan qoidalar bilan belgilanadi.

3.2-§. O'zbekistonning FAO bilan o'zaro xamkorlik yo'nalishlari va uning istiqbollari.

Ma'lumki, 2022 yilning 16 sentyabirida O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shanxay hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlar rahbarlari sammitidagi nutqi davomida bir qator tashabbuslarni ilgari surdi. Ushbu Sammitda yangi iqtisodiy muloqotini boshlashni, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning umumiy tamoyillari va yondashuvlarini ishlab chiqish chiqish kerakligini taklif qildi.

Shuningdek, davlat rahbarimizning, "Yana bir muhim masalaga e'tiboringizni qaratmoqchiman. Shuni tan olish kerakki, mamlakatlarimiz qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining yirik ishlab chiqaruvchilari, eksport va import qiluvchilari bo'lishiga qaramasdan, SHHT maydonchasida oziq-ovqat xavfsizligi masalalari bo'yicha hali jiddiy hamjihatlikni yo'lga qo'ya olmadik. Davlatlarimiz salohiyati ichki bozorlarni boshoqli ekinlar, chorvachilik va meva-sabzavot mahsulotlari, asosiy oziq-ovqat turlari hamda zarur o'g'itlar bilan muntazam ta'minlash imkonini beradi. Bundan tashqari, biz ushbu muammoni global darajada hal qilishga hissa qo'shishimiz kerak", — deb keltirgan fikrlari hozirgi kunnning dolzarb masalalaridan biri ekanligi barchamizga ma'llum.

Bundan tashqari, yuqori sifatli va arzon oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berish uchun samarali logistika, "yashil" va ekspress-yo'laklarni tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi ta'kidlandi.

Prezidentimiz tomonidan kelgusi yili oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha xalqaro konferensiya o'tkazish taklif etilganligi ham aynan bugungi pandemiya davrida

muhim ekanligini yana bir isboti ekanligini ko‘rishimiz mumkin. “**Biz birqalikda mintaqaviy va global xavfsizlikni ta’minlash yo‘lida tashkilotni yangi marralarga olib chiqishga qodirmiz**»¹ deb ta’kidlagan takliflari ham bejizga emas.

Budan tashqari O‘zbekistonning BMT Bosh kotibi 2021 yilning kuzida Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga erishish bo‘yicha o‘n yillik harakatlar doirasida oziq-ovqat tizimlari bo‘yicha navbatdagi sammiti bo‘lib o‘tgan sammiti ham aynan bizning mamlakat bilan bo‘layotgan xalqaro hamkorliklarning doimiy ekanligini ko‘rsatib turibti. Sammitning maqsadi sa’y-harakatlarni o‘zaro birlashtirish va ochlikka barham berish, yanada inklyuziv va barqaror oziq-ovqat tizimlarini yaratish ishlarini jadallashtirishdan iborat bo‘lib, quydagi maqsadlarni qamrab olgan:

- to‘yimli oziq-ovqat mahsulotlariga ega bo‘lish imkoniyatini ta’minlash,
- ishlab chiqarish va iste’molning barqaror modellariga o‘tish,

-tabiiy resurslardan ehtiyyotkorlik bilan foydalanish hamda qishloq xo‘jaligining inqiroz va zarbalarga chidamlilagini oshirish maqsadlari muhokama etilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vazirining maslahatchisi, shuningdek, BMTning Oziq-ovqat tizimlari bo‘yicha sammiti arafasida milliy muloqotlarning tashkilotchisi bo‘lgan Alisher Shukurov tadbirda O‘zbekiston tomonidan ishtirok etib. U o‘z nutqida quyidagilarni ta’kidladi: "O‘zbekistonda o‘tkazilgan milliy muloqotlar, shu jumladan, viloyatlarda o‘tkazilgan submilliy muloqotlar munozaralar, hamkorlik, konsensus yaratish va umumiylajburiyatlarini bajarish uchun imkoniyatlar yaratganligi haqida, shuningdek, O‘zbekiston SHHT va FAO a’zolari bilan o‘z tajribasini o‘rtoqlashishga tayyorligini ma’lum qiqilishini ham o‘z ishtiroki davomida ma’lum qilganligi ham O‘zbekistonning jahon arenasida oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo‘jaligi sohasida xalqaro hamkorlik munosabatlariga tayyor ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

FAOning tarkibida sakkizta muhim qomitalar mavjud bo‘lib ular barcha davlatlar uchun bir paytda ochiq va tavsiyaviy xarakterga ega: Qishloq xo‘jaligi va

¹ Shavkat Mirziyoyev — SHHT sammiti ishtirokchilariga: “Birgalikda tashkilotni yangi marralarga olib chiqishga qodirmiz” <https://www.gazeta.uz/uz/2022/09/16/sco/>

iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qomitasi; Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish qomitasi; Baliq ovlash va akvakultura qomitasi; O'rmon xo'jaligi qomitasi; Korporativ xizmatlar qomitasi, Kadrlar qomitasi, Moliya qo'mitasi; Tabiiy resurslar va atrof-muhitni boshqarish qomitasi; va Texnik hamkorlik qomitasi.¹

Baliqchilik qo'mitasi bilan O'zbekistoninig hamkorlik maqsadlari ikkita asosiy vazifasi baliqchilik va suv xo'jaligi ishlarining dasturlarini ko'rib chiqish va ularga rahbarlik qilish, shuningdek global baliqchilik muammosi bo'yicha mamlakatlar, hukumatlararo organlar va fuqarolik jamiyatlariga kerakli tavsiyalar berishdir. Baliqchilik qomitasi shuningdek, aniqlangan baliqchilik va akvakultura muammolarini hal qilish uchun global kelishuvlar va majburiy bo'lмаган hujjatlarni muhokama qilish forumidir. Baliqchilik qomitasi, shuningdek, baliq savdosi va akvakulturani boshqarish bo'yicha ikkita kichik qo'mitasining tavsiyalarini ko'rib chiqadi va qaror qiladi.²

O'rmon xo'jaligi qo'mitasi bilan hamkorlik maqsadlari: FAOning barcha a'zo davlatlari uchun ochiq bo'lган FAO o'rmon xo'jaligi bo'yicha eng yuqori ustav organidir. O'rmon xo'jaligi qo'mitasi ishida turli xil manfaatdor tomonlar, shu jumladan xalqaro tashkilotlar va nodavlat sheriklar ishtirok etishi mumkin.

O'zbekiston bilan Qo'mitaning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- a) boshqa manfaatdor tomonlar va tashkilot tomonidan kelishilgan harakatlar uchun tavsiyalar berish maqsadida xalqaro / global xarakterdagi o'rmon xo'jaligi muammolarini davriy ko'rib chiqish;
- b) tashkilotning o'rmon xo'jaligi sohasidagi ish dasturlarini ko'rib chiqish va ularni amalga oshirish uchun ko'rsatma berish.

O'rmon xo'jaligi qo'mitasi bilan hamkorlik maqsadlari: FAOning oltita mintaqaviy o'rmon xo'jaligi komissiyalari (Afrika, Osiyo Tinch okeani, Yevropa,

¹ The Food and Agriculture Organization (FAO) is a specialized agency of the United Nations that leads international efforts to defeat hunger. Our goal is to achieve food security for all and make sure that people have regular access to enough high-quality food to lead active, healthy lives. With 195 members - 194 countries and the European Union, FAO works in over 130 countries worldwide. <https://www.fao.org/about/en/>

² Food and Agriculture Organization (FAO) High-level Political Forum 2018, Summary of recommendations from FAO intergovernmental Technical and Governing bodies.FAO. 2018 y. https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/18425FAO_inputs_2018_HLPF.pdf

Lotin Amerikasi va Karib dengizi, Yaqin Sharq, Shimoliy Amerika) bilan yaqindan hamkorlik qiladi, ular global siyosat masalalari bo‘yicha mintaqaviy muloqot uchun platforma bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida, komissiyalar Qo‘mita kun tartibi va FAO dasturning ustuvor yonalishlari bo‘yicha tavsiyalar beradi.

Qishloq xo‘jaligi qo‘mitasi bilan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining (FAO) asosiy texnik maslahat organi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, chorvachilik, oziq-ovqat xavfsizligi, ovqatlanish, qishloq joylarini rivojlantirish va tabiiy resurslar bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha umumiy siyosat va me’yoriy ko‘rsatmalar beradi. Fikrimizni isboti tariqasida 2018 yil Qishloq xo‘jaligi qo‘mitasi har doim FAOni boshqarishda muhim rol o‘ynab kelyapti va FAOga a’zo mamlakatlarga 2030 yilga qadar kun tartibida ishlab chiqarishni (SDG) ya’ani, barqaror rivojlanish maqsadlarini intensivlashtirish va barqaror iste’mol (SDG-12),¹ oilaviy fermerlik (SDG -1), yerlarning tanazzulga uchrashi va biologik xilmayillikni yoqotishi (SDG -15), gender tenglik (SDG 5), oziq-ovqat xavfsizligi va yaxshilangan ovqatlanish (SDG -2), oziq-ovqat yoqotilishi va chiqindilarni kamaytirish (SDG -12), transchegaraviy zararkunandalar va kasalliklar, iqlim o‘zgarishi (SDG -13), qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliq xo‘jaligining barqaror boshqaruvi va integratsiyasi (SDG -15) va boshqa ko‘plab masalalar bo‘yicha strategik yordamlar va tavsiyalar berib kelmoqda.²

FAO Tovar muammolari bo‘yicha qo‘mitasining vakolati ishlab chiqarish, savdo, tarqatish, iste’mol va shu bilan bog‘liq iqtisodiy masalalarga ta’sir qiluvchi xalqaro xarakterdagi tovar muammolarini ko‘rib chiqadi va jahon tovar konsentratsiyasini aniq va talqin qiluvchi so‘rovnoma tayyorlaydi va a’zolarga taqdim etadi. Tovar muammolari bo‘yicha qo‘mita shuningdek, uning muhokamasidan kelib chiqadigan masalalar bo‘yicha tavsiyalar beradi.

¹ SDG full name-Sustainable development goals. Food and Agriculture Organization (FAO). High-level Political Forum 2018. Summary of recommendations from FAO intergovernmental Technical and Governing bodies.

https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/18425FAO_inputs_2018_HLPF.pdf

² Food and Agriculture Organization (FAO) High-level Political Forum 2018, Summary of recommendations from FAO intergovernmental Technical and Governing bodies.FAO. 2018 y.

https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/18425FAO_inputs_2018_HLPF.pdf

FAO Iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish qomitasi oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq yangi muammolar tendentsiyalarani tahlil qiladi. Turli xil statistik ma’lumotlarga yega FAOga a’zo mamlakatlarni so‘ngi global oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligida o‘zgarishlardan xabardor qilish uchun ma’lumotlar bazalari umumlashtiradi. Muntazam ravishda mamlakatga tegishli baholarni o‘tkazib, qomita xalqaro hamjamiyatni yaqinlashib kelayotgan oziq-ovqat inqirozi to‘g‘risida ogohlantiradi va strategik siyosat ishlab chiqaruvchilarga qimmatli maslahatlar va yordam beradi .

FAO ning tarkibidagi yana bir muhim tuzilma - Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi uchun genetik resurslar bo‘yicha komissiyadir. Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi uchun genetik resurslar bo‘yicha komissiya - bu oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligiga tegishli bo‘lgan bioxilma-xillikning barcha tarkibiy qismlariga alohida etibor qaratadigan yagona hukumatlararo organ. Komissiya oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi uchun genetik resurslarning yoqolishini to‘xtatishga, ularni saqlash, barqaror foydalanishga, shu jumladan almashinuvga va ulardan foydalanish natijasida kelib chiqadigan foydalarni adolatli va teng taqsimlashga ko‘maklashish orqali dunyo oziq-ovqat xavfsizligi va barqaror rivojlanishni ta’minalashga intiladi.

Shuningdek, u genetik resurslarni saqlash va ulardan foydalanishni ta’minalash maqsadida iqlim o‘zgarishi, biotexnologiyalar, foydalanish va foyda baham ko‘rish, ovqatlanish va sog‘liq kabi o‘zaro bog‘liq mavzularga urg‘u qaratadi. Bunday islohotlar, albatta, FAOning dasturiy hujjatlarida o‘z aksini topish kerak, ular a’zo mamlakatlar manfaatlariga xizmat qiladi.

Umuman olganda, FAO faoliyatining samaradorligini oshirish uchun uning i sh tartibini modernizatsiya qilish va tartibga solish bo‘yicha chora tadbirlar ko‘rish zarur. Bunday chora tadbirlar moliyaviy resurslarni taqsimlashda, monitoring va baholash tizimini mustahkamlashda yanada moslashuvchan yondashuvlar bilan bir ga olib borilishi kerak. Ushbu maqsadlarga erishish uchun tashkilotni isloh qilish bo‘yicha takliflar to‘plamiga FAO biznes jarayonlarini qayta tashkil etish bo‘yicha quyidagi muhim elementlar kiritilgan:

-tashkilotning siyosiy hujjatlari FAOning asosiy faoliyatini yanada aniqroq aks ettirish uchun qayta ko‘rib chiqilishi va qayta ishlab chiqilishi kerak. Ular bir-birini to‘ldiruvchi faoliyatni birlashtirishi kerak. Moliyaviy oqimlar ustuvor dasturlar foydasiga qayta taqsimlanishi kerak. FAO boshqa ixtisoslashgan idoralar ko‘proq vakolatli va samaraliroq bo‘lgan faoliyatdan voz kechishi kerak;

-FAOning bilimlarni tarqatishga ixtisoslashgan tashkilot sifatidagi rolini va mamlakatlarga zarur salohiyatni yaratishga yordam berishini alohida ta’kidlash lozim:

-FAOning global siyosati qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog‘liq ishning ustuvor yo‘nalishlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga qaratilishi kerak. FAO resurslari qishloq xo‘jaligi sektoriga yordam berish uchun milliy va xalqaro manbalardan ko‘proq muhim moliyaviy resurslarni jalg qilishga qaratilgan faoliyatni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilishi kerak;

-FAOning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste’mol qilish, chorvachilik, baliqchilik va o‘rmon xo‘jaligidagi asosiy tahdidlarning oldini olish va ularga qarshi kurashishda mamlakatlarga yordam berishga qaratilgan sa’y-harakatlarni muvofiqlashtirish jarayonida ahamiyatini kuchaytirish zarur. Natijada, resurslarni tiklash va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining mahsulorligini oshirish dasturlari paydo bo‘lishi kerak;

-FAO barcha turdagи alyanslarni mustahkamlash, sheriklik munosabatlarini chuqurlashtirish va FAO va shunga o‘xhash va o‘xhash maqsadlarga erishish yo‘lida ishlaydigan boshqa institutlar, xususan, BMT tizimining ixtisoslashgan tashkilotlari bo‘lgan sub’ektlar o‘rtasidagi sinergiyani rivojlantirishda yanada muhim rol o‘ynashi kerak;

FAO barcha turdagи alyanslarni mustahkamlash, sheriklik munosabatlarini chuqurlashtirish va FAO va shunga o‘xhash va o‘xhash maqsadlarga erishish yo‘lida ishlaydigan boshqa institutlar, xususan, BMT tizimining ixtisoslashgan

tashkilotlari bo‘lgan sub’ektlar o‘rtasidagi sinergiyani rivojlantirishda yanada muhim rol o‘ynashi kerak;¹

Joriy yilning 6-7 fevral kunlari Qatarning Doha shahrida bo‘lib o‘tgan “Inson huquqlari nuqtai nazarida oziq-ovqat havfsizligini oziq-ovqat adolati tushunchasi bilan xalaro konfrensiyada talqin etildi.: ushbu konfrensiya, voqelik va kelajak muammolari” mavzusidagi muammolar atrofida so‘z yuritildi. Xalqaro anjumanda ishtirok etgan mamlakatimiz delegatsiyasi rahbari O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikerining birinchi o‘rinbosari, Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi direktori Akmal Saidov o‘z qarashlarini bayon etdi. O‘zbekistonlik xalqaro huquqshunos olimning ilmiy qarashlariga ko‘ra: “So‘nggi yillarda BMT va uning tegishli tuzilmalari sayyoramiz miqyosida oziq-ovqat taqchilligi yuzaga kelishidan ogohlantirmoqda va bunga har xil noxush omillar sabab bo‘layotgani haqida tashvishli xulosalar berilayotganini, hamda, BMT hisobotiga qaraganda, 2020 yili jahoning 55 mamlakati va mintaqasida kamida 155 million kishi turli mojarolar, iqlim o‘zgarishi hamda koronavirus pandemiyasi oqibatida kelib chiqqan iqtisodiy inqirozlar natijasida kuchli ochlik holatiga tushib qolganligi haqida to’htalib o’tdi.² Haqiqatdan ham, agar solishtirsak bu ko‘rsatkich 2019 yilga nisbatan deyarli 20 million kishiga ko‘pdir.

Oradan ikki yil o‘tib, ya’ni 2022 yilda esa global ko‘lamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari narxi oshishi sababli oziq-ovqat sotib ololmaslik muammosi paydo bo‘lgan. O‘z navbatida, 2023 yilda sayyoramiz aholisini oziq-ovqat bilan ta’minalash borasidagi vaziyat yanada qaltislashdi.

Bunday salbiy holatlar yuzaga kelishiga dunyoning turli hududlaridagi notinch vaziyat, buning oqibatida o‘g‘itlar eksportining pasayishi va bir vaqtning o‘zida ushbu turdagи mahsulot narxining oshishi, ana shu omillarning fermerlar faoliyatiga to‘sinqlik qilishi asosiy sabablar sifatida ko‘rsatilmoqda. Qolaversa, suv toshqini, qurg‘oqchilik kabi nobop ob-havo hodisalari ham oziq-ovqat ta’motiga salbiy ta’sir ko‘rsatib qolmaydi.

¹ Герчикова ИМ. Международные экономические организации:

² <http://insonhuquqlari.uz/uz/news/m12506>

Tarixga yana bir karra nazar solsak, 1945 yili tuzilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) dastlabki sessiyasidayoq o‘zining ixtisoslashgan muassasasi hisoblanuvchi Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti, ya’ni FAOni ta’sis etganligi ushbu sohaga usha davrdan alohida e’tibor qaratilganligini ko’rishimiz mumkin.

Joriy yilda BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti tuzilganiga 79 yil to‘lmoqda. O‘tgan uzoq sinovlar davrida FAO xalqaro hamjamiyatning ishonchini oqladi, desak, yanglishmaymiz. Chunki ushbu ixtisoslashgan tashkilotning 195 a’zosi 194 ta mamlakat va Yevropa Ittifoqi davlatlari hamda FAO ish olib borayotgan 130 dan ziyod mamlakatning faol ishtirokida jahon aholisi uchun oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash hamda har bir insonning muntazam ravishda sifatli ovqatlanishini kafolatlash yo‘lida muhim amaliy qadamlar qo‘yildi.

O‘z navbatida, XXI asr ham insoniyat boshiga urush qirg‘inbarotlaridan kam bo‘lмаган halokatli ofatlarni ketma-ket yog‘dirmoqda. Shulardan biri COVID-19 pandemiyasi bo‘lib, bu shafqatsiz balo oqibatida sayyoramizdagи och va muhtoj kishilarning soni millionlab nafarga keskin ortdi. Qanchadan-qancha odamlar ishsiz va ta’minotsiz qoldi, yoshlarning ko‘pchiligi nafaqat ta’lim olish, balki shunchaki qorin to‘qlash imkonidan ham mahrum bo‘ldi.

Qaqshatqich urushlardan kam bo‘lмаган ko‘lamda xatarli ana shu global ofat tufayli birgina oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va ularni taqsimlash tizimining o‘zida millionlab xodimlar ishsiz qolgan og‘ir sharoitda FAO faoliyatining nechog‘lik muhimligi yana bir bor yaqqol namoyon bo‘ldi. Endilikda mazkur xalqaro tashkilot jahon hamjamiyati oldida turgan yangi va dolzarb muammolar:

ochlarni ovqatlantirish;

boshqa barcha insonlarning oziq-ovqati sifatini yaxshilash;

-sog‘lom taomlanish madaniyatini oshirish;

-oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash;

-bunda isrofgarchiliklarning oldini olish;

-hayvonot va nabotot dunyosining yo‘qolib borayotgan noyob turlarini asrab qolish;

- qishloq xo‘jaligi sohasida atrof-muhitga ziyon yetkazmaydigan va unumdar hosildorlik faoliyatini rivojlantirish;
- “yashil iqtisodiyot”ni tatbiq etish kabi masalalarni hal etish bilan astoydil shug‘ullanmoqda.

Bu haqda fikr yuritganda, FAOning «Raqamli 1000 ta qishloq» tashabbusi sharofati bilan sayyoramizning bir qator qishloq joylarida turmush sifati yaxshilanib, yangi davr talablari darajasiga moslashayotganini qayd etish lozim. Ayni tashabbus mamlakatimiz qishloqlarida ham keng yoyilayotgani tufayli hamyurtlarimiz yilning issiq va qurg‘oqchil faslida ham zamonaviy texnika-texnologiyalar ko‘magida qishloq xo‘jaligi ekinlaridan salmoqli hosil olayotganiga hayotiy misollar bisyor.

Eng asosiysi, koronavirus ofati va uning oqibatida yuzaga kelgan butunjahon iqtisodiy bo‘roni avvalboshda dunyo jamoatchiligin katta tashvish va xavotirga solib qo‘ygandi. Shuningdek, ushbu sohani keng aholi soni o’rtasida o’ragnish maqsadida ijtimoiy online so’rovnama o’tkaganimizda ham, bu yo’nalishda aholining huquqiy savodhonligini oshirishimiz kerakligi va inson huquqlarining alohida bir ijtimoiy huquq sohasi ekanligini chunib yetshlari hamda oziq-ovqat mahsulotlariniadolatli is’temol qilish kerakligi muhim ahamiyatga ega ekanligini bildik. So’rovnama natijalari 2-ilovamizda o’z aksini topgan.

So‘nggi o‘n yillarda “yashil inqilob” va innovation texnologiyalarning keng joriy etilishi hisobiga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi keskin oshayotganiligin ham kuzatishimiz mukin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti aytganlaridek, “tobora ko‘payib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta’minlashda sezilarli yutuqlarga erishildi”.

O‘rta asrlarda yashab o‘tgan ulug‘ alloma va tabib bobomiz Abu Ali ibn Sino o‘z davrida “Kimki uzoq va sog‘lom hayot kechirishni istasa, avvalo, ovqatning sifati va miqdoriga e’tibor qaratsin”, deb ta’kidlaganlar. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev FAO texnik ko‘magida 2023 yil 7-8 sentyabr kunlari Samarqandda o’tkazilgan Oziq-ovqat xavfsizligi bo‘yicha xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigida Ibn Sino hazratlarining ayni shu hikmatli so‘zlariga murojaat qilgani beziz emas.

Oradan yuz va ming yillar o‘tganiga qaramay, oziq-ovqat xavfsizligi, uni barqaror yetkazish, ochlik va qashshoqlikka qarshi kurashish masalalari bugun ham insoniyat uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda. Koronavirus pandemiyasi, jahon siyosati va iqtisodiyotidagi inqirozlar esa, albatta, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish tizimida zanjirlarning uzilishi va narxlar oshishi misolida bu boradagi ahvolning yanada qaltislashishiga olib keldi.

O‘zbekiston Prezidenti bundan ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar jabr ko‘rayotganiga e’tiborni qaratdi. Davlatimiz rahbarining fikricha, “Global iqlim o‘zgarishlari, qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tizimiga investisiya hajmi kamayishi vaziyatni yanada og‘irlashtirmoqda. Bu esa Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni xavf ostida qoldirmoqda”. Yanada muhimi, Prezidentimiz Samarqand forumiga yo‘llagan tabrigida “dunyo aholisi o‘rtasida sog‘lom ovqatlanish madaniyatini shakllantirish – uzoq davom etadigan jarayon” ekanligini e’tirof etgan holda, bu borada bir qator yangi tashabbus va g‘oyalarni ilgari surdi.

Birinchidan, “Hozirgi vaqtida qishloq xo‘jaligi ekinlarining serhosil, tashqi ta’sirlarga chidamli navlarini yaratish, chorva naslini yaxshilash o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Fermerlar va kichik ishlab chiqaruvchilar uchun axborot-konsalting markazlarini tashkil etish, ularni resurs tejaydigan ilg‘or texnologiya va usullar bo‘yicha o‘qitish uchun agro-konsalting xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash ham dolzarb bo‘lib bormoqda”.

Ikkinchidan, “Zamonaviy texnologiyalar va qishloq xo‘jaligi texnikasi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardagi fermerlar uchun bir xilda ochiq va hamyonbop bo‘lishi kerak. Biz xalqaro moliya institutlarini ushbu masalaga alohida e’tibor qaratib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining “yashil texnologiyalar”dan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha aniq amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishga chaqiramiz”.

Uchinchidan, “Biz eng zarur mahsulotlar savdosi va transportirovkasida to‘liq erkinlik hamda oziq-ovqat yuklari harakatini tartibga soladigan qoidalarni soddalashtirish tarafдоримиз. Savdo yo‘llari xavfsizligi va ochiqligini ta’minlash davlatlararo munosabatlarda o‘zgarmas tamoyil bo‘lib qolishi zarur”.

Samarqand konferensiyasi davomida ana shu yangi tashabbuslar yuzasidan atroflicha fikr almashildi va global miqyosda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiladigan muhim masalalar yechimlari bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi. Forum yakunida qabul qilingan Global oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risidagi Samarqand deklaratsiyasi O‘zbekiston hukumati tomonidan xalqaro anjumanda erishilgan kelishuvlarni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Darvoqe, bu o‘rinda Prezidentimiz 2022 yili qadimiylari va navqiron Samarqand shahri mezbonlik qilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti davlat rahbarlari kengashining majlisida bugungi kunda dunyo miqyosida global ahamiyat kasb etayotgan oziq-ovqat xavfsizligi masalasiga alohida e’tibor qaratib, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning umumiy tamoyillari va yondashuvlarini ishlab chiqish zarurligini haqida ta’kidlaganlari ham bu jabhada doimiy rivojlanishda davom etishimizni ko’rsatadi.

Bundan tashqari joriy yilda Dohada bo’lib o’tkan, Doha xalqaro konferensiyasida ham butun dunyo bo‘ylab 300 dan ortiq hukumat va nohukumat tashkilot vakillari ishtirok etkanligi so’zimizning yana bir isboti sifatida ko’rishimiz mumkin.

Konferensiya Qatar davlatining Inson huquqlari bo‘yicha milliy qo‘mitasi raisi Maryam bint Abdullah al-Attiyax, BMT Inson huquqlari bo‘yicha oliv komissari o‘rinbosari Nada al-Nashif, Arab davlatlari ligasi bosh kotibi Xaifa Abu Gazalex, BMT Oziq-ovqat huquqi bo‘yicha maxsus ma’ruzachisi Maykl Faxri, Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi bosh kotibi Jassim Bin Mohammed al-Budaivi so‘zga chiqdi. So‘zga chiqqan ushbu sohaning mutaxxasislarining fikrlariga ko’ra:

birinchidan, global oziq-ovqat inqirozini inson huquqlari nuqtai nazaridan tushunishga tizimli munosabatni shakllantirish maqsadida xalqaro va milliy darajada oziq-ovqatga bo‘lgan huquqni amalga oshirish bilan bog‘liq qonunchilik, siyosat, strategiyalar va dasturlarni ko‘rib chiqish;

ikkinchidan, hukumatlar va xalqaro kompaniyalarni oziq-ovqatga bo‘lgan huquqni ro‘yobga chiqarish uchun inson huquqlariga asoslangan yondashuv bilan ishslashga undaydigan mexanizmlar va vositalarni taklif qilish;

uchinchidan, barcha odamlarga boshqariladigan va samarali qoidalarga muvofiq yil davomida xavfsiz, to‘yimli va yetarli oziq-ovqatdan foydalanish imkoniyatini berish;

to‘rtinchidan, manfaatdor tomonlarning bu boradagi o‘z majburiyatlariga qay darajada sodiqligini nazorat qilish salohiyatini kuchaytirish hamda ular o‘rtasida o‘zaro muloqot va hamkorlik rejasini ishlab chiqish masalalari bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalari va takliflarini bayon qildi.

Va eng asosiysi, ishtrokchi davlatalar ushbu Xalqaro Forumning yakunida Oziq-ovqat adolati bo‘yicha Doha deklaratsiyasi qabul qilindi.

Ushbu konferensiya global liderlar, ekspertlar va faollar uchun kuchlarni birlashtirish va oziq-ovqat adolati va xavfsizligining ko‘p qirrali muammolarini hal qilish uchun muhim muloqot maydonini taqdim etdi. U jahon oziq-ovqat tizimidagi ochlik, to‘yib ovqatlanmaslik va tengsizlik kabi dolzarb muammolarni hal qilish bo‘yicha o‘zaro fikr, tajriba va innovation strategiyalar almashish imkonini berdi.

Xalqaro konferensiyada bugungi dunyomizning iqtisodiy va ijtimoiy tengsizlik, uyushgan zo‘ravonlik, qurolli mojarolar va ekologik muammolar kabi oziq-ovqat xavfsizligining asosiy muammolarini hal qilishga alohida e’tibor qaratildi. Bunday yondashuv har bir insonni yetarli, arzon va sifatli oziq-ovqat bilan ta’minlash imkoniyatini beradigan tinch, barqaror va adolatlil global oziq-ovqat tizimlarini yaratish muhimligining o‘ziga xos tasdig‘i bo‘ldi.

Bundan tashqari, Dohada konferensiyasiga mezbonlik qilish Qatarning asosiy inson huquqlari, jumladan, oziq-ovqat huquqini ta’minlash bo‘yicha global sa’y-harakatlarga hissa qo‘sish majburiyatiga sodiqligini yana bir bor amalda isbotladi. Mazkur Forum butun dunyoda dolzarb tus olgan oziq-ovqat siyosati va amaliyotida barqaror o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun zarur xalqaro hamkorlikni rivojlantirish borasida o‘zaro fikr almashish imkonini bergani bilan g‘oyat ahamiyatlidir.

Shuni ham ta'kidlash joizki, Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Milliy markazining oziq-ovqatga bo'lgan huquqni ta'minlashdagi roli ko'p qirralidir. Milliy markaz jamiyatning barcha darajalarida ushbu huquq hurmat qilinishi, himoya etilishi va ta'minlanishi uchun turli sektorlar bilan hamkorlik qiladi. Hukumatning bu sohadagi sa'y-harakatlarini monitoring qilish, aholi xabardorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligi masalasida eng zaif qatlamlar manfaatlarini himoya qilish, o'z navbatida, mamlakatimizda har bir fuqaroni to'yimli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ishonchli ta'minlaydigan samarali tizimni yaratishga yordam beradi, deb hisoblayman.

O'zbekistonning Doha xalqaro konferensiyasida ishtirok etganligi – xalqimiz, davlatimiz, Prezidentimiz O'zbekistonda va butun dunyoda inson huquqlarini himoya qilish va har bir insonning oziq-ovqatga bo'lgan huquqi amalga oshirilishini ta'minlashga sodiq ekanidan yorqin dalolatdir.

3.3-§. FAO va O'zbekiston Respublikasining: IFAD (Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi) o'rtasidagi o'zaro hamkorligi.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish xalqaro jamg'armasi (IFAD) Birlashgan Millatlar Tashkilotining xalqaro va ixtisoslashtirilgan moliyaviy tashkiloti bo'lib, qarorgohi BMTning oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi sohasi markazi bo'lgan Rim shahrida joylashgan. IFAD asosan qishloq aholisining loyihibariga investisiya kiritish va kambag'al qishloq aholisiga ko'proq oziq-ovqat yetishtirish va sotish, daromadlarini oshirishga yo'nalishlar beradi. Shu orqali kambag'allikni qisqartirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ovqatlanishni yaxshilash va barqarorlikni mustahkamlashga ko'maklashadi.

1978 yildan beri IFAD rivojlanayotgan mamlakatlarga 410 milliondan ortiq odamni qashshoqlikdan xalos qilish imkoniyatini beruvchi loyihibar orqali grantlar

va past foizli kreditlar sifatida 15 milliard AQSH dollaridan ortiq sarmoya kiritib va shu orqali qishloq jamoalarini yaratishga yordam berib kelmoqda.¹

Shuningdek, IFAD xalqaro moliya instituti hisoblanib, u BMTning oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi markazi bo‘lgan Rimda joylashgan BMTning ixtisoslashgan agentligi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi 2011-yil 19-20-fevral kunlari Rimda bo‘lib o‘tgan IFAD boshqaruvchilar kengashining 34-sessiyasida ilk bor bizning davloptimiz rasman ushbu jamg‘armaning to‘laqonli a’zosiga aylangan.²

O‘zbekistonda IFAD jamg‘armasining hamkorlik asoslari qishloq xo‘jaligi sohasidagi kichik korxonalardan iborat ishlab chiqarish tizimlarini kengaytirish hisobiga qishloq aholisi daromadlarining barqaror o‘sishini ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbekistonda yanada ochiq va bozorga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi siyosat yo‘nalishi qishloq xo‘jalinining eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi ahamiyatiga, qishloq joylarni jonlantirish va dehqon (mayda dehqon) xo‘jaliklarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishga e’tiborni kuchaytirishni o‘z ichiga oladi.

O‘zbekiston aholisi hozirda barqaror sur’atlarda o‘sib bormoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining soo‘ngi ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning hozirgi aholisi soni 34 875 757 kishini tashkil qiladi. BMT 2022-yil 1-iyul holatiga ko‘ra aholi sonini 34 627 652 kishi deb hisoblaydi, ammo kelgusi bir necha o‘n yilliklarda bu ko‘rsatkich 2070 yilda 44,4 million kishiga yetguncha o‘sishi kutilmoqda. Asr oxiriga kelib, aholi soni taxminan 42,27 million kishini tashkil qiladi.³

O‘zbekiston hozirda yiliga 1,48 foiz o’smoqda. Aholining o‘sish sur’ati 2016 yildagi 1,66% dan 1,48% gacha kamaydi, bu tendentsiya 2070 yilgacha davom etishi kutilmoqda.

¹ IFAD and FAO combine their expertise for better management of projects in fragile states. <https://www.ifad.org/en/web/latest/-/news/ifad-and-fao-combine-their-expertise-for-better-management-of-projects-in-fragile-states>

² <https://www.ifad.org/en/web/operations/w/country/uzbekistan>

³ Uzbekistan population 2022 (live):. <https://worldpopulationreview.com/countries/uzbekistan-population>

Hozirgi kunda O‘zbekistonda tug‘ilish koyeffisiyenti har bir ayolga 2,43 tug‘ilishni, o‘rtacha yoshi esa 27,8 yoshni tashkil etadi, bu esa aholi sonining o‘sishini davom ettirish imkonini beradi. Hozirgi vaqtda tug‘ilish darajasi aholini almashtirish uchun etarlicha yuqori bo‘lsa-da, bu 1980 yilda tug‘ilish darajasi har bir ayolga 5,46 tug‘ilishni tashkil etganining yarmidan kam.¹

O‘zbekistonning 32,9 million aholisining 49,5 foizi qishloqlarda, shuningdek, kam ta’minlangan aholining 75 foizi istiqomat qiladi. Ularning deyarli uchdan ikki qismi qishloq xo‘jaligidan kun kechiradi. Qishloqlarda qashshoqlik darajasi astasekin kamayib, 2015 yilda 13,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa-da, u mintaqaviy o‘rtacha ko‘rsatkichdan yuqoriligicha qolmoqda.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasining statistik ma’lumotlariga ko‘ra 2017-yilda har bir kishi boshiga yalpi ichki mahsulot 1980 AQSH dollarini tashkil etgan O‘zbekiston past o‘rta daromadli mamlakatlar qatoridan joy olganligini keltirib o‘tgan.²

Kichik dehqon oilalari jiddiy muammolarga duch kelishmoqda, xususan, yer va sug‘orish suvidan foydalanish cheklangan. Ishlab chiqarish aktivlari, yaxshi infratuzilma, energiya, zamonaviy texnologiyalar va tabiiy ofatlar va iqlim o‘zgarishi muammolariga qarshi kurashish uchun bilimlarning yo‘qligi ham qishloq joylarda unumdorlikning pastligining asosini tashkil etadi.

Bunday holatlarini oldini olish halqaro tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik harakatlari orqali yengillashtirish mumkin. IFADning O‘zbekiston bilan hamkorlik harakatlarini ilk bor 2012-yildan buyon O‘zbekistonga o‘z loyihalari bilan ko‘maklashayotganida ko‘rishimiz mumkin. Yani: **dexon fermerlari, qishloq ayollari va yoshlariga alohida e’tibor qaratgan holda, kichik miqyosdagi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va qishloq tadbirkorlik tizimlari** orqali qishloq aholisining barqaror daromadlarini oshirishga yordam berib keladi.

¹ Uzbekistan population 2022 (live):. <https://worldpopulationreview.com/countries/uzbekistan-population>

² <https://www.ifad.org/en/w/member/uzbekistan>

https://www-ifad-org.translate.goog/en/web/operations/w/country/uzbekistan?_x_tr_sl=fy&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=wap

O‘zbekiston Respublikasi va IFAD Jamg‘armasining o‘zaro halqaro hamkorlik asoslarini ularning ikki tamonlama tuzilgan 1 ta davlat dasturi va 3 ta asosiy loyiha dasturlarida ko‘rishimiz mumkin. Jumladan:

1. 2017 yil uchun **O‘zbekiston Respublikasi 2017-2021 yillarga mo‘ljallangan strategik imkoniyatlar Davlat dasturi.**¹
2. 2019 yil uchun tuzilgan loyiha: **Qishloq taraqqiyoti, Sut mahsulotlari qo‘shilish zanjirini rivojlantirish dasturi.**²
3. 2020 yil uchun 2 ta yirik loyiha: **Kredit va moliyaviy xizmatlar: qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish va modernizatsiya qilish loyihasi.**³
4. 2021 yil uchun yana bir loyiha: **Bog‘dorchilikni qo‘llab-quvvatlash loyiha⁴ dasturi.**

Yuqorida keltirgan ikki tamonlama hamkorlik harakatlarining ijrosini o‘rganib chiqsak, 2017-yili jamg‘armaning Ijroiya kengashi “O‘zbekistonda 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan mamlakat yangi strategik dasturi”ni tasdiqlanishi ushbu dastur orqali qishloq xo‘jaligi tizimlarining yuqori qo‘silgan qiymatidan foydalanish uchun qishloq aholisining salohiyati va imkoniyatlarini oshirish, kichik fermer xo‘jaliklarining bozordagi ishtirokini ta’minlash maqsadida ularning ishlab chiqarish aktivlari va raqobatbardoshligini ko‘paytirish kabi vazifalarga qaratilgan.

Xalqaro tashkilotning ko‘rsatkichida, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligiga eng qaram bo‘lgan dunyodagi beshta davlatdan biri bo‘lib, bu soha yalpi ichki mahsulotning 35 foizini va bandlikning qariyb 40 foizini tashkil qiladi.

¹ Republic of Uzbekistan Country strategic opportunities programme 2017-2021. <https://www.ifad.org/en/-/document/country-strategic-opportunities-programme-2017-2021>

² Uzbekistan 1100001714: DVC DP Supervision Report October 2020

Project: Rural Development: Dairy Value Chains Development Program. <https://www.ifad.org/en/-/document/uzbekistan-1100001714-dvcdp-supervision-report-october-2020>

³ <https://www.ifad.org/en/-/document/uzbekistan-2000001283-admp-usb-supervision-report-june-2020>

⁴ Uzbekistan 1100001606: HSP Supervision Report October 2019

Project: Credit and Financial Services: Horticultural Support Project.

<https://www.ifad.org/documents/38711624/40330956/Uzbekistan+1100001606+HSP+Project+Completion+Report.pdf/ad781154-b4ea-145d-be8e-09adb4987a02?t=1601654507000>

2020 yil 4 avgust kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi (IFAD) prezidenti Gilbert F.Xunbo va Bosh vazir o‘ribbosari, Investisiyalar va tashqi savdo vaziri Sardor Umurzoqov moliyalashtirish to‘g‘risidagi bitimni imzolash uchun virtual tarzda uchrashdi.

Sababi barchamizga ma’lumki, O‘zbekiston iqtisodiyoti so‘nggi yillarda dunyodagi eng yaxshi ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, so‘nggi o‘n yil ichida iqtisodiy o‘sish o‘rtacha 8 foizni tashkil etdi. Biroq, 2020 yil mart oyidan boshlab, iqtisodiy ko‘rinish COVID-19 epidemiyasi natijasida yomonlashdi.

Virtual uchrashuv chog‘ida IFADning O‘zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Vrey Jijyan o‘z bayonotida, “Inqiroz qishloq joylarda qashshoqlik darajasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan muammolarni keltirib chiqardi. IFAD pandemianing iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini bartaraf etishga yordam berish uchun O‘zbekiston hukumati bilan yaqin hamkorlikda ishlamoqda”, deya o‘z fikrini bildirgan edi.¹

Haqiqatdan ham, mamlakatdagi kam daromadli odamlarning 75 foizi qishloqlarda yashashiga qaramay, so‘nggi yillarda qishloqlarda qashshoqlik pasaygan bo‘lsa-da, bir qator muammolar dolzarbligicha qolmoqda. Sharqiy O‘zbekistonning Farg‘ona vodiysidagi 375 mingdan ortiq qishloq aholisi zamonaviy dehqonchilik texnikasini joriy etish orqali o‘z daromadlarini oshirish, qishloq xo‘jaligini uzoq muddatli moliyalashtirish va qishloq joylarda ish o‘rinlari yaratish yo‘li bilan yangi moliyalashtirishdan foydalanishi haqida ham alohida to‘xtalib o‘tildi.

Shuningdek, uchrashuv chog‘ida , ADMP (Agriculture Diversification and Modernization Project) loyihaning umumiyligi 356,9 million dollarni tashkil etadigan, shundan 93,5 million dollar IFAD tomonidan amalga oshirilishi, 46,2 million dollar miqdoridagi yangi kreditga qo‘sishimcha ravishda, IFAD loyihani 46,2 million AQSH dollari miqdoridagi kredit (asl kredit), grant (asl) 0,3 million dollar va grant (qo‘sishimcha to‘ldirish granti) bilan moliyalashtirdi.

¹ IFAD and Uzbekistan bring improved incomes and livelihoods to the Fergana valley. 2020 y.
<https://www.ifad.org/en/web/latest/-/news/ifad-and-uzbekistan-bring-improved-incomes-and-livelihoods-to-the-fergana-valley>

Ushbu kelishilgan loyihaning O‘zbekiston uchun qo‘yilgan maqsadi: mahsuldarlikni oshirish va bozorga kirish, shuningdek, tabiiy resurslarni boshqarishni yaxshilash orqali tanlangan qiymat zanjirlarining inklyuzivligi va rentabelligini oshirish orqali qishloq aholisining daromadlari va turmush tarzini yaxshilashdan iborat. Loyiha qiymat zanjirining har bir bosqichini tahlil qilishga va qiymat zanjiri ishtirokchilari, ayniqsa Dexon fermerlarining mahsuldarligi, rentabelligi va raqobatbardoshligini oshirish potentsialiga ega bo‘lgan ehtiyojlarga sarmoya kiritishga yo‘naltirilgan talabga asoslangan yondashuvni targ‘ib qiladi.

Qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish va modernizatsiya qilish loyihasi (ADMP) o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uchta komponentdan iborat:

Inklyuziv qiymat zanjirini rivojlanadirish, manfaatdor tomonlarning salohiyatini oshirish va barqaror va samarali ishslashini, shuningdek, agrobiznes uchun samarali muhitni rag‘batlantirish.

Inklyuziv qishloq moliyasi, maqsadli kichik xo‘jaliklar o‘rtasida mahsuldarlik va samaradorlikni oshirish, turli ishtirokchilarga foydali qiymat zanjirlariga o‘z investisiyalarini ko‘paytirish imkonini beradi.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilish, yer unumdarligini oshirish va suv xo‘jaligini boshqarish bo‘yicha salohiyatini oshirish maqsadida suv iste’molchilari uyushmalari (SJU) tomonidan boshqariladigan xo‘jaliklararo sug‘orish tarmog‘ini modernizatsiya qilish orqali iqlimga chidamli qishloq infratuzilmasi.¹

Loyiha faoliyati mamlakatimizning, Farg‘ona vodiysida Andijon, Farg‘ona va Namangan viloyatlarida jamlangan. Maqsadli guruhlarga Dexon fermer xo‘jaliklaridagi kam ta’minlangan qishloq xo‘jaliklari, xususiy bog‘dorchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi kichik fermerlar, agrofirmalar kiradi. Bugungi kunda ushbu loyixa asosida, dexon va fermer xo‘jaliklari boshlig‘i ayollar, qishloq yoshlari ishtirokini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

¹ Agriculture Diversification and Modernization Project. <https://www.ifad.org/en/web/operations/-/project/2000001283>

Ushbu xalqaro jamg‘arma, 2021 yilda umumiy qiymati 81,7 million AQSH dollari bo‘lgan 98 800 ta uy xo‘jaligiga bevosita foyda ko‘rishga mo‘ljallangan uchta ssuda asosida moliyalashtiriladigan loyiha/dasturlarga 81,7 million AQSH dollari miqdorida mablag‘ ajratgan.¹

Navbatdagi yana bir yirik loyiha dasturining mazmuni, 2021 yildagi Bog‘dorchilikni qo‘llab-quvvatlash loyihasining dastlabki loyihasi (HSP) ilk bor IFAD Ijroiya kengashi tomonidan 2012 yil 3 aprelda tasdiqlangan. 2013-yil 17-dekabrda IFAD tomonidan moliyalashtirishning birinchi to‘lovi bilan kuchga kirgan. Loyerha maqsadlarini faoliyati 2021 yilda ham o‘z faoliyatini davvom ettirgan. **Bog‘dorchilikni qo‘llab-quvvatlash loyihasining maqsadlari quydagilar:**

- turmush darajasini yaxshilash,
- loyiha hududida qishloq aholisining iqtisodiy farovonligini yanada oshirish,
- kichik dehqonlarning daromadlari va aktivlarini oshirish?
- bog‘dorchilik kichik sektoridagi fermerlar, qayta ishlovchilar va xizmat ko‘rsatuvchilarini ko‘paytirish,
- kichik xo‘jaliklar va ichki va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlarini yaxshilash;
- ishlab chiqaruvchilar, protsessorlar va xizmat ko‘rsatuvchi provayderlar tomonidan investisiyalarning ko‘payishi
- bog‘dorchilik sohasida ishlab chiqarish aktivlari va dehqonchilik samaradorligini oshirish,
- ishlab chiqarish fondlari va mahsulotlarning harakatchanligi. Bu harakatlar amalga oshishi,²
- eksport bozorlari, oziq-ovqat xavfsizligini yaxshilash, daromadlar va bandlikni oshirish kabi maqsad va undan kutiladigan natijalar yuqoridagi loyiha

¹ <https://www.ifad.org/en/web/knowledge/-/publication/investing-in-rural-people-in-uzbekistan>
https://www-ifad-org.translate.goog/en/web/knowledge/-/publication/investing-in-rural-people-in-uzbekistan?_x_tr_sl=fy&_x_tr_tl=uz&_x_tr_hl=ru&_x_tr_pto=wapp

² Republic of Uzbekistan Horticultural Support Project (HSP) Project Performance Evaluation Approach Paper. 2021y. 33p. https://ioe.ifad.org/documents/38714182/41120203/PPE_HSP_Final_Approach_Paper.pdf/7c03b077-c21e-95f4-b439-3825d4d7e7bd

dasturida keltirib o‘tilgan edi. Ammo bugungi kunda ushbu natijalarga tezlik bilan erishish uchun albatta boshqa omillarning ham ta’siri sezilarli bo‘ladi. Misol uchun, iqlim o‘zgarishi, pandemianing hamon davom etayotganligi kabi tabiiy sabablar belgilangan maqsadga erishishda bosqichma-bosqich amalga oshirishimizni taqazo etadi.

Ta’kidlash kerak, IFAD O‘zbekistonda bog‘dorchilik va sut sanoati sohalariga kreditlar ajratgan birinchi xalqaro moliya institutlaridan biri hisoblanadi.¹ Ikki tomonlama o‘zaro munosabatlarni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida 2020-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.12.2020-yildagi PQ-4922-son “O‘zbekiston respublikasining BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti, BMT Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi hamda BMT Butunjahon oziq-ovqat dasturi bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi² Qarori asosida IFAD bilan “Yo‘l xaritasi” tasdiqlanganligi so‘zimizning isboti sifatida ko‘rshimiz mumkin.

Mamlakatimizning O‘zbekiston uchun 2017-2022 yillarga mo‘ljallangan strategik imkoniyatlar dasturi (COSOP) quyidagilarga qaratilgan:

qishloq aholisining yuqori qiymatli qishloq xo‘jaligi tizimlaridan foydalanish imkoniyatlarini va qobiliyatini oshirish;

qishloq joylaridagi kichik ishlab chiqarish subektlarining bozorlardagi ishtirokini faollashtirish uchun ishlab chiqarish aktivlarini va raqobatbardoshligini oshirish;

kichik ishlab chiqaruvchilarning tabiiy resurslardan ekologik jihatdan barqaror foydalanish qobiliyatini oshirish va ularning iqtisodiy faoliyatiga ta’sir

¹ O‘zbekiston va IFAD Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash va global muammolarni yengish yo‘lida strategik hamkorlikni kengaytiurmoqda. <https://www.agro.uz/11-04469/>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.12.2020 yildagi PQ-4922-son.O‘zbekiston Respublikasining BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti, BMT Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi hamda BMT Butunjahon oziq-ovqat dasturi bilan hamkorligini kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. <https://lex.uz/docs/5164680>

qiluvchi iqlim o‘zgarishlari va zarbalarga moslashish malakasini oshirishga¹ qaratilgan.

Shu yilning 2022-yil 25-oktyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi (IFAD) va O‘zbekiston hukumati o‘rtasida ikki tomonlama uchrashuv ko‘rinishidagi an’anaviy o‘tkazilib kelinadigan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Unda IFAD hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamkorligida ishlab chiqilgan “O‘zbekistonda 2023-2027-yillarga mo‘ljallangan mamlakat yangi strategik dasturi” (COSOP), shuningdek, O‘zbekistonda IFADning rasmiy vakolatxonasini ochish masalalari muhokama qilindi.

IFADning O‘zbekistondagi mamlakat direktori Fidi Radjaonson, jamg‘arma vise prezidenti Donal Braun, ushbu tashkilotning Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha ko‘p mamlakatli vakolatxonasi rahbari Bernard Xen, IFADning Yaqin Sharq, Shimoliy Afrika, Sharqiy Yeropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha hududiy bo‘limi direktori Dina Salex xonim, IFAD hamkorligi bo‘yicha direktor Maks von Bonsdorf, shuningdek, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi vaziri Aziz Voitov, suv xo‘jaligi vaziri Shavkat Hamroyev, qishloq xo‘jaligi vazirining iqtisod, innovasion rivojlanish va investisiyalar masalalari bo‘yicha maslahatchisi Alisher Shukurov hamda tegishli vazirlik va idoralar, xalqaro tashkilotlar vakillari ishtirok etishdi.²

Ushbu yig‘ilishni o‘tkazishdan **asosiy maqsad oziq-ovqat xavfsizligi va qishloq xo‘jaligi sohasi rivoji yo‘lida moslashuvchan investisiyalar uchun asosiy tarkibiy cheklavlarni qayta ko‘rib chiqish** va pirovardida donorlar faoliyatini samarali muvofiqlashtirish uchun takliflarni ishlab chiqishdan iborat bo‘lib, kelgusida O‘zbekiston va IFAD o‘rtasida hamkorlik harakatlarini doimiy yanada barqarorlashtirishdan iborat edi.

¹ Republic of Uzbekistan Country strategic opportunities programme 2017-2021. https://www.ifad.org/en-/document/country-strategic-opportunities-program-3?p_1_back_url=%2Fen%2Fsearch%3Fq%3DUzbekistan%2Band%2BIFAD

² Uzbekistan and IFAD renew strategic partnership to address global challenges including food supply. <https://www.ifad.org/ar/web/latest/-/uzbekistan-and-ifad-renew-strategic-partnership-to-address-global-challenges-including-food-supply>

Yig‘ilish avvalida IFADning “O‘zbekistonda 2023-2027-yillarga mo‘ljallangan mamlakat yangi strategik dasturi” (COSOP) taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv davomida ushbu strategiya loyihasining muhokamasida, hududlarda IFAD loyihalarini amalga oshirish natijasida 5 mingdan ortiq doimiy yangi ish o‘rinlari yaratilganligi, 100 mingdan ortiq benefisiar turli imtiyozlarga ega bo‘lganligi, hamda O‘zbekiston amalga oshirilayotgan islohotlar ko‘lami va samaradorligi bo‘yicha dunyoning eng yaxshi islohotchi davlatlarning “20 taligi”ga kiritilganligi haqida ma’lumot berildi.

Shuningdek, “O‘zbekistonda keyingi yillarda qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan tub islohotlar zamonamizning global muammolariga javob beradigan agrar va oziq-ovqat tizimiga samarali o‘tishning muhim omiliga aylanayotganligi to‘g‘risida, kyeyingi 5 yil davomida biz dehqon va fermerlar daromadlarini kamida ikki baravar oshirish, 2026-yil oxirigacha qishloq xo‘jaligining barqaror o‘sishini ta’minlashni maqsad qilganmiz.

Biz Toshkentda IFAD ning vakolatxonasi ochilishini mammuniyat bilan qabul qilamiz. Ishonchim komilki, IFADning ishlab chiqilayotgan 2023-2027-yillarga mo‘ljallangan strategik imkoniyatlar mamlakat dasturi hamkorligimizni yangi bosqichga olib chiqadi. Uning negizida mujassam bo‘lgan yo‘nalishlar davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan 10 yillik “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish strategiyasi”ni amalga oshirish natijalarini mustahkamlashga xizmat qilishi shubhasiz. Uning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, raqobatbardoshlikni oshirish, agrotarmoqqa bozor mexanizmlarini joriy etish va rivojlantirishdan iborat”, – deya ta’kidlab o‘tdi o‘z chiqishida O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri Aziz Voitov.¹

O‘zbekistonda IFAD kreditlari kichik qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va qishloq tadbirkorlik tizimlari orqali qishloq aholisining barqaror daromadlarini oshirishga yordam beradi.

¹ O‘zbekiston va IFAD Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va global muammolarni yengish yo‘lida strategik hamkorlikni kengaytirilmoqda. <https://www.agro.uz/11-04469/>

Prezidentimiz tomonidan joriy yil 15-syentyabr kuni imzolangan “Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi ishtirokida “qishloq xo‘jaligini diversifikasiya va modernizatsiya qilish” loyihasini amalga oshirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu borada muhim qadam bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Negaki, unga muvofiq, Loyihani amalga oshirish doirasida Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasining krediti hisobidan xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va transport vositalari bojxona to‘lovlaridan (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig‘imlardan tashqari), qo‘shilgan qiymat solig‘idan va yig‘imlardan ozod qilinadi.

Prezidentimiz qaroriga asosan Qishloq xo‘jaligi vazirligi endilikda Loyihaning o‘z vaqtida va to‘liq amalga oshirilishini hamda natijadorligini ta’minlaydi. Loyihada ishtirok etuvchi tijorat banklari zimmasiga kredit liniyasini boshqarish, Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi qarzining o‘z vaqtida o‘zlashtirilishi va maqsadli foydalanilishini ta’minalash, shuningdek, subloyihalarni amalga oshirish bo‘yicha hisobot va monitoringni yuritish vazifalari yuklanadi.

Xulosa shuki, mazkur qarordan ko‘zlangan maqsad bitta – O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasi ijrosini ta’minalash va Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish xalqaro jamg‘armasi bilan hamkorlikni kengaytirish. Uning ijrosi esa mahsulot ishlab chiqarishni diversifikasiya qilish va qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishni kengaytirish asosida qishloq aholisi bandligi va daromadini oshirishga xizmat qiladi.

FAO bilan O‘zbekistonning hamkorlik qilish jarayonining o‘ziga xos xususiyati shundaki, u mintaqaviy va global oziq-ovqat inqirozi bilan bog‘liq bo‘lgan davlatlar o‘rtasidagi o‘sib borayotgan o‘zaro bog‘liqlik sharoitidagi ochlikni bartaraf etish hamda oziq-ovqat havfsizligini oldini olishga oid harakatlarini amalga oshirilmoqda.

Qashshoqlikning ekstremal shakllarini yengish bo‘yicha Mingyillik Rivojlanish Maqsadiga erishganligi sababli, yuqorida aytib o‘tilganidek, ochlik kambag‘allikning sababi va oqibati ekanligini yodda tutish kerak.¹

FAOning ustav maqsadlaridan kelib chiqqan holda, barcha hamkorlikka oid hujjatlar FAOning maq sadlarini tarmoqlararo hamkorlik va sheriklik aloqalarini rivojlantirish tamoyillariga asoslangan holda shakllantiradi. Strategiya FAO tez o‘zgaruvchan dunyo sharoitida moslashuvchanlikni qo‘llagan holda, o‘z ustav vazifalarini maqsadli va izchil bajarishga qodirligini ta’minalashga qaratilgan. O‘zbekistonda oziq-ovqat sohasidagi hamkorlikning mustahkamlanayotganligini davlatimizning IFAD jamg‘armasi bilan qishloq xo‘jaligi sohasidagi kichik korxonalardan iborat ishlab chiqarish tizimlarini kengaytirish hisobiga qishloq ahолisi daromadlarining barqaror o‘sishini ta’minalashga qaratilyotganligi ham jamiyatda kambag‘allikni bartaraf etish bilan bog‘liq bo‘lgan bir harakat deb ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekistonda yanada ochiq va bozorga yo‘naltirilgan iqtisodiyotni barpo etishga qaratilgan katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi siyosat yo‘nalishi qishloq xo‘jaligining eksportga yo‘naltirilgan iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatidagi ahamiyatiga, qishloq joylarni jonlantirish va dehqon (mayda dehqon) xo‘jaliklarining ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanishga e’tiborni kuchaytirishni o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, aytishimiz mumkunki, FAO qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashda muhim rol o‘ynamoqda. FAO BMTning ixtisoslashtirilgan muassasasi sifatida rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatlarini himoya qilishning muhim mexanizmi bo‘lib xizmat qilyapti. Uning tashkiliy tuzilishi va asosiy ishchi organlari qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalashda dunyo davlatlarini rag‘batlantirib va qo‘llab quvatlab kelmoqda.

¹ Strengthening the international partnership for effective poverty reduction. Committee for Development Policy. United Nations. Geneva, 2007.

XULOSA

Tadqiqot ishi davomida BMTning ixtisoslashgan tashkiloti Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti FAO va O‘zbekiston Respublikasining xalqaro-huquqiy hamkorlik asoslari kompleks ravishda o‘rganish va tahlil qilishga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotning natijalari bo‘yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarni quydagi uch yo‘nalishda shakillantirish maqsadga muvofiq:

Birinchi yo‘nalish-xalqaro huquqqa oid nazariy qoidalarni rivojlantirish bo‘yicha quydagi ilmiy-nazariy xulosalarga kelindi:

1. FAO shakllanishiga sabab bo‘lgan omillarni uchta guruhga tasniflanadi: birinchisi, bevosita mehnatkashlar va kasaba uyushmalarini manfaatlarini ifoda etuvchi holatlar bo‘lib, mehnat sharoitlari va ijtimoiy ahvolning ayanchliligi sababli ularni yaxshilashga, shuningdek kabag‘allikni oldini olishga qaratilgan harakatlarni o‘z ichiga oladi; ikkinchisi, qishloq xo‘jaligini diversifikatsiya qilish hamda tadbirdorlarning manfaatlarini nazarda tutuvchi raqobatbardoshlik (tovarlar va xizmatlar)ni saqlashga qaratilgan harakatlar, uchinchisi, butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi bo‘lib, ochlikni bartaraf etish yo‘lida ko‘rilayotkan chora-tadbirlardan iboratdir.

